


E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova

KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**MIGRANOVA ELVIRA ASLAMOVNA, POZILOVA
SHAHNOZA XAYDARALIYEVNA**

KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH

O‘QUV-QO‘LLANMA

**5350400 – AKT SOHASIDA KASB TA‘LIMI BAKALAVR
TALABALARI UCHUN**

**«Tafakkur-bo‘stoni» nashriyoti
Toshkent – 2018**

UO•K: 378.013.2(075.8)

KBK: 74.58

M 48

Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish / o'quv qo'llanma.
E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova – Toshkent: «Tafakkur
bo'stoni», 2018. – 200 b.

Taqrizchilar:

**TDU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini mudiri,
p.f.n., dosent M.E.Ahmedova**

TMI, “Kasb ta'limi” kafedra professori, p.f.d. S.Xasanov

Mazkur fan dasturi bakalavriatura «AKT sohasida kasbiy ta'lim» ta'lim yo'nalishlarida o'qiladigan «Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish» o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, bo'lajak mutaxassis egallashi kerak bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar majmuini o'z ichiga oladi.


“Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish” fanini o'qitishdan maqsad talabalarni “Kasbiy ta'lim”ning (informatika yo'nalishi bo'yicha) tub mohiyati bilan tanishtirish, kasbiy pedagogik faoliyat mazmuni, AKT sohasi uchun ishchi va mutaxassis bakalavrlarni kasbiy tayyorlash vazifalari, shuningdek birinchi bosqich bakalavr talabalarini o'quv yurti bilan tanishtirish, uning bo'linmalari tuzilmasi bilan, OTMda o'quv jarayoninig tashkil etilishi bilan, umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni samarati egallash usullari va ularni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashdagi boshqa masalalari bilan tanishtirish.

Ushbu o'quv qo'llanma universitetning AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

UO•K: 378.013.2(075.8)

KBK: 74.58

ISBN 978-9943-993-52-5



© E.A.Migranova, Sh.X.Pozilova, 2018
© «Tafakkur bo'stoni»nashriyoti, 2018

KIRISH

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati bilan birgalikda va jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar ishtirokida 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada davlat qurilishi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo‘yicha eng dolzarb vazifalar aniq belgilab berildi. Bunga asosan uzoq-yaqindagi barcha xorijiy mamlakatlar, jahon hamjamiyati bilan samarali hamkorligimizni davom ettirilishi, ochiq, do‘stona va pragmatik siyosat olib borish tamoyiliga sodiq qolinishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol munosabatlar va hamkorlik olib borish O‘zbekistonning milliy manfaatlariga xizmat qilishi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, boshqa xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar bilan amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirilishi haqida fikir yuritildi¹. Ta’lindagi yangilanish ta’lim jarayoni orqali o‘quvchini o‘z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o‘z taqdiri va o‘z shaxsiga ongli munosabatda bo‘lib, turli faoliyatlarda o‘zini-o‘zi rivojlantira oladigan erkin faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Mustaqillik tufayli o‘z taraqqiyot yo‘lidan borayotgan O‘zbekistonda yangicha fikrlaydigan bo‘layotgan voqea-hodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o‘rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Endilikda oliy ta’lim muassasalari oldiga faqatgina o‘qimishli insonnigina emas, balki voqealarni oldindan ko‘ra biladigan, to‘g‘ri qaror qabul qila olish uquviga ega, o‘zini o‘zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi qo‘yilmoqda. Darhaqiqat, o‘qimishli, ruhan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017.

tetik, sog'lom va jismonan baquvvat kishilargina istiqloq va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi tarzida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb-hunar sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorgarlik masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining kun tartibida turibdi.

Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish fanining amaliyotida shu narsa sezilmoqdaki, bo'lajak pedagog mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik mazmuni, shakllangan shaxs modeli va ixtisoslik faoliyatini ta'riflash me'yorlarini ishlab chiqish, faoliyat subyektining kasbiy tasavvuri va tafakkurini hamda o'zini o'qituvchi sifatida anglab yetishini tadqiq qilish masalalariga ilmiy jamoatchilikning e'tibori yanada ortmoqda. Pedagog shaxsida kasbiy muhim sifatlarni shakllanishi o'ziga xosligini o'rganish muammoga nisbatan yonashishni talab qiladi.

Pedagog shaxsidagi muloqotchanlik, tashkilotchilik, empatiya qobiliyatlarining shakllanganligi ulardagi kasbiy-muhim sifatlarni belgilovchi omillardan sanalishi ehtimol. Shuningdek, kasbiy yo'nalganlik tarkibidagi predmetga yo'nalganlik, intelligentlik, qo'llab-quvvatlash motivatsiyalari yetakchilik qilishi mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" fanidan ma'ruza mashg'ulotlar o'tkazish, dars samaradorligini oshirish, "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" ixtisoslik bo'yicha bilimlarni egallash; pedagoglarni kasbiy faoliyati bilan tanishtirish, ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo'llarini ko'rsatib berish, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi fanlarini zamonaviy o'quv texnik vositalar asosida o'qitish metodikasiga o'rgatish, informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi fanlarini zamonaviy o'quv texnik vositalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish masalalarini qamraydi. O'quv qo'llanma "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" fani o'qituvchilari uchun zarur manba sifatida mo'ljallangan.

I-BOB. KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI. OLIY VA O'RTA KASBIY PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMINING TUZILMASI. UNING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

1.1. Kirish. Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish fani bo'yicha maqsad va vazifalari, mazmun va ishlash shakli, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

Kadrlarning tasnifiy tavsifi, davlat ta'lim standartlari, me'yorlar, ta'lim mazmunini, moddiy texnika bazasini, moliyalashtirishni, professor-o'qituvchilar tarkibini, ta'lim muassasasining o'quv-ilmiy, ishlab-chiqarish va boshqa faoliyatlarini aniqlovchi Nizomlar va boshqa hujjatlar Milliy dastur markaziy strategiyasining huquqiy-me'yoriy bazasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi dolzarb vazifalarni hisobga olgan holda ushbu ma'ruzalar matni universitetning barcha fakultetlari kasbiy-pedagogik tayyorgarlik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun 18 soatli ma'ruza, 18 amaliy mashg'ulot, 20 soatli mustaqil ta'lim shaklida mustaqil fan sifatida 1-kursda o'tilishi lozim bo'lgan "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" fani bo'yicha tayyorlandi.

"Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" fani o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy–tekshirish ishlari, o'qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarning huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash kabilarni talabalarga tanishtiradi.

Talabalar kurs materiallarini o'zlashtirish uchun nimalar qilinishi lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni yakuniy nazorat va reyting ishlariga tayyorlash hamda ularni o'tkazishni tashkil etish, talabalar o'quv-tadqiqot va ilmiy-tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv-mehnat va turmush nafosati kabi sohalarga ham "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" fanida alohida o'rin ajratiladi.

Olinayotgan bilimlar talabalarning ongiga to‘la singib borishi, bo‘ljak mutaxassislarning hayotiy maqsadlariga aylanishi kerak bo‘lgan asosiy masaladir.

“Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish” fanining maqsadi talabalarda pedagogik faoliyatiga ko‘nikma hosil qilishdan iboratdir.

Pedagog – bu moxir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko‘radi, o‘z o‘rtoqlarining maslahatiga quloq soladi, qo‘lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondoshadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, o‘z ishining ustasi, jamiyatning hakikiy ziyolisidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha Oliy o‘quv yurtlarida 1974–1975-o‘quv yilidan boshlab o‘quv rejalariga “Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish” mustaqil fanini kiritish haqida qaror qabul qilingan edi. Hozirgi paytda bu fan uchun 18 soatli ma’ruza, 18 soatli amaliy mashg‘ulot va 20 soatli mustaqil ta’lim kursi ajratilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga tezrok moslashtirish, uning sharoitini o‘zlashtirib olishda ko‘maklashish bo‘lib, oqibat natijada fanlarni yaxshi o‘zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmovchiliklarning oldini olishdan iboratdir.

“Kasbiy pedagogik faoliyatiga kirish” fani birinchi kurs talabalariga o‘quv yurtlarining qisqacha taraqqiyoti tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o‘qitish jarayonining asosiy formalari, o‘quv rejasining mazmuni, ilmiy-tekshirish ishlari, o‘quv va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalardan foydalanish, talabalarni huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni to‘g‘ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muxofazasi bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi. Ushbu kursda o‘quv materiallarning o‘zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozimligi, o‘zlashtirishni hisobga olish, talabalarni reyting nazoratlariga tayyorlash hamda ularni o‘tkazishni tashkil etish, talabalar o‘quv tadqiqot va ilmiy-

tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularni turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv mehnati va turmush nafosati singari sohalarga ham alohida o'rin ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish borasida raqobatbardosh kadrlar, ayniqsa, turli ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchilar (tarbiyachilar, o'qituvchilar va pedagoglar) ni tayyorlash bo'yicha qator muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da kadrlar tayyorlash, fan va ishlab chiqarish integratsiya asosida aholining bilim saviyasini jadal ko'tarish muammosini yechishda kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimiga katta ahamiyat berilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni qoidalariga binoan kadrlar tayyorlashning milliy modelini amalga oshirish bu tizimni mamlakatda amalga oshirilayotgan ishtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda tubdan isloh qilishni ko'zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi zamonaviy pedagogga qo'yiladigan talablar majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning ushbu majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi.

Umumlashgan modelga muvofiq asosiy (fundamental) talablar quyidagilardan iborat:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiyat fazilatlarini;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

Ko'p yillik ta'limdagi tajribalarga asosan ba'zi mavzularni amaliy jihatdan tadbiq qilib bo'lmaydi.

Ta'lim berish mahorati pedagogga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan: quyidagi bosh (dominant) omillar bilan aniqlanadi:

- qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayoni muhiti;

- pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarligi;
- fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya;
- yangi pedagogik va kompyuter texnologiyalarni bilish;
- kasbiy axborot manbaalari sifatida chet tillarini bilish;
- yangi uslubiy va bilim manbasi sifatida ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;
- uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarini bilish;
- o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning moddiy texnika bazasi bilan bog'liq bo'lgan axborot bazasi va resurslari.

Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma'naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqiy, vatanparvarlik va burch (hislar)iga asoslanadi. Ta'lim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, ma'naviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o'zi gumanitar va gumanistik ruhda tarbiyalangan hamda o'quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi shart.

Bizga ma'lumki, ta'limni rivojlantirishda o'quv yili davomida oddiy yoki sodda ma'ruzalardan foydalanib emas, balki interfaollikka asoslangan amaliy jihatdan yondashilgan ma'ruzalardan foydalansak maqsadga muvofiq bo'lgan bolar edi.

Ushbu tushunchalardan kelib chiqqan holda SOLO taksonomiyasi bilan tanishamiz:

SOLO – (Structure of the Observed Learning Outcomes) o'rganilgan o'qitish tizimining natijalari degan ma'noni bildiradi. Bu taksonomiya ta'lim sohasini bosqichma-bosqich rivojlantirish ya'ni talabalar bilimni har o'quv yili hisobidan murakkablashtirishga asoslangan (Biggs va Collis, 1982; Biggs, 1999).

Bu ta'lim sifatini va batafsil miqdorini o'zgarishi evaziga bo'ladi. Birinchi navbatda miqdoriy o'zgarishlar keyin esa o'quv sifati o'zgaradi. Bu ta'limni kognitiv tomondan ta'lim klassifikatsiyasi uchu asos sifatida ishlatiladi, lekin u boshqa taksonimiyalarga ham qarshi ishlatilishi mumkin, masalan, Blum tasonomiyasi.

SOLO taksonomiyasi shunday ierarxik klassifikatsiyani taqdim etadiki, bunda har bir daraja birinchisining davomi bo'lib hisoblanadi:

Prestuctural: alohida so'lar darajasida tushunish. Bu darajada talabalar ba'zi tushunchalarni unutib, taftoligiyani qo'llashlari mumkin, ya'ni bu orqali ular o'zlashtirilgan bilimlarni haqiqiylik bilan bog'lashlari kerak. Bunday anglash oliy ta'limda kam uchraydi;

Tizimlashtirilmagan: javob terminologiya bilan shug'ullanish. Bunda ular vazifani faqat bir qismini qondiradilar va muhim sifatlarini tashlab ketadilar;

Multitizimlashtirilgan : ko'p faktlar keltirilgan, lekin ular tizimlashtirilmagan va asosiy masalga yondashilmagan;

Relasion: batafsil ma'lumotlardan iborat, berilgan masalani asosiy nuqtasi va mantiqiy murojaatga ega;

Mavhum kengaytirilgan: berilgan masalani yechimini topishga yo'naltirilgan asosiy tushunchalarni tafsiflaydi.”²

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy; fazilatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va hayrihohlik, kirishimlilik va hazil-mutoiba hissi. Ushbu fazilatlar pedagogning ta'lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlarining ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini reyting asosida baholash va nazorat qilish mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta'lim berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'liq.

Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlarini obyektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting-nazoratda qo'llay olishi, hamda standart testlarni ishlab chiqarish olish va qo'llay olish bilishi lozim.

Oliy ta'lim-mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni ta'minlovchi, uzluksiz ta'limning zamonaviy talablariga javob beradigan, o'zi tanlagan bilimlar sohasi yo'nalishi (ixtisosligi) bo'yicha ijodiy faoliyatiga tayyor, respublikaning ilmiy-

² Teaching and learning in higher education. Chapter: Understanding student learning (page.13-14)

texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir, yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlariga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi mustaqil ta'limturidir.

Oliy ta'limning kasbiy-ta'lim dasturlarini o'zlashtirish o'rta maxsus kasb-hunar ta'limidan keyin, ular negizida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim auditoriya mashg'ulotlari auditoriyadan tashqari (o'ziga tayyorlanish), mustaqil bilim olish va eksternet shakllarda tashkil qilinadi.

Oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Oliy maktabdagi ta'lim o'rta (o'rta maxsus) ma'lumot negizida amalga oshiriladi va muayyan mutaxassislik (yo'nalish) ga yo'naltirilgan bo'ladi.

2. Oliy maktabdagi ta'lim didaktik jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi.

3. Oliy maktabdagi jarayon o'ziga xos shakl va metodlarda olib boriladi.

Bu jarayonni modellashtirish umumiy didaktik va o'qitishning bu pog'onasi didaktikasi muammolari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim o'rta (o'rta maxsus) negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash:

— ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish, boshqaruvni takomillashtirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

— Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalanilgan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirilishi, xalqning boy ma'naviy va intellektual meros va umummanbaalik yo'nalishini ta'minlash;

— Ishlab chiqarishning talab va ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantirishda, kasb

tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish, o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar bilan jihozlash kabilarni vazifalarni talab etmoqda.

Mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda muxandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish ta'limi tajribalarini tadbiq eta olishlari katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda "Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish" o'quv kursi katta ahamiyatga ega.

Metodik ishlarning maqsadi ishlarning sifatini yaxshilash, o'qituvchining rejasi va dasturlariga to'liq amal qilib, dars o'tishlariga erishish ilg'or tajribalarni o'rganish, ulardan foydalanish, o'qituvchilarni fan, madaniyat sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirishga qaratilgandir. Metod birlashmalarida yangi zamonaviy metodlardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi, ochiq darslar o'tkaziladi, ilg'or o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalari o'rganiladi. Ba'zi matnlarni o'tish rejaları va o'qituvchilarning rejaları, konspektlari muhokama qilinadi.

Metodik ishlarning rejasida quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. O'quv dasturi asosida o'tiladigan darslarning mavzularini, rejasi, ma'ruza-matnlarni tuzish, muhokama qilish va tasdiqlash;
2. Ko'rsatmali materiallarni tayyorlash;
3. O'tkazilgan ochiq darslar mavzularni va kuzatilgan darslarni muhokama qilish;
4. Fandagi yangiliklar ma'naviyat va mafkura, ta'lim-tarbiya sohasida ilg'or ilmiy tajribalar to'g'risida ma'ruzalar qilish;
5. Seminar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni muhokama qilish;

6. Semestr davomida o'tkaziladigan joriy nazorat, oraliq baholash va yakuniy baholash o'tkazish, kurs ishi, kurs loyihalash, diplom ishlari kabi ishlar metodik ish rejasiga kirgiziladi.

Endi o'qitish metodikasini ko'rib chiqamiz.

Metodika-metod va usullarning yig'indisidan iborat bo'lib, qandaydir harakatni amalda bajarilishidir. O'qitish metodikasida u yoki bu fanni o'rganish haqida tushuniladi.

Adabiyotlarda shunday so'z talqini uchraydi "O'qitish metodikasi", "O'rganish metodikasi". Bu ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir. Chunki o'qitish-bu o'rgatilganni faoliyatini, o'rgatish esa ularni birgalikdagi faoliyatidir. O'qitish metodikasining metodologik asoslari bilim nazariyasi bo'lib, umumiy qonuniyatlarni, inson atrofida sodir bo'layotgan, uni o'rab turgan dunyo shakli va metodlarni o'rganadi.

O'qitish metodikasi o'quv fani sifatida bo'lg'usi muxandis-pedagogga quyidagini tushuntirish kerak:

Qanday va nimaga o'qitish, qanday ketma-ketlikda va nimaga shunday o'qitiladi, boshqacha emas? U nafaqat metodlarning bilim ta'lim mazmunini, o'qitilayotgan fanlar majmuasini o'z ichiga oladi. O'qitish metodikasi fani maxsus va ishlab chiqarish ta'limi fanlari kasb-hunar maktablari va kollejlarda o'qitiladigan predmetlarni bir butun guruhlar sifatida birlashtiradi.

"Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish" o'quv kursida talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishiga tadbiiq etilgan holda o'quvchilarga o'qitish metodlarini o'rgatishdan iborat. O'quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirish kasb-hunar kolleji o'quv dasturlari hamda hujjatlarni to'g'ri yuritish kabi muammolarni yechishga yordam beradi.

Intellektual hamda sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'lim tizimining bosh maqsadi – bu raqobatbardosh tovarlar yetishtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali raqobatga qodir xizmatlarni ko'rsatishdir. Bu mamlakatlarda kasbiy ta'limning iqtisodiy xizmatlari jamiyat taraqqiyotida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori malakali kadr tayyorlashda ta'lim,

ilm-fan va ishlab-chiqarish qay darajada o‘zaro bog‘langan, o‘zaro hamkorlikka erishgan bo‘lsa, professional ta‘limdan foyda shunchalik ko‘p bo‘ladi.

AQSH, Fransiya, Yaponiya kabi intellektual va sanoati rivojlangan bir qator davlatlar tajribasining tahlili ko‘rsatishicha barcha pog‘onalarda yetishtiriladigan kadrlar raqobatbardoshligi va kadrlar tayyorlashning sifati:

- ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o‘zviy bog‘langanligi;
- fan-texnika, texnologiya va iqtisodiyot borasidagi erishilgan eng so‘nggi yutuqlarga asoslanib ishlab chiqilgan kasbiy ta‘lim dasturlari hamda ta‘lim muassasalari turlarining rang–barangligi;
- professional ta‘lim tizimini iqtisodiyotning ustuvor va foyda keltiruvchi tarmog‘iga asoslanganligi;
- ta‘lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlari hamda moddiy-texnikaviy bazasi bilan ta‘minlanganligi;
- professional ta‘lim tizimiga yuqori malakali o‘qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilinganligi;
- ta‘lim jarayonining informatsiyalashtirilganligi va kompyuterlashtirilganligi;
- kadrlar tayorlash sifatini xolisona baholash va nazorat qilish tizimining qo‘llanilganligi;
- intellektni o‘lchash va baholash, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni o‘lchash va baholash, ularning o‘sishi muammolari bo‘yicha, shuningdek kasbga yo‘naltirish muammolari bo‘yicha psixologik-pedagogik izlanishlar, tadqiqot ishlarining bajarilganligi;

Xorijiy mamlakatlar va respublikamiz tajribasidan kelib chiquvchi fikr-mulohazalar va xulosalar hamda yuqorida zikr etilganlar, O‘zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida olib borilayotganligi islohotlar siyosatining beshta tamoyili kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asos qilib olingan.

Kadrlar hayotiy siklining uchta asosiy bosqichida ularning malakasi yuqori bo‘lishini ta‘minlashga kompleks yondoshish Milliy dastur strategiyasining negizida yotadi.

Birinchi bosqichda kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bashorat qilinadi va shaxs, jamiyat va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti

ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muayyan talablar aniqlanadi. Bunda oldindan aniqlanuvchi ildam malaka saviyasi o'rganiladi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi. Bunda o'rnatilgan malaka saviyasi ta'minlanadi va nihoyat, uchinchi bosqichda kadrlardan kasbiy faoliyati doirasida foydalanish bilan bog'liq bosqichda ta'minlangan malaka saviyasi qo'shimcha kasbiy ta'lim (yoki o'zi mustaqil bilim olish) miqyosida davriy ravishda yangilanishi va ortib borishi kerak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
2. Mutaxassis deganda nimani tushunasiz?
3. Oliy o'quv yurtlari o'quv rejasiga "Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish fani" qachondan buyon kiritilgan?
4. SOLO taksonomiyasi haqida nimalarni bilasiz?

1.2. Kasbiy-pedagogik ta'limning tarixi: muammolar va rivojlanish istiqbollari

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, muhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish masalalari bilan shug'ullanadi.

Ta'lim nazariyasi "didaktika" tushunchasi bilan ham ifodalanadi. "Didaktika" so'zi grekcha "didasko" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish" degan ma'noni bildiradi. Didaktikaning o'rganish obyekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir.

Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish, avlodlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Pedagogik jarayon – bu o'qituvchi va talaba bilimlarini, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashni o'z ichiga qamrab oladi. Kasb ta'limi jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponentdir.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu: talabalarda bilim,

malaka va ko'nikmalarni hosil qilish: ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish; o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir.

Ta'lim – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni talabalar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Demak, pedagogik ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi. Talabalar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar. Bunda bilimning o'zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish lozim. Buning uchun esa talabada ko'nikma va malaka hosil qilish zarur.

O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar – fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisodiyot asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmaganda holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon yetkazmagan holda yechimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan quyidagi muammolar muhimdir:

1. **Texnik muammolar** – bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron hisoblash va mikroprotsessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, uni qo'llash xususiyatlarini belgilaydi;

2. **Dastur muammolari** – bular ta'lim tizimida foydalanish uchun dastur ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;

3. **Tayyorgarlik muammolari** – bular o'qituvchi va o'quvchi, pedagog va talabalarning hisoblash texnikasidan foydalanish uquvi bilan bog'liqdir.

Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida:

- ✓ Zarur bilimlar bilan qurollantiriladi.
- ✓ Kerakli malakalarga ega bo'ladi.
- ✓ Ko'nikmalar hosil qiladi.

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimi va umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv moddiy bazalari bugungi kunda bir necha yo'nalishda rivojlanmoqda:

- ta'lim oluvchilarning o'quv-texnika vositalariga bemaolol yondashishi, qo'llashi;
- axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- o'quv ko'rgazmali vositalarni qo'llashi;
- o'qitish tizimining bir-biriga bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rtta yo'nalishdagi yangi axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi:

1. Nashriyot texnologiyalarini qo'llash.
2. Telekommunikatsiya.
3. Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.
4. Kompyuter robotexnikasi.

Telekommunikatsiya tizimlari yangi pedagogik va axborot hamda turli sohalaridagi kasbiy bilimlarni eng qisqa vaqtda uzatish imkoniyatini beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, o'qitishning yana bir yo'nalishini, ya'ni – media o'qitishni vujudga keltiradi.

Bunda ta'lim oluvchilar turli xil ommaviy axborot vositalarini (gazeta, jurnal, TV, kino, radio, video va boshqa) egallab olishga tayyorlash yo'nalishida olib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy pedagogik ta'lim haqida
2. Kasbiy pedagogik ta'limning muammolari
3. Kasbiy pedagogik ta'limning rivojlanish istiqbollari

1.3. Zamonaviy oliy va o'rta kasbiy pedagogik ta'lim tizimining tuzilmasi, xususiyati va rivojlanish istiqboli


“Oliy ta'lim” atamasi zahirida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo'llagan va o'z ustida ishlagan holda nazariy va amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi o'zi tanlagan yo'nalish yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;
2. Oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
3. Oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqloq g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
4. O'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish;
5. Oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali aloqalarni rivojlantirish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta'limni boshqarish davlat vakolati organi tomonidan amalga oshiriladi.



Oliy ta'lim boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hisoblanadi.

Talabalarining ta'limi, tarbiyasi, o'qishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, ta'lim va tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash mezonlarini ishlab chiqadi, kasb ta'limi muassasalari turlarini va ularni boshqarish tizimini asoslaydi. U pedagogik nazariyalar to'g'risidagi bilimlarini, innovatsion texnologiyalarni loyihalash uslublarini umumlashtiradi. Kasbiy pedagogika fani insonni kasbiy faoliyatga tayyorlash, yangi avlodni kasbiy tarbiyalash, malakali ishchi kuchini yangi talablar darajasiga moslab borishni ko'zda tutadi.

Mustaqillik yillarida "Kasbiy pedagogika" fani ham rivojlana boshladi. O'zbekistonda bir nechta olimlar bu fanning mustaqil fan sifatida shakllanishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Shulardan Allayorov, Nishonaliyev, Mirsaidov, Jo'rayev, Choriyev, Xujaboyev, Davlatov, Abduquddusov va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, psixik-individual rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini jadallashtiradi.

Ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'limning mazmunini uning usullari va vositalari hamda tashkil etish shakllari o'zida aks ettiradi.

Ta'limni tashkil etishdan maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha ma'noini anglatadi: ya'ni, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakadarni hosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarini shakllantirish; o'quvchilarning muayyai darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali va chin inson bo'lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'limning tarbiyaviy vazifasining mohiyati, uning mazkur obyektiv jarayonga belgilaydigan maqsadga yo'nalganlik va jamoaviy ahamiyatlilik baxsh etib yondoshishdan iborat.

Ta'lim jarayonini uch qirrali deb qarash mumkin:

1. bilim, iqtidor va ko'nikmalarni malakalarga aylantirish jarayoni;

1. shaxsiy sifatlarni tarbiyalash;

2. shakllangan hislatlarni rivojlantirishdan iborat.

Bu qirralar juda murakkab bog'liklikda bo'ladi va biri boshqasining davomi bo'lib yuzaga chiqadi, uning sababi; boshqasi esa uning natijasi bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchi - talabaning bilish faoliyatini tashkil etish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni uch maqsadni hal etishi lozim:

1) TA'LIMY MAQSAD – o'quv materialini mazmunini bilish, ya'ni fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish;

2) TARBIYAVIY MAQSAD – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining Shaxsiy sifatlari, imon-e'tiqodini shakllantirish;

3) RIVOJLANTIRUVCHI MAQSAD – ta'lim jarayoni ta'sirida Shaxsning aqliy kamoloti, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Qonuniyatlar – aniq bir sharoitda bog'lanishlarning umumiy, obyektiv va mavjud narsalarning aks ettirilishidir.

Qonuniyatlar – ob'ektlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'lganda; bog'lanishlarning paydo bo'lish chegarasi belgilanganda; va bu bog'lanishlarning xarakteri, shakli va turi to'g'ri tadqiq etilgandagina aniq belgilanadi.

Qonun – bu qonuniyatlarning qat'iy belgilanishidir

Ta'lim qonuniyatlari jamiyatning rivojlanish bosqichi va tempiga, uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga, pedagogika ilmi va amaliyotining rivojlanish darajasiga bog'liq.

Ta'lim jarayoning qonuniyatlari quyidagilarni o'zida aks ettiradi:

- pedagogik jarayonning yaxlitligi;
- pedagogik jarayonning dinamik xususiyatga egaligi;
- o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish va unga ta’sir etish;

Abu Ali Ibn Sino (980–1037) bilim olishda shaxslarni o‘quv muassasasida o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- talaba bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;

- o‘qitish da jamoa bo‘lib, o‘quv muassasasida o‘qitishga e’tibor berish;

- bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish.

Bir tomondan ijtimoiy-tarixiy yashashning maxsus shakli, ilmiy bilim kategoriyasi sifatida, boshqa tomondan, tabiiy va ijtimoiy borliqni, ularni maqsadli o‘zgartirilishini, mavjud bo‘lish va rivojlanish usuli sifatida biz faoliyatni tushunamiz.

Ijtimoiy qonunlar tabiat qonunlaridan farqli ravishda faqat inson faoliyati orqali anglanadi, u qandaydir boshlang‘ich materialni mahsulotga aylantiradi, borliqni yangi shakli va xususiyatlarini yaratadi.

Istalgan faoliyat, subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi, o‘z ichiga maqsad, vosita, o‘zini o‘zgartirish jarayoni va uning natijasini kiritadi, dunyoni rivojlanish omiliga aylanadi. Insonni yashash shakli va mavjud bo‘lish usuli sifatida chiqib, faoliyat:

- insonni tabiiy ehtiyojlarini qoniqtirilishini, insonni moddiy yashash sharoitlarini yaratilishini ta’minlaydi;

- uning madaniy ehtiyojlarini amalga oshirish shartida, insonni ruhiy va hayotiy maqsadarga erishish, o‘zining shaxsiy potensialini, amalga oshirish sohalari hisoblanadi;

- ijtimoiy qiziqishlarini amalga oshirish uchun, ijtimoiy munosabatlar tizimida insonni ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlarni yaratadi;

- ilmiy bilish, o‘z-o‘zini bilish va o‘z o‘zini rivojlantirish man’bai hisoblanadi;

- bilishni va atrof muhitni o‘zgartirishni ta’minlaydi.

Faoliyatni muhim tafsifnomalari hisoblanadi:

1) predmetlilik – faoliyat jarayonida o‘zgartiriluvchi borliq dunyoni xususiyatlari va munosabatlariga o‘xshatiladi, shunga bo‘ysunadi;

2) ijtimoiylik – inson faoliyati har doim ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi, uni axborotli mahsulotlarini almashishga, insonlarni shaxsiy maqsad va rejalarini kelishtirishga, bir-birini tushunishga intiltiradi;

3) onglilik – faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida ong turli ko‘rinishdagi funksiyalarni bajaradi;

4) axborotli, yo‘naltiruvchi, maqsadni ko‘zlovchi, motivatsiyali-uyg‘otuvchi, boshqaruvchi va nazoratli.

Pedagogik faoliyat mohiyati

Pedagogik faoliyat – inson faoliyatining alohida ko‘rinishi bo‘lib, maqsadga yo‘naltirilgan xarakterga ega, chunki pedagog o‘z oldiga aniq maqsadni qo‘ya olmasligi mumkin emas: o‘rgatish, misol, geografik kartani o‘qish qobiliyati, tarbiyalash, misol, vatanparvar sifatidagi shaxsiy sifat. Keng ma‘noda pedagogik faoliyat ijtimoiy funksiyani bajarishga yo‘naltirilgan, jamg‘arilgan tajribani kelgusida yoshi ulug‘larga translyasiyalash, uzatishdan iborat.

Shundan kelib chiqib, jamiyat hayotiga insoniyat vakillarini ijtimoiy va shaxsiy tartiblangan faoliyatga kirishishda, pedagogik faoliyat alohida ahamiyatga ega.

Shu ma‘noda pedagogik faoliyat o‘quvchi va o‘quvchilarga (tarbiyalanuvchi va tarbiyalanuvchilarga) pedagogning faoliyatida tarbiyalovchi va o‘rgatuvchi ta‘sirini rivojlantirish, bir vaqtda o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini mukammallashtirishga asos sifatida chiqadi.

Uning uchun pelagogik maqsadni va pedagogik rahbarlikni faraz qilish xarakterlidir.³

Kasbiy pedagogik faoliyat jamiyat tashkil etgan maxsus ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi: maktablarda, kasb hunar

³ Teaching and learning in higher education. Chapter : Key aspects of teaching and learning in engineering. Pages. 264–282

kollejarida, o'rtta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, qo'shimcha ta'lim muassasalarida, qayta tayyorlash va malaka oshirishda. Pedagogik faoliyat insonning boshqa turdagi istalgan faoliyati kabi xususiyatlarga ega: maqsadni faraz qilish, motivlanganligi, predmetlilik.

Uning tuzilishi, motivi, harakatlarni (amallarni), natijalarni tahlil qilib, pedagogik faoliyatning mazmunini ochish bilan birga shu tizimning tashkil etuvchisi deb maqsadni bilish mumkin.

Shunday qilib, pedagogik faoliyat deb biz ijtimoiy faoliyatning alohida turi, o'quvchilarni shaxsiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish va jamiyatda aniq ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlash, insoniyat jamg'argan madaniyatni va tajribani katta avloddan kichiklarga uzatishga yo'naltirish tushuniladi.

Pedagogik faoliyat maqsadi

Ma'naviy va tabiiy imkoniyatlarni, hamda ijtimoiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini hisobga olgan holda har bir insonga ijtimoiy talablar to'plami sifatida pedagogik faoliyat maqsadi ishlab chiqiladi va shakllantiriladi. Maqsad shaklida yig'ilgan, bir tomondan, ayrim shaxsning ehtiyojlari va intilishlari, boshqa tomondan har xil ijtimoiy va etnik guruhlarining qiziqishlari va ko'zda tutganlari mavjud bo'ladi.

Shaxsni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, pedagogik faoliyat maqsadi deb bilish mumkin. Holatlarni juda ham turli xil o'zgarishlarida, maqsadni umumiy xarakteri, juda yuqori professionalizmni va nozik pedagogik mahoratni pedagogdan talab qiladi, pedagogga uni amalga oshirishga imkon beradi.

Maqsadga erishish faqat faoliyat orqali amalga oshiriladi, maqsadda paydo bo'lgan masalalarni yechishga yo'naltirish, umumiy harakatning bosqichi, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning oraliq natijasi sifatida tushuniladi.

Pedagogik faoliyatni amalga oshirish maqsadi quyidagi ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal qilish bilan bog'liq, ya'ni tarbiya muhitini shakllantirish, tarbiyalanuvchilar faoliyatini tashkillashtirish, tarbiyalash jamoasini yaratish, shaxsni individualligini rivojlantirish. Pedagogik faoliyat maqsadi – nafaqat tarixiy, balki dinamik hodisadir.

Jamiyatni rivojlanishidagi obyektiv tendensiyalarni akslantiruvchi pedagogik faoliyat mazmuni sifatida, shakllar va usullarni moslashtirib, oliy maqsadga – o‘z-o‘zini garmonik rivojlantiruvchi shaxsdan, bosqichma-bosqich bajariluvchi harakat dasturidan iborat bo‘ladi.

Pedagog faoliyatining mazmuni

Maqsadni paydo bo‘lishida, o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismi sifatida uning kasbiy mehnati yotadi.

Maqsadni paydo bo‘lishi sifatida tushuniladi:

- ijtimoiy-psixologik obyektiv zaruriyatni kasbiy anglash tizimi – zamonaviy inson shaxsining rivojlanish darajasi, o‘z hayotini qurish qobiliyati va zamonaviy madaniyat mazmunida yashashni bildiradi;

- insonning umumlashgan obrazini maksimal aniq shunday ifodasini izlash – bunda bola tabiatini analitik baholash, shaxsning rivojlanish mohiyati va tabiiy individualligi sharti sifatida, tarbiyalash maqsadini o‘rinli deb qabul qilish.

Pedagogning faoliyat vositalari quydagilar hisoblanadi:

- ilmiy (nazariy va empirik) bilimlar, ular asosida va yordamida o‘quvchilarda tezarus shakllanadi;

- bilimlarni «tashuvchilari» sifatida darslik matnlari yoki o‘rganilayotgan qonuniyatlar, predmetlar xususiyatlari, dalillar, pedagog tashkil etgan (laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlarda, dala amaliyotida) kuzatish natijasida o‘quvchi tasavvur eta oladi;

- texnik, grafik, kompyuter va boshq. yordamchi vositalar sifatida ko‘riladi. O‘qituvchilik faoliyatida ijtimoiy tajribani uzatish usullari bo‘lib tushuntirish, ko‘rsatish, birgalikdagi ishlanma, trening, amaliyot va boshq. hisoblanadi.

O‘qituvchilik faoliyati mahsuloti imtixonida, sinovlarda, masalalarni yechish meyorlari bo‘yicha, o‘quv-nazorat harakatlarni bajarishda baholanadi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning asosiy turlari

Olim-pedagoglarning ko‘pchiligi dars berish va tarbiyani pedagogik faoliyatning asosiy turlari deb ataydilar. Kasbiy ta’lim

pedagoglari faoliyatining asosiy turlariga ta'rif berish uchun «Kasbiy ta'lim» mutaxassisligi Davlat ta'lim standartiga murojaat qilamiz. Standartda kasbiy-pedagogik faoliyatning quyidagi asosiy turlari ajratiladi:

- kasbiy ta'lim,
- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat,
- uslubiy ishlar,
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati,
- ilmiy-tadqiqot ishlari,
- madaniy-oqartuv faoliyati.

Kasbiy ta'lim – bu o'quvchilarga aniq kasbiy sohada bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish va mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni, zamonaviy jamiyatning talablarga javob beradi.

Shunday qilib, kasbiy ta'lim o'ziga ikkita tashkil etuvchini kiritadi – dars berish va tarbiyalashi.

Dars berish – bu yangidan yangi bilish masalalarini yechishga yo'naltirilgan, o'quvchilarni faol bilish faoliyatini pedagog tomonidan tashkil etilishi.

Shuni aytish lozimki, **o'rganish** – bu pedagog va o'quvchini birgalikdagi faoliyati, undagi bosh ishtirokchi o'quvchi hisoblanadi.

Pedagog doimo yodda tutishi lozim, uning shaxsiy faoliyati yordamchi, xizmat ko'rsatuvchi xarakterdaligini, o'quvchi faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga bog'liqligi, o'rganishda unga yordam berishda, uning roli va ahamiyati borligini.

Tarbiyalash – bu faoliyat, tarbiyalash muhitini “tashkil etishga yo'naltirilgan”, va tarbiyalanuvchilarni har xil turdagi faoliyatini boshqarish (shu jumladan anglash) maqsadida masalalarini yechish.

O'qitish va tarbiyalash – bir jarayonning ikki tarafi: o'qitish mumkin emas, tarbiyaviy ta'sir etmasdan, tarbiyalash mumkin emas, o'qitish elementlarisiz. Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatda ishlarni bajarishda amaliy bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash, ishlab chiqarish ko'nikmalarni hosil etish, o'zini kasbiy sohasida texnologik zanjirni bilish.

Loyihalash, ishlab chiqish va tuzulmalash bo'yicha injener-pedagogning kasbiy faoliyati alohida mustaqil ko'rinishi sifatida uslubiy ishlar aniqlanadi, alohida predmet yoki o'quv predmetlarni sikli bo'yicha o'rgatuvchi va o'quv faoliyatni amalga oshiradi. Kasbiy ta'limda, pedagog didaktik vositalar majmuasini loyihalashning nazariy asoslari, uning imkoniyatlari, ishlash tamoyillari, foydalanish texnologiyasi va ularni qo'llash uslubiyotini bilishi zarur.

Istalgan faoliyat, uning asosida boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sir yotadi, ularni shaxsiy harakatlarini tashkil etishga yo'naltirilgan, tashkiliy-boshqaruv faoliyati bo'ladi.

Kasbiy ta'lim pedagogi talabalarning istalgan faoliyatini tashkil etishni bilishi zarur. Shu bilan birga kasbiy ta'lim muassasalarini boshqarishga tayyor bo'lishi, muomala qonuniyatlarini va individ va guruhni boshqarish usullarini bilishi zarur. Ilmiy-tadqiqot ishlari eng ahamiyatli pedagogik faoliyat turi hisoblanadi, chunki u boshqa barcha turdagi ishlarni tashkil etishni ta'minlaydi va pedagogni ilg'or kasbiy funksiyalarni amalga oshiradi.

Uning mazmuni o'qituvchi tomonidan tarbiya va ta'limning zamonaviy nazariyasi va texnologiyasini o'zlashtirilishini tashkil etadi, ularni shaxsiy yondoshuvlari asosida ishlab chiqadi, o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish usullari va ularni ilmiy-uslubiy ishlarda qo'llaydi.

Pedagogik faoliyat, o'zining mazmuni bo'yicha eksperimental va innovatsion hisoblanadi, doimiy ilmiy izlanish va mukammallashtirishni talab qiladi.

Pedagogni madaniy-oqartuv faoliyati o'quvchilarni madaniyatda ishtirok etishidan iborat: madaniyatning har xil sohalarida erishilgan yutuqlar bilan o'quvchilarni tanishtirish, ularni madaniy qiziqishlari va ehtiyojlarini rivojlantirish: mikrorayonda, shaharda, qishloqda va uning atrofidagi o'quvchilar va odamlarni madaniyatga o'rgatuvchi pedagog bo'lishi kerak.

Madaniyat orqali o'quvchilarni qimmatli yo'nalishlari, shaxsning ruhiy tashkil etuvchilari shakllanadi. Jamiyatni sog'lomligi birinchi navbatda har bir alohida odamning sog'lomligiga va ruhiyatiga bog'liq va bunda javobgarlikning katta qismi pedagoglar zimmasida turadi..

Shunday qilib, pedagogik faoliyat murakkab tizim sifatida taqdim etilishi mumkin, uning markazida o'quvchi va pedagog shaxsi turadi, uni maqsad va mazmunini aniqlaydi.

Pedagogik faoliyatni uslubi, uni xususiyatini akslantirib, boshqarish faoliyati uslubi, o'z-o'zini boshqarish, muomala va kognitiv bilish usulini kiritadi.

Pedagogik faoliyat uslubi kamida uchta me'yorning ta'sirini aniqlaydi:

a) bu faoliyatda subyektning individual-psixologik xususiyatlarini – o'qituvchini, individual-tipologiyali, shaxsiy, muomala xususiyatlarini o'z ichiga oladi;

b) faoliyat o'zini xususiyatlarini;

v) o'quvchilarning (yoshi, jinsi, statusi, bilim darajasi va boshq.) xususiyatlarini

Pedagogik faoliyatda, ushbu xarakterlanadiki, ta'lim muassasasidagi aniq o'quv holatlari subyekt-subyektning o'zaro ta'sirida amalga oshiriladi va bu ta'sirlar quyidagicha bo'ladi:

a) o'zaro ta'sir xarakteri,

b) faoliyatni tashkil etish xarakteri,

v) o'qituvchining predmet-kasbiy kompetentligi,

g) muomala xarakteri.

Pedagogik faoliyat usuli eng avval uch umumiy ko'rinishda tabaqalanadi:

avtoritar, demokratik va liberal-beparvo, «pedagogik» mazmun bilan to'ldiriluvchi.

Demokratik usul. O'quvchi muomalada teng huquqli sherik, bilimlarni birgalikda izlashda hamkasaba sifatida ko'riladi. Pedagog qarorlarni qabul qilishda talabalarni jalb etadi, ularni fikrini hisobga oladi, mustaqil fikr, mulohaza yuritishni rag'batlantiradi, na faqat o'zlashtirishni, balki qatnashuvchilarni shaxsiy sifatlarini hisobga oladi. Harakatga undash, maslahat, iltimos qilish ta'sir usullari hisoblanadi. Demokratik rahbarlik usulli pedagoglarda o'quvchilar ko'pincha xotirjamlik, qoniqishlik, o'zini yuqori baholash holatini sezadilar. Shu usulli pedagoglar o'zlarini psixologik ko'nikmalariga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bunday pedagoglar uchun katta kasbiy turg'unlik, o'z kasbidan qoniqish xarakterlidir.

Avtoritar usul. O'quvchi teng huquqli sherik emas, pedagogik ta'sir obykti sifatida ko'riladi. Pedagog, shaxsan o'zi hal qiladi, qaror qabul qiladi, ularga qo'yiladigan talablarni bajarish yuzasidan qattiy nazorat o'rnatadi, o'quvchilar fikrini va vujudga kelgan holatni hisobga olmaydi, o'z huquqlaridan foydalanadi, o'quvchilar oldida o'z harakatlarini asoslamaydi. Buning natijasida o'quvchi faolligini yo'qotadi yoki uni faqat pedagogning yetakchiligida amalga oshiradi, o'zini past baholanishini, tajovuzkorlikni sezadilar.

Avtoritar usulda o'quvchilar kuchi o'z o'zini psixologik himoya qilishga yo'naltiriladi, shaxsiy rivojlanish va bilimlarni o'zlashtirishga emas. Bunday o'qituvchilarni bosh ta'sir usullari buyruq, pand pasihatdir.

Pedagog uchun kasbidan qoniqish pastligi va kasbiy turg'un emasligi xarakterlidir. Pedagog shu rahbarlik usuli bilan asosiy e'tiborini pedagogik jamoada ko'pincha boshchilik qilishga qaratadi

Liberal. Pedagog qaror qabul qilishdan chetlashadi, hamkasabaga, o'quvchilarga tashabbuskorlikni beradi. O'quvchilarni faoliyatini tashkil etish va nazoratni tizimsiz amalga oshiradi, qat'iylik ko'rsatmaydi, ikkilanadi. Sinfda mikroiqim turg'un emas, yashirin nizolar.

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'lim, uning tuzilishi, maqsad va vazifalari haqida nimalarni tushunasiz?
2. Kasbiy pedagogika. Kasbiy pedagogikaning ta'limdagi o'rni.
3. Zamonaviy oliy va o'rta kasbiy pedagogik ta'lim tizimining rivojlanish istiqboli.

II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA‘LIM TIZIMI. TA‘LIM MUASSASALARINING FAOLIYATI. SHAXS SOTSIALIZATSIYASI

2.1. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimi, uning o‘rni, tuzilmasi va ahamiyati. oliy ta‘lim vazirligining pedagogni kasbiy o‘qitishga tayyorlashda o‘rni va ahamiyati.

Jamiyatni rivojlantirishdagi zamonaviy tamoyillar yuqori sifatli kasbiy ta‘lim olish imkoniyatini yaratishning tubdan yangi bosqichiga o‘tishni talab qiladi.

Jomten, Dakar anjumanlari va bundan oldin 1998-yilda bo‘lib o‘tgan Butunjahon konferensiyasi qoidalarini rivojlantirish yuzasidan 2000-yili Parijda bo‘lib o‘tgan oliy ta‘lim masalalari bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi hozirgi zamon oliy maktabining imkonlikni yaxshilash, barchaga teng imkoniyatlarni ta‘minlash, sifatni oshirish kabi eng ahamiyatga molik muammolarini hal etishga, shuningdek oliy ta‘limning ijtimoiy mas‘uliyati masalalariga qaratildi. Zamonamizning kambag‘allikni bartaraf etishdan boshlab to barqaror insoniy rivojlanishgacha bo‘lgan global muammolarini hal etish maqsadida bilimlar yaratish va almashishda oliy maktabning eng muhim rol o‘ynashiga shubha yo‘q.


Hozirgi paytda O‘zbekiston oliy maktabi tizimida 60 ta oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lib, shundan 19 tasi universitetlar, 2 tasi akademiya va 39 tasi institutlardir. Bundan tashqari, Toshkent shahrida Vestminster universiteti, G.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz universiteti filiallari mavjud. Toshkentda Singapur menejmentni rivojlantirish instituti ish boshladi, Turin politexnika universitetining filiali ilk talabalarni qabul qildi.

Bugungi kunda turli oliy o‘quv yurtlari filiallarini hisobga olganda O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalarining soni 71 ta yetdi, shundan 35 tasi yoki deyarli yarmi hududlarda joylashgan, bu esa ushbu ta‘lim turining imkonliligini oshiradigandek tuyuladi. 2007/2008-o‘quv yilida oliy o‘quv yurtlaridagi talabalarning

umumiy soni 296,6 ming kishini tashkil etdi (251,3 ming talaba kunduzgi ta'limda va 45,3 ming talaba sirtqi ta'limda). Biroq mamlakatda 10 ming nafar aholi soniga nisbatan talabalar soni 109 kishini tashkil etib, ushbu ko'rsatkich juda pastligicha qolmoqda.

Hozirgi paytda ko'zga tashlanayotgan talabalar kontingentini oshirish tamoyiliga qaramasdan mazkur ko'rsatkich MDH davlatlaridagi ko'rsatkichlarga nisbatan hamon pastligicha qolmoqda, aytaylik, Qozog'istonda ana shunday ko'rsatkich 497 nafarni, Qirg'izistonda 426, Moldovada 338, Gruziya 355 nafarni tashkil etadi. O'zbekiston aholisi yuqorida ko'rsatib o'tilgan mamlakatlar aholisidan ancha ko'pligini hisobga oladigan bo'lsak, o'rtacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan oliy o'quv yurtlari talabalari soni bo'yicha O'zbekiston autsayderlar guruhidan joy olgan.

1-diagramma. Barcha talabalar hamda ta'lim shakllari bo'yicha talabalar soni



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika

1-diagrammadan ko'rinib turibdiki, talabalarning umumiy soni 1998–1999-o'quv yilida barcha ta'lim shakllari bo'yicha sezilarli qisqarganidan so'ng faqat 2005-yilga kelibgina o'sish tamoyillari ko'zga tashlanmoqda, biroq qayd etish zarurki, hattoki 2008-yilda ham oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar soni

O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilish boshlangan 1991-yildagi ko'rsatkichlardan ancha past edi.

Miqdoriy ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan birga olinayotgan mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha⁴ talabalar soni tarkibi ham o'zgarib qoldi. Mamlakat oliy o'quv yurtlari ichida 22 tasi – ta'lim sohasi uchun, 15 tasi sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasi uchun, 5 tasi – tibbiyot, 4 tasi qishloq xo'jaligi, 9 tasi – iqtisodiyot va huquq, 7 tasi – boshqa sohalarda uchun mutaxassislar tayyorlaydi. 2007-yilda 286, 3 ming nafar talabadan 273, 7 ming nafari bakalavriatda va 12, 6 ming nafari magistraturada o'qigan. To'lov shartnoma asosida qabul qilingan talablarning 69 foizi bakalavriatda, 75 foizi magistraturada ta'lim olganlar. Kadrlar tayyorlashdagi tuzilmaviy o'zgarishlar o'rta umumiy va o'rta-maxsus ta'lim, kasbiy ta'limning isloh qilinishi, qishloq xo'jaligidagi tuzilmaviy islohotlar, xizmat ko'rsatish sohasining kengayganligi tufayli mutaxassislar talab ortganligi va boshqa sohalarda yangi mutaxassisliklarga talab paydo bo'lganligi bilan bog'liqdir.

Kasbiy tuzilmadagi umumiy tamoyillar tahlili shuni ko'rsatdiki, Ta'lim nomli ixtisoslik⁵, ya'ni o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani bo'yicha talabalar qabul qilish 2001-yildagi 32 foizdan 2006-yilda 40 foizgacha va 2008-yilda 54, 8 foizgacha sezilarli darajada o'sdi. Xalq ta'limi uchun mutaxassislar sonining ortishi mamlakatdagi demografik vaziyat va maktab ta'limi milliy dasturini amalga oshirish doirasida mutaxassislar tayyorlash zarurati yuzaga kelganligi bilan bog'liq.

Biroq hali ham u yoki bu mutaxassislikka, shu jumladan to'lov-shartnoma asosida ta'lim shakliga o'rinlarning hukumat tomonidan qat'iy belgilab berish amaliyoti saqlanib qolmoqda. Ayni paytda eksternat va distansion ta'lim shakllarining rivojlanmaganligi,

⁴ So'nggi yetti yil davomida har yili oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan kontingent 30 foizdan ortiqqa, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar soni esa 1, 5-martaga ortmoqda. Har yili magistraturaga qabul qilinadigan yoshlar soni 2-martadan ortiqroqqa, ularda o'qiyotganlar soni esa yuqorida ko'rsatib o'tilgan davr ichida 3 baravardan ko'proqqa ortdi. (Qarang. IRMM 2007/2008)., 3-bob).

⁵ Umumiy qabul qilingan talabalar sonida ushbu yo'nalish bo'yicha qabul qilingan talabalar ulushi.

shuningdek ta'lim xizmatlarining nodavlat, muqobil sektori mavjud emasligi ta'limning imkonliligini ancha murakkablashtiradi.

Respublika bo'yicha sirtqi ta'lim shakli tugatilganidan keyin katta yoshdagi shaxslarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari ancha kamaydi. Maktab yoki litseyni tugatgandan so'ng u yoki bu sabablarga ko'ra oliy o'quv yurtiga kunduzgi o'qishga kira olmagan, qaramog'ida oilasi bo'lgan va bir vaqtning o'zida o'qish haqini to'lash va oilasini boqish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar yaqin kelajakda oliy ta'lim olish imkoniyatidan amalda mahrum bo'ldilar.

Oliy o'quv yurti layoqatliligining asosiy ko'rsatkichi uning jamiyatdagi o'zgarishlarni oldindan ilg'ab olish va faoliyatini shu asosda tashkil etishga qodirligida, deb hisoblanadi. Faqat shundagina uning ilmiy-ta'lim faoliyatining natijalariga to'liq hajmda jamiyat tomonidan talab mavjud bo'ladi. Ish beruvchilarning tanloviga oliy o'quv yurtining ijtimoiy ahamiyati va oliy o'quv yurtining nufuzi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tashkiliy, moliyaviy va ta'lim sohalarida ko'rilayotgan choratadbirlarga qaramay, O'zbekiston oliy maktabi bugungi kunda mehnat bozorining yangi talablariga mos keladigan malakali insoniy resurslarni tayyorlashni to'liq hajmda ta'minlab bera olmayapti.

Ijtimoiy tadqiqot doirasida tadbirkorlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatning iqtisodiy yo'nalishdagi oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi so'ralgan respondentlarning faqat 18, 2 foizini, texnik mutaxassisliklar bo'yicha 18, 6 foizini, yuridik ta'lim bo'yicha 17 foizini, axborot texnologiyalari bo'yicha 28, 9 foizini to'liq qondiradi⁶.

Ko'pincha oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari rivojlanib borayotgan biznesda muvaffaqiyatli ish boshlash uchun zarur ko'nikmalarga ega emaslar, ularning korxonaga iqtisodiyoti bo'yicha

⁶ "O'zbekiston tadbirkorlari: muammolar, fikrlar, ijtimoiy portret" ijtimoiy tadqiqoti, ITM, 2006. ⁶ Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatining ayrim maktablarida o'qituvchilarning salkam 30 foizi tugallangan oliy ma'lumotga ega emaslar.

bilimlari yetarli emas. Biznesning kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyoji davlat ta'lim muassasalarining bunday talabni qondirish qobiliyatidan ancha yuqori va tezkor bo'lmoqda.

Bunday shart-sharoitlarda mehnat bozoridagi talab bilan kadrlar tayyorlashni muvozanatga keltirish qiyin. Natijada ko'p sonli mutaxassislar tayyorlangani holda ijtimoiy soha tarmoqlarida (sog'liqni saqlash, ta'lim) shtatlarning to'ldirilmaslik muammosi saqlanib qolmoqda⁶. Sanoat korxonalarini uchun muhandis-texnik xodimlar, kichik biznes sohasi uchun malakali va tajribali menejerlarning yetishmovchiligi sezilmoqda. Mehnat bozori ehtiyojini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash boshqa sohalarda ham muammoligicha qolmoqda.

Byudjet mablag'lari cheklangan va oliy ta'limga talab ortib borayotgan hozirgi sharoitda davlat ta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim sektorining ham ish olib borishi raqobatning rivojlanishiga ko'maklashadi. Biroq raqobatni rivojlantirish KTMD maqsadlaridan biri etib belgilanganiga qaramasdan O'zbekistonda bugungi kunda bironta ham xususiy oliy o'quv yurti ro'yxatdan o'tkazilmagan.

Amaldagi qonunchilikdagi mavjud ziddiyatlar tijorat asosidagi ta'lim muassasalarini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatini amalda yo'qqa chiqaradi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasiga muvofiq nodavlat ta'lim muassasasi, u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqiga va ta'lim faoliyatini ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi. Biroq nodavlat ta'lim muassasasi o'z faoliyatini boshlashi uchun litsenziya olishi lozim. O'z navbatida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagi 100-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom"ning 8-moddasiga muvofiq litsenziya olish uchun ta'lim muassasasi litsenziya berishni so'rab murojaat qilgunga qadar yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi zarur.

Natijada muammolarning bir-biriga bog'liq xalqasi vujudga kelmoqda: litsenziya olish uchun yuridik shaxs maqomiga ega

bo'lish lozim, ammo qonun bo'yicha unga akkreditatsiyadan keyin ega bo'linadi. Akkreditatsiyani esa ta'lim sifati belgilangan standartlar va talablarga javob berishi isbotlanganidan keyin, ya'ni talabalarning birinchi chiqarilishi amalga oshirilganidan keyingina olish mumkin. Xususiy oliy o'quv yurtlarini tashkil etish borasida aniq qonunchilik bazasining mavjud emasligi tufayli litsenziya olishni so'rab Vazirlar Mahkamasi va Davlat test markaziga⁷ qilingan murojaatlar ko'rib chiqilmasdan qolib ketmoqda.

O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida ijobiy chet el tajribasiga tayangan holda vasiylar va kuzatish kengashlarini tashkil etish yo'li bilan asta-sekin ta'lim muassasalarini jamoatchilik tomonidan boshqarish tizimi joriy etilmoqda. Ularning tarkibi, Nizomga muvofiq ta'sischi tashkilotlar, mahalliy hokimiyat idoralari, tadbirkorlar doiralari, jamoatchilik tashkilotlari, jamg'armalar va homiylar tarkibidan shakllantirilib, oliy o'quv yurtlari ular orqali o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishlari mumkin. Bugungi kunda bunday Kengashlar Samarqand Davlat universiteti, Navoiy tog' instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va boshqa ayrim oliy o'quv yurtlarida mavjud. Vazirlar Mahkamasining alohida qarori bilan Toshkent Davlat universiteti O'zbekiston Milliy universitetiga aylantirilgan hamda unga ayrim tashkiliy va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish borasida qator vakolatlar berilgan. Bu qisman mustaqillik yo'lidagi dastlabki va hozircha yagona qadamdir.

Biroq vasiylik va kuzatuv kengashlarining oliy o'quv yurtlari hayotidagi to'la qonli faoliyati haqida so'z yuritishga hali erta. Ko'pchilik oliy o'quv yurtlarida vasiylik va kuzatuv kengashlari hatto rasman tuzilmagan ham. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasining Vasiylik kengashi to'g'risidagi Nizomda «Kengash oliy ta'lim muassasasini jamoatchilik yo'li bilan boshqarishning doimiy ish olib boradigan tavsiya organi hisoblanishi» qayd etilgan. Shu tariqa oliy o'quv yurtining Vasiylik kengashi qonunchilik yo'li bilan o'z maqomiga ko'ra rektorat huzuridagi ijtimoiy-maslahat organiga tenglashtirilib qo'yilgan bo'lib, uning

⁷ Ta'lim sifatini nazorat qiluvchi ishchi organ.

asosiy vazifasi oliy o'quv yurti ma'muriyatining kundalik faoliyatida yordam ko'rsatishdan iboratdir.

O'zbekistonda ta'lim sektorini davlat byudjetidan moliyalashtirish uchta darajada amalga oshiriladi: respublika (markaziy) byudjetidan, shuningdek viloyatlar va tumanlar byudjetlaridan. Oliy ta'lim, ta'lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va xalq ta'limi sohasi xodimlarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha mintaqaviy institutlar respublika byudjetidan moliyalashtiriladi. Ta'lim xarajatlari tarkibi davlat ta'lim siyosatining ustuvorliklari haqida muayyan tasavvur beradi. Davlat xarajatlarining yarmidan ortig'ini (65–70 foiz) umumiy o'rta va o'rta-maxsus kasbiy ta'lim xarajatlari tashkil etadi.

O'rta, umumiy va o'rta-maxsus ta'limga ajratilgan xarajatlar ulushining yuqoriligi eng avvalo mamlakatdagi demografik vaziyat bilan bog'liqdir. 2008-yilda aholi tarkibida 18 yoshgacha bo'lgan bolalar 38, 1 foizni tashkil etgan bo'lib, ular maktabgacha tarbiya muassasalari uchun potensial kontinget hamda o'rta ta'lim maktablari, litseylar va kollejlar o'quvchilari hisoblanishadi. Oliy ta'lim uchun davlat xarajatlari ulushi 1990-yil boshida ta'lim xarajatlarining 10 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2006-yilga kelib u 6, 4 foizgacha, YalMga nisbatan esa tegishli ravishda 1 foizdan 0, 6 fizgacha qisqardi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ta'limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish choralari ko'rildi. Xususan, ta'lim muassasalari byudjet daromadlarini byudjetdan tashqari tushumlar bilan to'ldira boshladilar. Barcha oliy o'quv yurtlarida kirish test sinovlarida davlat grantlarini olish uchun yetarlicha ball to'play olmagan talablarni to'lov shartnoma asosida qabul qilish shakli joriy etildi.

Ta'lim sohasini moliyalashtirishda uning rivojlanishiga xalqaro donorlar va moliya muassasalari tomonidan ko'rsatilayotgan tashqi yordam ham sezilarli rol o'ynaydi. 2000-yildan boshlab 2007-yilning o'rtalarigacha O'zbekistonda umumiy miqdori 1 mlrd. AQSH dollaridan ortiq bo'lgan 122 ta loyiha amalga oshirilgan, bunda oliy ta'lim tizimiga umumiy summaning 4, 19 foizi to'g'ri

keldi⁸. 2003–2007-yillarda sohaga umuman olganda darsliklar chop etish va o‘quv muassasalarini axborotlashtirishni ham qo‘shib hisoblaganda 219, 62 mln.AQSH dollari ajratildi.

2000–2005-yillar davrida xarajatlar bir nafar talabaga nisbatan olganda amalda deyarli o‘zgaradi. Ayni paytda bir nafar talabaga nisbatan davlat xarajatlarning juda oz miqdorda o‘zgarish tamoyili o‘qituvlar ish haqi va talabalar stipendiyalarini har yilgi indeksatsiyalash bilan bog‘liq, bir nafar talabaga nisbatan byudjetdan tashqari xarajatlarning kamayishi esa 2003-yilda shartnoma summalarini indeksatsiya qilinmaganligi bilan bog‘liqdir.

1-jadval. 1 nafar talabaga nisbatan xarajatlar dinamikasi taqqoslama narxlarda (2000-yil bazasi), ming so‘mi AQSH doll.⁹

Ko‘rsatkichlar	Pul birligi	2000/ 2001	2001/ 2002	2002/ 2003	2003/ 2004	2004/ 2005	2005/ 2006
1 nafar talabaga xarajatlar o‘rtacha	ming so‘m.	125.8	124.2	126.3	109.1	109.1	112.3
	AQSH doll.	531.7	524.9	533.8	461.1	461.1	474.6
Grant sohibi bo‘lgan 1 nafar talabaga byudjet xarajatlari	ming so‘m.	153.5	162.7	171.4	172.1	184.8	197.8
	AQSH doll.	661.5	687.7	724.4	727.4	781.1	836.0

⁸ Oliy ta’limni moliyalashtirish tizimi IRMM 2007/2008 da (134–135 betlar) va www.undp.uz saytida batafsilroq bayon qilingan.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil boshidagi kursi bo‘yicha: 1 AQSH dollari = 236.6 co‘m. Manba: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI. 2004-yilning 1-choragi uchun tahliliy sharh. 16-bet. 1.4.1jadval.

To'lovli asosda o'qiyotgan 1 nafar talabaga xarajatlar	ming so'm.	92.3	92.8	96.7	73.7	70.7	72.3
	AQSH doll	390.1	392.2	408.7	311.5	298.8	305.6

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar markazining 2007-yilda oliy ta'lim tizimi bo'yicha ma'ruzasi.

2005-yilda oliy o'quv yurtining bir nafar talabaga yiliga sarflangan 197, 8 ming so'm (161, 5 AQSH dollari) xarajati va stipendiya to'lovlarini hisobga olganda davlat tomonidan moliyalashtirish talabani o'zlashtirish darajasiga qarab 25–50 foizga kamaygan¹⁰. Qolgan miqdor ko'pincha oliy o'quv yurtining eng kichik ehtiyojlarini qoplashga ham yetmaydi. Taqqoslash uchun: Ushbu davrda Rossiya oliy o'quv yurtlarida 1 nafar talabaga sarflangan xarajatlar yiliga 23–25 ming rublni (salkam 700–800 yevro), Fransiyada esa 2003-yilda 8, 370 yevroni tashkil qilgan¹¹.

2005/2006-o'quv yilida shartnoma asosida o'qish haqi bakalavriat darajasida yo'nalishiga qarab 472, 9 ming so'm yoki taxminan 418 AQSH dollaridan (pedagogik yo'nalish) boshlab 774 ming so'm yoki 683 AQSH dollarigacha (huquq, xalqaro aloqalar) tabaqalashgan¹². Ushbu summadan stipendiya to'lanadi. Agarda talabani a'lochi deb faraz qiladigan bo'lsak, bu holda uning o'qish uchun to'lagan summasining 62, 3 foizidan (huquq, xalqaro aloqalar) 102 foizigacha (pedagogik yo'nalish) bo'lgan qismi unga stipendiya to'lashga ketadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, oliy o'quv yurti talabalarning yaxshi o'qishidan, oxir-oqibatda ta'lim sifatini oshirishdan manfaatdor emas. Raqobat yo'qligi va qo'shimcha mablag' ishlab topish imkonining mavjud emasligi sharoitida oliy o'quv yurtlari amalda rivojlanishdan to'xtaydilar, va

¹⁰ Stipendiya miqdori talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab belgilanadi.

¹¹ Kastueva-Jan T. Rossiya oliy ta'limining «yorqinligi va qashshoqligi №, Rossiya va MDH bo'yicha tadqiqotlar dasuri, №14, 2006-yil, sentyabr.

¹² ITMning 2007-yildagi oliy ta'lim tizimi bo'yicha Ma'ruzasidan, 2- bob.

ular mutaxassis tayyorlash darajasi hamda sifatini oshirishga qiziqmaydilar.

1- qo'shimcha. Oliy o'quv yurtlarining ilmiy-metodik texnikaviy bazasi

Iqtisodiy oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari bilan chuqur suhbatlashish jarayonida o'qituvchilarning 57 foizi kompyuterlar va jihozlangan auditoriyalar sonining yetarli emasligi sababli o'qitishning yangi metodlaridan foydalanish muammo ekanligini qayd etdilar. Ko'pgina o'quv yurtlarida mashg'ulotlarda va mustaqil ishlash jarayonida bilim olishning eng tezkor, imkonli va interaktiv usuli bo'lgan Internetdan juda kam foydalaniladi.

Kutubxonalarda kitob fondi har yili to'ldirilishiga qaramasdan sifatli o'quv materiallari bilan ta'minlash hamon o'tkir muammoligicha qolmoqda. Darsliklarni ishlab chiqish va chop etish ma'muriy tartibda amalga oshiriladi. Mualliflarni moddiy rag'batlantirish zaifligi, oxir-oqibatda o'quvmetodik adabiyotlarning sifati juda past bo'lishiga olib kelmoqda. O'quv adabiyotlari bilan ta'minlash masalasi milliy maktablar, litseylar va kollejlarni tamomlayotgan abituriyentlarning lotin yozuvida o'qiganliklari tufayli yanada murakkablashadi. Zero oliy o'quv yurtlari kutubxonalaridagi darsliklarning asosiy qismi, shuningdek Internet-saytlar va bosma nashrlar asosan kirillcha harflarda chop etilgan, ya'ni maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning bugungi bitiruvchilari ulardan juda qiyinchilik bilan foydalanishlari mumkin. Ayrim hollarda talabalar nafaqat qo'shimcha adabiyotga, balki eng zarur darsliklar to'plamiga Oliy o'quv yurtlarining o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligini baholash 2006-yilda O'rta maxsus, kasbiy va oliy ta'lim markazi tomonidan o'tkazilgan.

Oliy ta'lim xarajatlarini rejalashtirish va davlat tomonidan moliyalashtirishning amaldagi tizimi byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni qiyinlashtiradi. Harajatlar bazaviy usul asosida, ya'ni o'tgan yili erishilgan darajadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunday yondashuv ta'lim muassasalari rahbarlarini ularga ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishga undamaydi,

chunki joriy yilda qancha resurslar tejab qolinsa keyingi yilda byudjet tomonidan moliyalashtirish aynan shu summa miqdorida qisqartiriladi.

1999-yilda byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishning yangi tartibi joriy etilishi bilan byudjetdan tashqari resurslardan nisbatan qulay va samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan edi. Biroq bunda o'rnatilgan cheklovlar va mablag'lardan foydalanish ustuvorligi belgilab qo'yilgaliigi vaziyatni sezilarli darajada o'zgartirmadi. Natijada rivojlantirish jamg'armasi resurslarining asosiy qismi kreditorlik qarzlarini to'lash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilmogda. Bunda umumiy ta'limga sarflangan umumiy xarajatlarda ish haqining solishtirma salmog'i deyarli o'zgarishsiz qolmogda. Ish haqi miqdorining pastligi oliy o'quv yurtlari kadrlar salohiyatining yomonlashuvi, ta'lim sohasida turli tartib buzarlklar sodir etilishi, professor o'qituvchilar va ma'muriy xodimlar o'rtasida korrupsiya tamoyillarining kuchayishi omillaridan biriga aylanmogda.

2- qo'shimcha. Oliy o'quv yurtlarining kadrlar salohiyati

KTMD ni amalga oshirish doirasida ko'rilgan chora-tadbirlar kadrlar salohiyatining miqdor jihatdan ortishiga olib keldi, bu esa talabalar soni bo'yicha bitta o'qituvchi to'g'ri keladigan og'irlikni biroz yengillatish imkonini berdi. Ayni paytda ko'pchilik oliy o'quv yurtlarida kadrlarning keksayib qolganligi muammosi mavjud. Katta yoshli o'qituvchilarning yangi sharoitlarga, o'qitish usullariga moslashishi juda qiyin kechadi. Ish haqi miqdorining yuqori emasligi tufayli yosh mutaxassislar yetishmaydi. Oliy o'quv yurti o'qituvchisining ish haqi barcha qo'shimcha to'lovlar, mukofotlar va imtiyozlarni qo'shib hisoblaganda mamlakatdagi o'rtacha ish haqqi.

Professor-o'qituvchilar tarkibining nisbatan juda oz daromad olishi va yuqori malakali o'qituvchi bilan oddiy o'qituvchi mehnatiga haq to'lashdagi farqning juda kamligi ilmiy-tadqiqot faoliyatini ham rag'batlantirmaydi. So'nggi besh yil davomida aspirantlar, doktorantlar soni qisqarib bormogda. O'qish jarayonini o'z vaqtida dissertatsiya himoya qilish bilan nihoyasiga yetkazgan

shaxslar soni juda kam. Buning oqibatida o'qituvchilar tarkibida ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslar soni kamayib bormoqda, bu esa o'qitish va ilmiy tadqiqotlar sifatiga ta'sir ko'rsatmasdan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bir nafar fan nomzodiga 41 ta talaba, fan doktoriga esa 188 nafar talaba to'g'ri keladi..

O'zbekistonda 2001/2002-o'quv yilidan boshlab tijorat banklari tomonidan respublika oliy o'quv yurtlarida to'lov-shartnoma asosida ta'lim olayotgan talabalarga ta'lim kreditlarini berish amalga joriy etilgan¹³. Bunda tijorat banklariga kreditlarni ularning asosiy summasini o'quv yurtini tamomlagandan so'ng to'lash kabi imtiyozli davr bilan berish; ta'lim kreditlari bo'yicha foiz stavkalarini Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan miqdorda belgilash tavsiya qilingan¹⁴.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim kreditlarini ajratish "O'zsanoatqurilishbank", "Ipotekabank", "Agrobank", "Ipak yo'li" banki, "Aloqabank", "Trastbank", shuningdek ayrim kredit uyushmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Amal qilish muddati: bakalavriat uchun – 10 yil, magistratura uchun – 5 yil. Ta'lim uchun kreditni talabadan tashqari uning otaonalari yoki vasiylari ham olishi mumkin. Biroq O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim kreditlaridan foydalangan talabalar soni turli ma'lumotlarga ko'ra, o'qiyotgan talabalar sonining 10 foizdan kamrog'ini tashkil qiladi. Bu eng avvalo, kredit bo'yicha o'zgaruvchan, biroq umuman olganda yuqori bo'lgan foiz stavkasi –yiliga 14 foiz, kredit qaytarilishining ta'minoti haqidagi hujjat, boshqacha qilib aytganda garov taqdim etish zarurligi va asosiy qarzni qaytarish muddati juda qisqa – oliy o'quv yurtini tamomlagandan keyin 3 oyni tashkil etishi bilan bog'liqdir.

¹³ Ta'lim kreditlari respublikaning o'qish uchun oliy o'quv yurtlariga to'lov-shartnoma asosida qabul qilingan fuqarolariga ularning ota-onalariga va vasiylariga beriladi.

¹⁴ Shuningdek, etimlar, internat uylari tarbiyalanuvchilari va bolalikdan I va II guruh nogironlari; kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan talabalar uchun imtiyozli kreditlar tizimi mavjud bo'lib, bunda kredit uchun hisoblangan foiz to'lovlari summasining 50 foizi o'rnatilgan tartibda Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

O'zbekistonda oliy maktab rivojiga moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bir qatorda hali ko'p jihatdan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi elementlarini o'zida saqlab qolgan davlat tomonidan tartibga solishning mavjud modeli ham to'sqinlik qilmoqda. Ushbu sohani tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi keng vakolatlarga ega. Boshqaruv organlari tomonidan tashkiliy, moliyaviy va ta'lim faoliyati yo'nalishlarining batafsil belgilab berilishi oliy o'quv yurtlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarga imkon bermagani holda ular o'rtasidagi raqobatni cheklaydi¹⁵.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga haq to'lash, har bir oliy o'quv yurti uchun grant va to'lov-shartnoma asosida talabalarni o'qishga qabul qilish kvotalari, o'qish uchun to'lanadigan haq miqdori davlat tomonidan belgilab beriladi. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi hatto talabalarning darsga qatnashini, pedagoglar tomonidan auditoriyadan tashqari o'tkazilgan tadbirlar sonini, tashkil etilgan to'garaklar soni va shakllarini ham nazorat qiladi. Yangi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini joriy etishni asoslashning ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon ekanligini alohida qayd etish zarur. Oliy o'quv yurtlari ma'muriyatlari va kengashlari unchalik ahamiyatsiz tarkibiy o'zgartirishlarni ham amalga oshirishga haqli emaslar. Hatto fakultetlar, kafedralar va o'quv muassasasining boshqa tarkibiy bo'linmalari nomi va soni belgilab beriladi. Kelishishning ko'pligi va byurokratik to'siqlar oliy o'quv yurtlarining mehnat bozori ehtiyojini aniqlash va o'z faoliyatini shu asosda qurishga intilishlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Bakalavriat va magistraturaning barcha yo'nalishlariga oid o'quv rejalarida Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan, demakki majburiy bo'lgan kurslar va fanlar ulushining ko'pligi (85–90 foiz) ham tezkor munosabat bildirishga yo'l qo'ymaydi. Ayni paytda ushbu yo'nalishdagi o'quv predmetlarining katta ulushi ko'pincha bitiruvchini chuqur

¹⁵ Qarang.: Bekmuradov A. Universitetskaya avtonomiya. «Экономическое обозрение» jurnali, № 1, 2007-у.

professional tayyorlashga kam yo'naltiradi. Ta'limni to'lov-shartnoma asosida tashkil qilishning belgilab berilgan mexanizmlari va tartiblari oliy o'quv yurtlarining byudjetdan tashqari mablag'lardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun to'lov miqdori Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va boshqa manfaatdor tomonlar bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Natijada ta'lim sifati, mavjud kadrlar potentsiali, moddiy-texnik bazasi qandayligidan qat'iy nazar barcha oliy o'quv yurtlarida bir mutaxassislik bo'yicha bir xil to'lov miqdori belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi, uning o'rni, tuzilmasi va ahamiyati haqida tushuncha
2. Raqobatni rivojlantirishning qonuniy cheklolari deganda nimani tushunasiz?
3. Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish shakli va ular faoliyatini tartibga solishda davlatning roli qay darajada deb hisoblaysiz?

2.2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi, uning o'rni, tuzilmasi va ahamiyati. Oliy ta'lim vazirligining pedagogni kasbiy o'qitishga tayyorlashda o'rni va ahamiyati (davomi)

1991–1997-yillarda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohot va KTMDning qabul qilinishi mamlakat ta'lim tizimining jahon ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich qo'shilishiga ko'maklashdi. O'z Milliy ta'lim modelini yaratar ekan, O'zbekiston oliy darajada ta'lim beriladigan mamlakatlarning o'zini oqlagan tajribasiga, shu jumladan O'zbekiston rasman ishtirokchi hisoblanmagan Bolonya jarayoni qoidalariga asoslandi¹⁶. Bolonya jarayoni oliy ta'lim madaniyati va

¹⁶ Universitet ta'limining ustuvorligi, taqqoslanadigan akademik darajalar (bakalavr, magistr) tizimini qabul qilish, ta'lim standartlarini yaratish bular Evropa va O'zbekiston ta'lim tizimlaridagi o'xshash ko'rsatkichlarning hali to'liq bo'lmagan ro'yxatidir. Mobillik sxemalarini ishlab chiqish va qabul qilishga, chet el oliy o'quv yurtlari bilan ta'lim dasturlari, amaliy tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar o'tkazish

sifatini takomillashtirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bu oliy o'quv yurtlarini attestatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Har bir oliy o'quv yurti besh yilda bir marta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladigan attestatsiyadan o'tadi. Attestatsiya o'quv jarayoni sifati, o'qituvchilar malakasi, o'quv muassasasining davlat ta'lim standartlariga muvofiq holda xizmat ko'rsatishga tayyorligini baholash borasida ishlab chiqilgan mezonlar asosida o'tkaziladi.

Oliy ta'lim asosiy rasmiy xususiyatlariga ko'ra, YUNESKOning Bosh konferensiyasi tomonidan 1997-yilda qabul qilingan Ta'limni Xalqaro Standart tasniflash (TXST) tomonidan tavsiya etilgan standartlarga javob beradi. TXST taqqoslama ko'rsatkichlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish vositasi hisoblangani holda milliy ta'lim modellarini isloh qilishda to'g'rilash, ba'zan esa o'zgartirish va tuzatishlar kiritishga yordam beradi. Ma'lumki, ikki asosiy yo'nalish: ta'lim bosqichi va ta'lim sohasi bo'yicha tavsiflanadigan ta'lim dasturlari xalqaro tasniflashda hisob boshlash birligi sifatida chiqadi¹⁷.

Oliy ta'lim olishga intilish XXI asrda jahonning ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlariga xos tamoyilga aylandi. Masalan, 1997-yilda Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tashkiloti (IIRT) mamlakatlarida 25–34 yoshli aholining salkam 14 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga kelib bu ko'rsatkich 18 foizga yetdi¹⁸.

3-qa'shimcha. Yangi sharoitlarda ta'limning o'rni.

Globallashuv sharoitida mamlakatning innovatsion rivojlanishi raqobatbardosh bo'lishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan paytda aholining yuqori ta'lim darajasi mamlakatning "oliy" jamiyatga taalluqlikni his etish imkonini beradigan

borasida qo'shma dasturlar tuzishga e'tibor qaratilmoqda.

¹⁷ Ўзбекистон oliy ta'lim tizimining ja'hon tamoyillari muvofiqligi IPMM 2007/2008 3- bobida batafsil k'urib chiqilgan.

¹⁸ Education at Glance, 2002. OECD in Figures, 2002.14 Report OECD, The roles of tertiary institutes and colleges, 2004.

nufuzlilik belgisi emas, balki yashovchanlik omili va iqtisodiy, uning ketidan siyosiy mustaqillik garovidir.

Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida oliy ma'lumotli mutaxassislar uchun mo'ljallangan ish o'rinlari ulushi 30–40 foizga yetmoqda. Ayni paytda qayd etiladiki, oliy ma'lumot diplomli mutaxassislar daromadlarini kamida 1,5–2 baravarga oshiradi. Ko'pincha ish beruvchilar oliy ma'lumotga kasbiy vazifalarni o'zlashtirish uchun dastlabki bosqich sifatida qaraydilar. Bu ta'lim tizimini doimo isloh qilib borish, mavjud parametrlar va standartlarni qayta baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni to'liq darajada ta'minlash uchun oliy ta'limni moliyalashtirish masalalarini qayta ko'rib chiqish zarur.

4- qo'shimcha. Oliy o'quv yurtlarini natijaga qarab davlat tomonidan moliyalashtirish borasidagi jahontajribasi.

Keng turli-tumanlikka qaramasdan jahon amaliyotida natija asosida moliyalashtirishni 2 ta asosiy uslubga: 1) doimiy indikatorlar asosida va 2) muayyan muddatga tuzilgan shartnomalar asosida moliyalashtirish metodiga ajratish mumkin. Indikatorlar tizimi o'z navbatida yana ikki turga bo'linadi: bir mezonli va ko'p mezonli.

Bir mezonli tizim. Fransiyada moliyalashtirishning 50 foizi jon boshiga qarab ajratiladi (kurslar va mutaxassisliklar bo'yicha farqlanadi). Belgilangan miqdor oliy o'quv yurtiga byudjetda alohida qatorda beriladi, bu mablag'lardan foydalanishda mustaqillikni ta'minlaydi. Bunday tizimni qo'llash juda oson. Daniyada bo'lsa moliyalashtirishning 30–50 foizi imtihon topshirgan talabalar soniga qarab taqsimlanadi. Bu ta'lim sifatini nazorat qilishning samarali tizimi mavjud bo'lgan taqdirda maqsadga muvofiqdir. Gollandiyada esa oliy o'quv yurtlari moliyalashtirishning 50 foizini bitiruvchilar soniga qarab oladilar. Keskin o'zgarishlarning oldini olish maqsadida moliyalashtirish miqdori o'rtacha 2 yildagi bitiruvchilar soni ko'rsatkichi asosida hisoblanadi.

Ko'p mezonli tizim. Janubiy Afrika Respublikasida oliy ta'lim uchun xarajatlarning 89 foizi bir nechta mezonlar asosida taqsimlanadi. Ta'lim vazirligi har yili ushbu ko'rsatkichlarni tuzish va ularning har birini vaznini aniqlash bo'yicha alohida qo'llanma chop etadi. Amalda past natijali oliy o'quv yurtlari ham faoliyat natijalarini yaxshilashga doir rejalari mavjud bo'lgan taqdirda baribir moliyalashtirish oladilar, chunki bunday oliy o'quv yurtlari davlat tomonidan moliyalashtirilmasa yopilishga majbur bo'ladilar.

Natijadorlikni baholash asosidagi shartnomalar. Fransiyada moliyalashtirishning 30 foizi davlat bilan oliy o'quv yurtlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida beriladi. Shartnomalar ta'lim vazirligi bilan har bir oliy o'quv yurti o'rtasida o'tkazilgan muzokaralar asosida 4 yil muddatga tuziladi. Finlandiyada esa bunday shartnomalar 3 yilga tuziladi.

Manba: *Approaches to result based funding in tertiary education: Identifying finance reform options for Chile.* World Bank, 2004.

Hisob-kitoblarning ko'rsatishicha: o'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlar ichida aholini oliy ta'lim bilan qamrab olishga doir o'rtacha natijaga erishish uchun oliy ta'limga investitsiyani YaIMning 0,6 foizidan 1,4 foizigacha oshirish zarur. Yaqin kelajakda davlat investitsiyalari hisobidan oliy maktabni moliyalashtirish ko'lamini mazkur darajagacha kengaytirishning iloji yo'q va u maqsadga muvofiq ham emas. Ushbu masalani hal etish tadbirkorlar doiralarining ta'lim jarayonidagi va ularning xususiy sektordan moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq. Hozirgi paytda bu oliy ta'limga investitsiyalarni oshirishning asosiy potensial manbalaridan biridir.

So'ngi yillarda talabalarga yordam berayotgan mamlakatlar uni akademik ko'rsatkichlar bilan bog'liq qilib qo'ymoqdalar, biroq ushbu talablar darajasi turlicha. Masalan, Buyuk Britaniyada yoki Daniyada talabalardan faqat o'qishga faol munosabatda bo'lish talab etiladi. Norvegiyada esa imtihonlarni reja asosida topshirish talab etiladi. Shvetsiyada bo'lsa talabalar kurs bo'yicha imtihonni belgilangan vaqt davomida topshirishlari shart. Gollandiyada 1996-yildan boshlab asosiy grantlar o'zlashtirishga bog'liq qilib

qo'yilgan grantlar bilan almashtirilgan. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning ta'limni kreditlash tizimlarida davlat bilan birgalikda xususiy sektor ham ishtirok etadi. Ta'lim kreditlari hatto oliy ma'lumot olish uchun to'lov turli darajadagi byudjetlar tomonidan qoplanadigan mamlakatlarda (masalan, Germaniya, Shvetsiya) ham keng tarqalgan. Talabalar odatda qo'shimcha xarajatlar yashash, o'quv adabiyotlari va h.k. uchun kredit oladilar. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'lim kreditlari tizimi XX asrning 70–80 yillarida ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, hozirgacha unga o'zgartirishlar kiritib kelinmoqda.

Yevropaning nufuzli ilmiy markazlari jahon ta'lim tizimlaridagi zamonaviy tamoyillarni tadqiq qilishda borgan sayin Osiyo modelini ko'p tilga olmoqdalar. Ayni paytda olimlar o'zini asta-sekin ko'rsatishni boshlayotgan Osiyo ta'lim tizimi modelida ta'limni boshqarish jarayonida Osiyo mamlakatlariga xos bo'lgan xususiyat bilan ushbu qit'a tashqarisidan, xususan AQSH va Buyuk Britaniyadan namuna olingan institutsional tuzilmalar va elementlar o'ziga xos tarzda uyg'unlashib ketganini rad etmaydilar.

Tadqiqotlarda Yaponiya, shuningdek «Osiyo yo'lbarzlari» hisoblangan to'rtta boshqa mamlakat (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Gonkong)ning ta'lim tuzilmasi va tarkibiga alohida e'tibor qaratiladi. Ularning jahon bozoriga shiddat bilan kirib borishi ko'p jihatdan ustuvorliklarning to'g'ri tanlangani bilan izohlanadi. Unchalik katta bo'lmagan hududlarga ega bo'lgan, biron-bir foydali qazilma zahiralari mavjud bo'lmagan bir sharoitda davlatlar ta'limga mablag' sarfladi. Ushbu mamlakatlar hukumatlarining fikricha, faqat yuqori ma'lumotli kishigina o'zining aqliy qobiliyati va yangilikka intilishi bilan mamlakatni kambag'allik va texnikaviy qoloqlikdan shiddatli rivojlanishga olib chiqishi, "Iqtisodiy mo'jiza" yaratishga qodirdir. Keyinchalik Malayziya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va turli tabiiy-resurs salohiyatiga ega bo'lgan boshqa Osiyo mamlakatlari ham ta'limning ahamiyatiga shu darajada e'tibor qarata boshladilar.

Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, milliy va tarixiy an'analar, xalq mentaliteti ham ta'limda muvaffaqiyatli natijalarga erishishda va u bilan bog'liq ilmiy-texnikaviy progressda muhim

omil bo'lib xizmat qildi. Zamonaviy koreys ongida nufuzli universitetlardan birida ta'lim olish muqaddas burchga aylanib qolgan. Koreys oliy ta'limi bir vaqtning o'zida ham barchaga teng va nufuzli hisoblanadi. Bir tomondan Hukumat oliy ta'lim olish uchun "teng imkoniyatlar" siyosatini ongli ravishda va izchil amalga oshirmoqda, ikkinchi tomondan koreys oliy o'quv yurtlari aniq ierarxik piramidani hosil qilib, unda turli universitetlar diplomlarining "baholanishi" turlicha bo'lishi mumkin. Bunday muvozanatlashtirilgan va puxta o'ylangan siyosat o'zining ijobiy samaralarini berdi. 2005-yilga kelib Janubiy Koreyada 25–34 yoshli kishilarning 97 foizi oliy ma'lumotga ega edilar. Taqqoslash uchun, 1960-yillarda Janubiy Koreyaning milliy daromadi Meksika va Janubiy Amerika mamlakatlarining milliy daromadidan past edi, ta'lim malakalanishi bo'yicha esa Janubiy Koreya Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tashkilotining 30 mamlakati reytingida eng qoloq mamlakatlar qatorida edi. Erishilgan muvaffaqiyat shundan iboratki, mamlakat o'z aholisining ta'limga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga va talabning o'sishiga mos tarzda javob bera olishga erishdi¹⁹.

2-jadval. J. Koreyaning inson taraqqiyoti indeksi va uning komponentlari (1975 – 2007-y.)

Yilga qadar	Inson taraqqiyoti indeksi	ITI komponentlari		
		Kutilayotgan umr davomiyligi indeksi	Ta'lim darajasi indeksi	indeksi
1975	0,713**
1980	0,722*
1985	0,760*
1990	0,802*
1991	0,859
1992	0,882	0,770	0,910	0,882

¹⁹ Schleicher Andreas. The Economics of Knowledge: Why Education is Key for Europe's Success // Policy brief. The Lisbon Council. 2006.

1993	0, 886	0, 770	0, 920	0, 970
1994	0, 390	0, 770	0, 930	0, 970
1995	0, 894	0, 780	0, 930	0, 970
1997	0, 852	0, 790	0, 950	0, 820
1998	0, 854	0, 790	0, 950	0, 820
1999	0, 875	0, 830	0, 950	0, 840
2000	0, 882	0, 830	0, 950	0, 860
2001	0, 879	0, 840	0, 960	0, 840
2002	0, 888	0, 840	0, 970	0, 860
2003	0, 901	0, 870	0, 970	0, 870
2004	0, 912	0, 870	0, 980	0, 890
2005	0, 927*	0, 882	0, 980	0, 900
2006	0, 933*
2007	0, 937*	0, 904	0, 988	0, 920

Yaponiya. Yaponiyada mehnatga qobiliyatli 25–65 yoshli aholining 42 foizi oliy ma'lumotga ega. Bu mamlakatda ishlab chiqarish yuqori darajada avtomatlashtirilganligi va u oddiy ishchilardan ham yuqori darajadagi tayyorgarlik talab qilishi bilan izohlanadi. Ta'lim endilikda faqat "oq yoqalilar"ning imtiyozi bo'lmay qoldi. Bugungi kunda mamlakatda 600 ta universitet, shu jumladan 425 ta xususiy universitet mavjud bo'lib, ularda 2, 5 mln. nafar talaba tahsil olmoqda. Yaponiyaning oliy ta'lim tizimi g'ayritabiiydir. So'nggi o'n yilliklarda ro'y bergan barcha o'zgarishlarga qaramasdan u jahondagi eng konservativ va o'ziga xos ta'limligicha qolmoqda. Biroq ta'lim tizimini isloh qilish orqali yapon jamiyatini yangilash ro'y bergan: g'arbcha shakldagi yapon ta'lim tizimi asosi qurilgan XIX asr oxiridagi dastlabki modernizatsiyadan boshlab to o'quv muassasalarning an'anaviy o'z qobig'idan chiqmasligi va yalpi qaramligiga qarshi qaratilgan so'nggi islohotlarga shunday bo'lgan.

Hukumat tomonidan 2001-yilda boshlangan islohot oliy o'quv yurtlarini nisbatan katta mustaqillika ega bo'lgan universitet korporatsiyalariga birlashtirishni ko'zda tutadi. Korporatsiyalar

nafaqat universitet binolari va yer maydonlarini mulk qilib oladi, balki ular amalda to'liq avtonomiyaga ega bo'ladilar. Bu islohot mualliflarining fikricha, nafaqat oliy o'quv yurtining o'z diplomining sifati uchun mas'uliyatini kuchaytiradi, balki rahbariyatning fanning biznes bilan aloqalarini yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan faoliyatini kuchaytirishga undaydi. Korporatsiyalar o'z dasturlari va o'quv rejalarini yaratishlari, o'z universitetining ixtisoslashuvini topishi, erkin liberallashtirish va diversifikatsiyalash siyosati yuritish imkoniyatidan to'laqonli foydalanishi lozim.

Oliy o'quv yurtlari va tadqiqot institutlarining boshlangan integratsiyalashuv jarayonlari islohotlarning ijobiy natijalari bo'ldi. Biznes va ta'lim kooperatsiyasi, ilmiy markazlar va universitetlarning integratsiyalashuvi, oliy o'quv yurtlarining ma'muriy avtonomiyasi bugungi kun Yaponiya ta'lim tizimini isloh qilish natijalaridir²⁰.

Xitoy. Xitoyda ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimi shakllangan. So'nggi 5 yil ichida mamlakatda oliy o'quv yurtlari soni deyarli ikki martaga oshdi va 2007-yilga kelib 2200 taga yetdi. Xitoyda o'qish uchun hamma pul to'lashi shart, stipendiyalar tizimi amal qiladi. Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari mustaqil ravishda ishga joylashadilar yoki aspiranturaga kiradilar.

Xitoy oliy o'quv yurti o'z talabalarini o'qish va stajirovka uchun chet elga jo'natishi mumkin. Oliy ta'lim ko'lami bo'yicha Xitoy jahonda birinchi o'rinni egallaydi. Britaniyaning «The Times» jurnalining 2009-yildagi so'nggi reytingida Xitoyning oltita oliy o'quv yurti jahondagi 200 ta eng yaxshi universitetlar qatoridan joy olgan²¹. Ushbu ro'yxatda Pekin universiteti 52-o'rinda turibdi.

Taqqoslash uchun: MDU bu ro'yxatda 155-. Xitoy biznes maktablarining nufuzi ortdi. Ulardan eng yaxshisi Shanxayning CEIBS maktabi bo'lib, u «Financial Times Executive» MBA Rankings bo'yicha 2009-yilda 100 eng yaxshi maktab ichida 22-

²⁰ Manba: <http://www.platobraz.ru/text7-8/nomer7-8japan.shtml>.

²¹ <http://www.timeshighereducation.co.uk>.

o'rinni egalladi²². 2006-yilda u 21-o'rinda edi, 2001-yilda esa eng yaxshi yuztalikka umuman kirmagandi. Islohotlarning dastlabki besh yili davomida Xitoy oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan moliyalashtirish ikki martadan ortiqroqqa o'sdi va yiliga \$10, 4 mlrd.ga yetdi. Qo'shimcha xarajatlarning bir qismi xorijda muvaffaqiyatga erishgan olimlarni olib kelishga yo'naltirildi: ularga hatto amerikaliklar o'lchovi bo'yicha ham yaxshigina maoshlar taklif qilindi va g'arbdagidek mehnat sharoitlari yaratildi.

Garchi Xitoydagi barcha o'quv muassasalari to'liq davlat qaramog'ida bo'lsa ham barcha o'quv muassasalari uchun yagona bo'lgan dastur mavjud emas. Har bir oliy o'quv yurti nafaqat o'z o'qitish metodikasini ishlab chiqadi, balki u talabalarning o'zlashtirishlari va o'quv fanlarining o'tilish sifati ustidan o'z nazorat shakllarini o'rnatadi. Bir o'quv yurtida yuzlab turli mutaxassislar tayyorlanishi mumkin bo'lgan Yevropa va Amerika oliy o'quv yurtlaridan farqli ravishda Xitoy oliy o'quv yurtlari faqat muayyan sohalarga ixtisoslashgan: pedagogik, texnik, lingvistik va boshqa oliy o'quv yurtlari mavjud²³.

Rossiya Federatsiyasi. Mana ikki yildan buyon Bolonya jarayoni²⁴ ishtirokchisi hisoblangan Rossiyada oliy ta'lim sekinlik bilan bo'lsa-da isloh qilinmoqda. U yerda ikki darajali oliy ta'lim tizimi O'zbekistondan kech joriy etildi, ammo bakalavriat va magistr bilan bir qatorda hozircha "diplomli mutaxassis" darajasi ham saqlanib turibdi. To'g'risi, Rossiyaning eng nufuzli universitetlaridan biri bo'lgan M.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti Bolonya jarayonini qo'llab-quvvatlamadi. Bu birinchidan bunday darajadagi oliy o'quv yurtlarining ancha o'z nufuziga ega ekanligi va ularning Yevropa innovatsion tizimlariga qarama-qarshi ravishda an'anaviy "fundamental ta'lim" pozitsiyasida qattiq turib olishlari mumkinligi ko'rsatkichidir. Ikkinchidan, bu ta'limni boshqarish tizimi oliy o'quv yurti uchun ahamiyatli bo'lgan qarorni qabul qilishda oliy o'quv yurtlariga yetarlicha mustaqillik beradigan darajada liberallashtirishdan dalolatdir.

²² <http://rankings.ft.com/businessschoolrankings/global-mba-rankings>.

²³ Xitoyda oliy ta'lim (2006-05-25) <http://www.partnery.cn>.

²⁴ <http://www.bologna.spbu.ru/>

Bugungi kunda Rossiya o'zining butun ilgarigi tarixi, shu jumladan sovet davri tarixidagi eng ko'p talabaga ega: 650 dan ortiq oliy o'quv yurtida 1, 5 mln.nafar talaba tahsil olmoqda. 2004–2005-yillarda davlat oliy o'quv yurtlaridagi talabalar soni 10 000 nafar aholiga 419 kishini tashkil qildi. Shu bilan birga aynan shu sonli aholiga faqat 170 nafar byudjet joyi ajratildi, xolos. 2009-yilga kelib har ming nafar maktab bitiruvchisiga 420 tadan davlat tomonidan to'lanadigan joy ajratildi.

Rossiya mehnat bozori iqtisodchilar va yuristlar bilan to'lib-toshgan, ayni vaqtda sanoatda o'rta bo'g'in rahbarlari, muhandislar va texnik menejerlar yetishmovchiligi mavjud (masalan, muhandislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratayotgan Hindistondan farqli ravishda). So'nggi paytda o'z xodimlariga zarur darajadagi ta'minlash uchun sanoat guruhlarining ta'lim sohasiga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada ortdi²⁵.

Mamlakat ta'lim tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishi davlat tomonidan tartibga solishni cheklash va bir vaqtning o'zida tashkiliy, moliyaviy va eng asosiysi ta'lim sohalarida oliy o'quv yurtlari mustaqilligini kengaytirishdan iboratdir. "Elita ro'yxati"ga kiruvchi mamlakatlarda mazkur tamoyil oliy maktabning fundamental prinsiplaridan biri qilib belgilangan.

Jahon tajribasiga tayangan holda markaziy davlat organi (vazirlik) vakolatlarini berishni uchta asosiy modelga ajratish mumkin: 1) vakolatlar hududiy boshqaruv organiga beriladi, 2) ixtisoslashtirilgan agentlikka (vositachitashkilot) beriladiva 3) bevosita oliy o'quv yurtiga beriladi²⁶.

²⁵ Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik palatasining "Ta'lim va jamiyat. Rossiya o'z kelajagi uchun mablag' sarflashga tayyormi" nomli ma'ruzasida qayd etilishicha, qater sanoat korporatsiyalari rahbarlari, jumladan Severstal, Suxoy, Bilayn, RusAl va boshqa korporatsiyalar rahbarlari oliy o'quv yurtlari bilan assotsiatsiyalar tashkil etish, o'z oliy o'quv yurtlarini yoki fakultetlarini tashkil etish istagini bildirganlar. Hamkorlikning yana bir namunasi sifatida 2006-yil aprel oyida RusNefit bilan MDU o'rtasida Moskva universiteti negizida fakultet maqomiga ega bo'lgan "Moskva Davlat Universitetining innovatsion biznes oliy maktabi"ni tashkil etish maqsadida bitim tuzilganligini keltirish mumkin.

²⁶ Bu modellar Ta'lim vazirligi tomonidan ayrim vakolatlarni yangi o'quv yurtlari tashkil etish doirasida boshqa idoralarga berilishining turli modellari mavjud bo'lishini inkor etmaydi. Bunga tarmoq oliy o'quv yurtlarini tashkil etishni misol qilib

Birinchi model ko'proq federativ tuzilishga ega bo'lgan va unchalik markazlashmagan mamlakatlarga mos keladi. O'zbekistonda ushbu modeldan foydalanish mahalliy darajada ma'muriy-boshqaruv potentsialining yetarli emasligi tufayli ancha qiyin kechadi.

Ikkinchi model ushbu tashkilotning Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligiga o'xshab qolish xavfini tug'diradi.

Uchinchi model doirasida Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining roli strategik boshqaruv darajasigacha tushiriladi. Qolgan barchasi – operativ va taktik boshqaruvni oliy o'quv yurtlarining o'zlari hal qilishlari zarur.

O'zbekiston sharoitida uchinchi model – oliy o'quv yurtlariga ko'proq avtonomiya berish modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda universitet ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bevosita ta'sir ko'rsatishi, fundamental bilimlarga asoslangan va ayni vaqtda amaliyotga yo'naltirilgan innovatsiyalarning o'ziga xos donori sifati chiqishi mumkin va shart.

Axborot texnologiyalarining zamonaviy jamiyati uning fuqarolari mustaqil, faol ish olib borishga, qarorlar qabul qilishga, o'zgarib borayotgan turmush sharoitlariga tez moslashishga qodirligidan ko'p darajada manfaatdordir. Ushbu vazifalarni hayotga tadbiiq etish uchun yirik va o'rta biznes, ta'lim muassasalarining kasbiy uyushmalari, pedagoglar va ilmiy xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining davlat ta'lim siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroki shaklini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning ishtirokini faollashtirish zarur.

Oliy o'quv yurtlarining vasiylik va kuzatuv kengashlari ushbu vazifani hal etishning samarali vositalari hisoblanadilar. Ularni

keltirish mumkin. Bu holda O'zbekistonda moliyalashtirish tegishli tarmoq Vazirligi, idora, konsern orqali amalga oshiriladi va ular talabalar va professor-o'qituvlar tarkibini qo'shima rag'batlantirishning turli mexanizmlarini joriy etish vakolatiga jga bo'ladilar. Ushbu vazirliklar, idoralar, konsernlar rahbarlari tegishli oliy o'quv yurtlarida o'quv-metodik bazani ishlab chiqish va o'quv jarayonini tashkil etishda ishtirok etadilar.

tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, bunday kengashlar oliy ijroiya hokimiyatiga egalar, ular o'quv dasturlaridan boshlab to oliy o'quv yurtidagi o'qituvchilar va xodimlarning bo'sh o'rinlarini to'ldirish tartibigacha bo'lgan universitetning tashkiliy tuzilmasi va siyosatini shakllantiradilar qonunlik organlari hisoblanadilar.

5-qo'shimcha. Vasiylik va kuzatuv kengashlarining ustuvor vazifalari tahlili

Ta'lim siyosatini amalga oshirish. Bu vasiylik kengashlarining bosh vazifasi bo'lib, ular bu uchun mas'ul hisoblanadilar. Chunonchi, G'arb, Amerikaning jahonda taniqli bo'lgan ko'plab universitetlari universitet missiyasi shakllantirilishi uchun javob beradilar, qo'yilgan maqsadlarga erishish choralarini ko'radilar. Kengashlar universitet fakultetlari, ilmiy markazlari va boshqa tarkibiy bo'linmalarining soni va xususiyati yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Universitet tomonidan ixtisosliklar va malakalar berish masalalari ularning vakolatiga kiradi. Kengashlarning ta'lim siyosati borasida faoliyati uning o'quv rejalarini, tadqiqot dasturlarini, institutga qabul to'g'risidagi prognozlarni, moliyaviy rejalarini, professor-o'qituvlar tarkibi malakasini oshirish rejalarini tahlil qilishni, binolarni qayta tiklash, ta'mirlash hamda jihozlarni yangilash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Faoliyat natijalarini baholash. Bu AQSH va G'arbiy Yevropa universitetlari hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining ayrim universitetlaridagi vasiylik kengashlarining muhim vazifasi hisoblanadi. Amalda bu universitetning bosh ma'muri uning prezidenti faoliyatini baholash, taklif etilayotgan o'quv dasturlari sifatiga baho berish, jismoniy va intellektual resurslardan samarali foydalanilishini baholashdan iborat. Baholash mezoni sifatida ko'pincha universitet missiyasi, uning maqsad va vazifalaridan foydalaniladi. Ayrim universitetlarning nizomlarida kengash o'zining faoliyatni baholash huquqini universitetning boshqa biron-bir organi yoki tashqi institutga bera olmasligi ta'kidlab o'tiladi. Tayyorlov hisoboti mustaqil ekspertlar tomonidan o'tkaziladi.

Xorijiy universitetlarning vasiylik kengashlarining amaliy faoliyati tahlili to'rtta ustuvor sohani ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bular: universitet missiyasini ishlab chiqish; talabalar, o'qituvchilar va universitet xodimlari uchun umumiy qoidalarni belgilash; akademik masalalar; universitetning moddiy resurslarini boshqarishdan iborat.

Yaponiya, Malayziya, Xitoy, Turkiya, Singapur, Kanada va jahonning boshqa mamlakatlari hukumatlari oliy ta'lim tizimini boshqarishdagi avtonomlikni mamlakat ta'lim salohiyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish garovi, deb biladilar.

Jahonda chegaralar ochilayotganligi, globallashtirishning kengayib borayotganligi va buning natijasida oliy ta'limning internatsionallasuvi ta'limni boshqarishda tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ta'limning avtonomligi yoki «avtonomlashtirilishi» ta'lim tizimni takomillashtirish va haqiqiy «bilimli iqtisodiyotga» o'tish

“Avtonomlashtirish” deganda oliy o'quv yurtlarining moliyaviy hamda ma'muriy mustaqilligini oshirish tushuniladi va u oliy o'quv yurtlarining kadrlar va ma'muriy-moliyaviy siyosatidan boshlab talabalar qabuli, o'quv kurslarining mazmuni va hajmini rejalashtirish hamda ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilashgacha bo'lgan boshqaruv sohalarida mustaqilligini oshirishda namoyon bo'ladi.

Avtonomlashtirish hech qachon oliy o'quv yurtlarining davlatdan to'liq mustaqilligi sifatida qabul qilinmasligi lozim.

Oliy ta'lim tizimi va uning rivojlanishini belgilab beruvchi omillarni tahlil qilish asosida shuni qayd etish lozimki, investitsiyalarning cheklanganligi, oliy o'quv yurtlarining yetarlicha mustaqil emasliklari va ular o'rtasida raqobatning yo'qligi asosiy muammolar hisoblanadi. Moliyaviy va institutsional cheklovlar potensialni yaxshilash rag'batlarini yaratish imkonini bermaydi. Oliy o'quv yurtlari o'rtasida ta'lim xizmatlarining haridori talaba uchun kurash yo'q va o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirish rag'batlari mavjud emas. Oliy ta'limning keng darajada davlat tomonidan tartibga solinishi uning yangi talablar va muammolarga mos tarzda javob bera olishiga yo'l

qo‘ymaydi. Ushbu tahliliy ma‘lumotnomada oliy maktabni isloh qilishning konseptual yo‘nalishlari taklif etilgan bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Davlat tomonidan tartibga solishni cheklash va oliy o‘quv yurtlarining avtonomligini ularning akademik sohada, kadrlar siyosati, qabul tartibi va moliyalashtirish masalalaridagi vakolatlarini kengaytirish orqali rivojlantirish. Butun tizim doirasida ehtimoliy xavflarni kamaytirish va xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida avtonom boshqaruvning yangi prinsiplarini joriy etishni dastlab mamlakatdagi yetakchi idoraviy va korporativ oliy o‘quv yurtlarida sinab ko‘rish maqsadga muvofiqdir;

2. Xususiy ta‘limni rivojlantirish, bu esa oliy maktabni moliyalashtirishning yangi manbalarini jalb qilish imkonini beradi va raqobatni rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun qonunchilikdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga oliy o‘quv yurtlariga yuridik shaxs huquqini, ta‘lim faoliyatini amalga oshirish huquqini berish va akkreditatsiyadan o‘tish tartibini aniq belgilab beruvchi o‘zgartirishlar kiritish lozim;

3. Oliy ta‘limni moliyalashtirishning yangi usullariga o‘tish, moliyalashtirish yo‘nalishlari, turlari, usullarini kengaytirish. Korxonalar va biznesdan mablag‘ kiritilishi uchun qulay shartsharoitlar yaratish. Maqsadli buyurtma doirasida jon boshiga normativlardan foydalanish va oliy o‘quv yurtlarining professoro‘qituvlar tarkibi mehnatiga haq to‘lashda darsbay-soatbay usuldan voz kechish.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonning jahon ta‘lim jarayoniga qo‘shilishi qanday asoslanadi?

2. Ayrim rivojlangan davlatlar va o‘tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlar tajribasi haqida nimalarni bilasiz?

3. Chet mamlakatlarda ta‘limni boshqarish tizimlari, jumladan O‘zbekiston uchun qanday ishlar olib borilmoqda?

2.3. TA'LIM MUASSASALARINING FAOLIYATI. OLIY TA'LIM VAZIRLIGINING O'QUV VA ILMIY FAOLIYATI. OLIY TA'LIM TIZIMINING TALABASI. TALABANING QOIDASI VA MAJBURIYATLARI

Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- xususiy yoki davlat qaramog'ida kanligidan qat'iy nazar ta'limiy hamda kasbga tayyorlash dasturlarini davlat ta'lim standarti asosida tatbiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari;
- oliy ta'limni rivojlanishiga zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-tadqiqot institutlari;
- davlat tomonidan ta'limni boshqaruvchi idoralar, shuningdek, ularga qarashli bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalar.



Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriyat va magistratura.

Bakalavriyat — bu to'rt yil davom etuvchi yo'naltirilgan nazariy va amaliy bilim beruvchi oliy ta'limning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bakalavr dasturini o'qitish niho siga etgach talaba davlat attestatsiyasining kuniy xulosasiga muvofiq o'qitilgan yo'nalish asosida "bakalavr" darajasiga loyiq deb topiladi hamda davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

Magistratura — bu ikki yil davom tadigan aniq yo'nalish asosida nazariy hamda amaliy bilim beruvchi, bakalavrni bitirgachgina tanlov asosida ta'lim olish davom ttirilishi mumkin bo'lgan oliy ta'lim bosqichi.

Magistraturada o'qish kunlangach bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi kommissiyasining kuniy xulosasiga muvofiq aniq mutaxassisligi ko'rsatilgan "magistr"lik darajasi va magistrlikni tasdiqlovchi davlat namunasida ko'rsatilgan diplom beriladi.

Davlat namunasidagi bakalavr va magistr diplomlari diplom egalariga mutaxassisliklari bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki o'quv muassasasida kelgusida o'qishni davom ettirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining quyidagi ko'rinishlari bor:

- universitet — oliy ta'lim dasturini bajarishda talabalarga gallayotgan sohasi bo'yicha yoki keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e'tibor qaratiladi;
- akademiya — oliy ta'lim dasturini bajarishda oliy ta'lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o'qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo'nalishga tayyorlaydi;
- institut — barcha oliy ta'lim muassasalari kabi oliy ta'lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo'nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Oliy ta'lim olish uchun nodavlat muassasalarini tuzishga qonunchilik ruxsat beradi. Ushbu muassasaga davlat akkretaditatsiyani attestatsiya dan tegishli tartibda o'tgachgina bersa u o'qitish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining Attestatsiya u davlatga tegishli yoki xususiyligidan qat'iy nazar, kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish Boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tasdiqlagan, Davlat test markazi tomonidan qabul qilingan pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarining attestatsiyadan o'tkazish Nizomi asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qietuvchilar jamoasi attestatsiyasidan o'tkaziladi. Attestatsiya natijalariga ko'ra istalgan oliy o'quv muassasasi davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, oliy ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarini rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviyatga bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- davlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash;
- oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
- ilm-fan, madaniyat, iqtisodning zamonaviy tuqlari, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy istiqbolini tuqlarini hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbi sig a milliy istiqbol g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;
- o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovasion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish;
- oliy ta'limda fan va ishlab chiqarish mexanizmlarining uyg'unligi mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va talim oluvchilarning ilmiy-ijodiy faoliyati, ilmiy tadqiqotlari yordamida fan, texnika, texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim jarayoni orqali mamlakat iqtisodining rivojlanishiga hissa qo'shish;
- davlat va nodavlat oliy o'quv muassasalarini rivojlantirish asosida ta'lim xizmatlari bozorida raqobatni zaga keltirish;
- oliy o'quv muassasalarini boshqarish va kengaytirishni takomillashtirish uchun jamoat boshqaruvining vasiylik va kuzaetuvchi kengashlarni kiritish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tekshirish uchun marketing tadqiqotlarini olib borish, yo'nalishi bo'yicha belgilangan mehnat bilan ta'minlash monitoringini tuzish;
- oliy ta'lim sohasida ikki tomonlama foydali xalqaro aloqalarni rivojlantirish.

Oliy ta'lim tuzilishi

Oliy ta'lim tizimi quyidagicha tuzilgan:

- davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturining bajarilishi davlat ta'lim standartiga muvofiq yo'nalishlar va mutaxassisliklar asosida olib boriladi;

- ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy tadqiqot ishlarini oliy ta'limni huquqiy-normativ va ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash uchun eritishadi;

- oliy ta'limni boshqarish davlat organlarining vakillari, shuningdek, ularga tegishli korxonalar, muassasa, tashkilotlar orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriyat va magistratura.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (ular bilan teng mavqegayaga bo'lgan o'quv muassasalari).

Bakalavriyat

“Ta'lim to'g'risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom” bilan, oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi “Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom” bilan belgilanadi.

Bakalavriyat – fundamental bilimlar beriladigan asosiy oliy ta'lim bo'lib, to'rt yil davom etuvchi oliy ta'limning yo'nalishlaridan biri.

Bakalavriyatda ishlab chiqarishdan ajratmagan holda ta'lim jarayonining davom etish muddati bir yildan kam bo'lmagan vaqtga uza edi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko'ra, bakalavriyat ta'lim daturining oxirida tayorlov yo'nalishiga ko'ra “bakalavr” akademiyak unvoni, munosib ko'krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta'lim dasturining tarkibiy qismiga, bakalavr tayorlashning kerakli darajasiga, o'quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining prosedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16

avgust 2001-yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O‘zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 104 bet).

Bakalavrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o‘quv fanlari bo‘yicha talablar, ta’lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish aniq tayorlov yo‘nalishi bo‘yicha davlat ta’lim standartlari orqali belgilanadi.

Bakalavriyatning mos yo‘nalishlari uchun, davlat ta’lim standartlari asosida, oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja va dasturlar, o‘quv fanlari ishlab chiqiladi.

Bakalavriyatda bir xil profilli (umumiy kasb hunar tayyorgarligi o‘xshash) o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limiga ega bo‘lgan shaxslarga, oliy ta’limning shu yo‘nalishidagi o‘quv rejalariga bog‘liq (ketma-ketlikni ta’minlovchi) ta’lim dasturini to‘liq gallashning tezkor imkoniyatlari beriladi.

O‘quv rejasiga bog‘liq yo‘nalish ro‘yxati va kadrlar tayyorlash sharoitlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bakalavr:

- yo‘nalish bo‘yicha lavozimga tayyorlangan oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar bilan almashtirilishi kerak bo‘lgan ishga;
- bakalavriyatning mos keluvchi yo‘nalishlar doirasida tanlagan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;
- qo‘shimcha professional ta’limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayor.

Bakalavrlarning yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlash huquqi oliy ta’lim muassalarining oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Magistratura

“Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq,

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga talabalarni qabul qilish tartibi “Oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom” bilan belgilanadi.

Magistratura – bakalavriyat asosidagi ikki yildan kam bo‘lmagan aniq mutaxassislik bo‘yicha oliy ta‘limning davomi hisoblanadi.

Magistraturada o‘qishning davomiyligi ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olti oydan kam bo‘lmagan vaqtga uza edi.

Bitiruvchilarga davlat attestatsiya natijalariga ko‘ra, magistratura ta‘lim daturining oxirida aniq mutaxassislik bo‘yicha “magistr” akademiyak unvoni, munosib ko‘krak nishoni va davlat namunasidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

Ta‘lim dasturining tarkibiy qismiga, magistr tayyorlashning kerakli darajasiga, o‘quv vazifalarning maksimal hajmiga, kadrlar tayyorlash sifat nazoratining protsedura va mexanizmlariga umumiy talablar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16 avgust 2001-yilda tasdiqlangan № 343-chi “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari. Asosiy nizomlar” qarori bilan belgilanadi. (№ 15-16, O‘zbekiston Respublikasi qonunlar majmuasi, 2001-yil, 104 bet).

Magistrning professional faoliyat sohasi va turi xarakteristikasi, kvalifikatsion talablar va o‘quv fanlari bo‘yicha talablar, ta‘lim dasturining struktura va tarkibi, uni amalga oshirish mexanizmi va sifatini nazorat qilish magistraturaning aniq mutaxassisligi bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari orqali belgilanadi.

Magistraturaning mos mutaxassisligi uchun, davlat ta‘lim standartlari asosida, oliy ta‘limni boshqarish bo‘yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja va dasturlar, o‘quv fanlari ishlab chiqiladi.

Magistr:

- aniq mutaxassislik bo‘yicha mustaqil ilmiy tadqiqot, ilmiy pedagogik va boshqaruv, professional faoliyatini olib borishga;
- magistraturaning mos keluvchi mutaxassisligi doirasida oliy ta‘limidan keyingi aspiranturada davom ettirishga;

- qo‘shimcha professional ta‘limni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida olishga tayor.

Oliy ta‘lim muassasasida magistratura yo‘nalishini ochishning asosiy sharti – bu o‘quv tarbiyaviy jarayon bilan bog‘liq va yuqori malakali mutaxassislarni tayorlanishini ta‘minlovchi mos kafedralarning ilmiy pedagogik potentsiali mavjudligi va ilmiy tadqiqot ishlarini yuqori darajada olib borish imkoniyatining bo‘lishi.

Magistrlarni yangi mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorlash huquqi oliy ta‘lim muassalarining oliy ta‘limni boshqarish bo‘yicha davlat vakolatli organi rasmiy iltimosiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Oliy ta‘lim muassasasi strukturasi magistraturaning maxsus bo‘limi (fakul’tet, markaz) ochiladi va unga quyidagi vazifalar beriladi:

- talabalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tashkillashtirish va nazorat qilish, o‘quv-uslubiy hujjatlar va o‘quv-uslubiy ta‘minotni ishlab chiqish;

- magistrlar yetishtirib beruvchi kafedralar faoliyatini koordinatsiyalash;

- magistrlar tayyorlash prosesining monitoringi.

“Kurslarni o‘tkazish va ishlab chiqishda ish beruvchilar undan ham ko‘proq qatnashadilar ish joyida ta‘limni rivojlantirish, bu kurslarga tashqi ta‘sirini ko‘rsatadi.

1990-yillarda Angliyada ilmiy va muxandislik fanlari bakalavr darajasini kengaytirish sifatida ishlab chiqilgan.Ular universitet darajasida o‘shish uchun kerakli vaqtni ajratdilar, chunki jahon arenasida raqobatlashadigan olimlar va muxandislar tayyorlash zarur edi.Ko‘pgina dasturlar B.Sc./B.Eng. va loyihalar va kasbiy bilim ularning rivojlanishi dasturiga oxirgi yillariga mosligicha qolgan.Boshqalar “2+2” bo‘yicha yondashadilar.

“Differensial ta‘lim” qo‘shimcha usul bo‘lib:

- * o‘qitish va uning natijalarini differensiyalash;

- *qobiliyatga qarab differetsiyalash;

- *qolibiyatli talabalarga e‘tiborni jalb etish;

O‘qitish va ta’lim berish

Eksprement fan uchun o‘qitish va ta’lim berishning ayrim usullari juda muhim bo‘lib, masalan:

- 1.ma’ruza
- 2.o‘qitishning kichik guruhi
- 3.muammoli ta’lim
- 4.sanoat ishining tajribasi
- 5.amaliy ish

Ma’ruza

Ma’ruza har doimgidek eksperiment fanlarda keng qo‘llaniladigan usul bo‘lib, o‘quv dasturida asos bo‘ladigan asosiy tushunchalardir.

1- Katta guruhlardagi ma’ruzalarda ovoz berishning elektron sistemasidan foydalanish.

An’anaviy ma’ruza, ayniqsa katta guruhlarda talabalarga ma’lumot beruvchi usuli hisoblanadi (100 dan ortiq talaba).

Masala shundaki, ma’ruzani ko‘proq ikki tamonlama suhbat shaklida tayyorlash kerak.yechimi shundan iboratki, interaktiv ta’sirning texnologiya yordamida bog‘lanishi.

Edinburgdagi katta o‘quv xonalari undan arzonroq alternativlarga almashtirish belgilandi: IR tuzilma, PRS kabi mashhur.

Talabalarning ovozlari yig‘ish va ularni ko‘rsatish uchun barcha tuzilmalar dasturiy ta’minoti bilan taqdim etilgan bo‘lib, qaysidirlari savollar qo‘shadi va qaysilari slayd-shoularni taxlaydi.

Taxminiy-muammoli o‘qitish – tibbiyot sohasida yaxshi tanilgan va hozirgi vaqtda “kasbiy” fanlarda ham qo‘llaniladi.

O‘qitishning bu uslubi ayrim yo‘nalishda, qaysiki muammo haraktanuvchi kuch sifatida o‘qiydigan talabalarda vujudga keladi.

Taxminiy-muammoli o‘qitish “muammolar yechimidan” shunisi bilan farq qiladiki, muammolar yechimida bilim va ko‘nikmalarnikashf etilishiga olib keladi.

Taxminiy-muammoli o‘qitish nuqtai nazaridan:

- *sabab ko‘rsatuvchi talabalarni tayyorlaydi;
- *fanni chuqur bilishni shakllantiradi;

*mustaqil va birgalikdagi ta'limni quvvatlaydi;

*kognitiv ko'nikmalarni o'stiradi;

Taxminiy-muammoli o'qitishda o'quv dasturi muammolar olami asosida tashkil etilgan bo'lib, o'tishning xoxlangan natijalari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

Muammolarni yechish uchun talabalar guruhlarda ishlaydilar. Talabalar o'zini o'qitish bo'yicha shug'ullanadilar, tarbiyachi rahbar va murabbiy sifatida chiqadi.

Taxminiy-muammoli o'qitish xodimlarning ko'p vaqtini oladi, chunki guruhlar chegaralangan bo'lib, o'qitish strategiyasi chegaralangan ishni ta'minlaydi.

Taxminiy-muammoli o'qitish uchun foydalanilayotgan muammolar qiziqarli va aniq bo'lishi, guruhlarni kasbiy jihatdan joylashtirish, o'quv rejasi muammolarini hal qilishi shart .

Amaliy ish.

Ta'limda tajribalanuvchi olimlar uchun laboratoriya/ amaliy va master-klass mashg'ulotlari asosiy rol ni o'ynaydi.

Bu muhitda talabalar olim bo'lish yoki kasbiy ko'nikma va aloqalarni o'rganadilar .Amaliy mashg'ulot uchun vazifalar qoidasi bo'yicha kengroq va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*amaliy ko'nikmani egallash;

*aniq tajriba usullarini egallash;

*loyihani ishlab chiqish;

*tajribani rejalashtirish;

*nazariya bilan amaliyotni belgilamoq;

*kuzatuv o'tkazmoq;

*taxminlarni tekshirmoq;

*muammoni yechish ko'nikmasini shakllantirish;

*shaxsiy ko'nikmalarni shakllantirish;

*AKT sohasidagi ko'nikmalarni shakllantirish;

*ishning xavfsiz ulublarini ishlab chiqish;

*talabalarni rag'barlantirish;

*kasbiy amaliyotni modeilashtirish;

Taklif etilayotgan kurslarda amaliy ishlarning sifati va soni kamayishi hisobiga bitiruvchilarga amaliy mashg'ulotlarga yaxshi tayyorlanmaganlar. (Brown va boshqalar., 2005)

Masalan, adabiyot haqida umumiy ma'lumot, kompyuterni modellashtirish, ta'sirning barcha turlarini tekshirish va baholash, hozir loyihada laboratoriyaning alternativi sifatida taqdim etilmoqda. Bunday alternativ loyihalar talabalarning intilishi va karera qilishga yaxshi tayyorlashi mumkin. Ekspremental ilmiy fanlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- *ishga joylashishning imkoniyatlari va ko'nikmalari;
- *etikani o'rganish;
- *baho;
- *informatsion texnologiyalarni qo'llash;

1)Ishga joylashishning imkoniyatlari va ko'nikmalari

2)Etikani o'rganish

Ixtisoslashgan tashkilotlar o'zlarining odob-axloq qonun – qoidalari doirasida etiket modellarini talab qiladilar.Bitiruvchilar odob-axloq bo'yicha muammolarini bilish holatida bo'lishlari kerak, odob axloq nuqtai nazaridan dalillarning tuzilishi bilan tanishishlari kerak. (muruvvatli bo'lish, ichi qoralik, yaxshi ishlar uchun xayrixohlik) .

3) Talabalar bilimni baholash

Kredit reytingining bir xil moduli yordamida baholashning ko'pgina tarmoqlari bor. (Hughes, 2006):

- Vakilning ish vaqti talabaning baholashga ketadi;
- Talabaning vaqti baho olish uchun ketadi;
- Qayta aloqani olish uchun ketgan va taqdim qilingan vaqt;

Oldingi vaqtlarda vaqtlarda ayrim universitetlar turli xil modulni baholash standartlashga harakat qilganlar, chunki baho o'qitishning maqsadi va sullari bilan hog'langan.

Ekspremental ilmiy fanlar bilan to'qnash keladigan baholashning turli usullari

* esse yoki yozma topshiriq;

*ekspremental ilmiy fanlar bilan to'qnash keladigan baholashning turli usullari

*amaliy /laboratoriya hisobotlari;

*turli xildagi savollar va testning turli shakllari

*ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va loyiha bo'yicha hisobot

*portfel va o'sishning shaxsiy rejalari

*plakat va og'zaki ma'ruzalar

4) *Informatsion texnologiyalarni qo'llash*

Matnlarni ishlab chiqishda AKTdan umumiy foydalanish, eksperimental ilmiy fanlar o'qitish va dars berishda *elektron javdallarni ishlab chiqishda elektron manbalardan ko'proq foydalanish kerak. AKTdan foydalanishning kerakli tamoni, bu tajribalarni modellashtirish yana bir soha hisoblanadi.*

Qo'shimcha ko'makni qaerdan topish kerak.

Ko'rgina ixtisoslashgan tashkilotlar va ilmiy jamiyatlarning veb-saytlarigan kirgan materiallari mavjud.

<http://www.heacademy.ac.uk/>

<http://www.bioscience.heacademy.ac.uk/>

<http://www.engsc.ac.uk/>

<http://www.gees.ac.uk/>

<http://www.mathstore.ac.uk/>

<http://www.materials.ac.uk/>

<http://www.physsci.heacademy.ac.uk/> ²⁷

Nazorat savollari:

1. Ta'lim muassasalarining faoliyati haqida tushuncha
2. Oliy ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
3. Oliy ta'lim muassasalari qanday tashkil topgan?
4. Oliy ta'limning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Oliy ta'lim tuzilishi qanday qonun-qoidalarga asoslanadi?

2.5. ta'lim muassasalarining faoliyati. oliy ta'lim vazirligining o'quv va ilmiy faoliyati. oliy ta'lim tizimining talabasi.

talabani qoidasi va majburiyatlari (davomi)

Pedagogik ta'lim mamalakat va jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha soha bo'yicha kadrlarning kasbiy tayyorgarlik sifatini belgilaydi. Keyingi yillarda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida

1. Teaching and learning in higher education. Chapter: Teaching in the disciplines, pages. 215-226

2. Teaching and learning in higher education. Chapter: Key aspects of learning and teaching in experimental sciences, pages. 226-246

bitiruvchilarning faoliyat doirasi kengayishi kuzatilmoqda. Bu ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy, o'suvchi-tuzatuvchi va boshqaruv ishlari. Shunday qilib, pedagogik ta'lim tuzilmasi vazifalarni jadal bajaribgina qolmasdan, kadrlar tayyorlash jarayonida ta'lim tizimini rivojlanishiga olib kelmoqda. Pedagogik ta'lim sohasida birinchi va tuzilma hosil qiluvchi bo'lib, jumladan:

*Pedagog shaxsining kasbiy kompetentligini shakllanishini, kasbiy masalalarni ijodiy va mustaqil tarzda yechish, pedagogik faoliyatning jamiyatga va shaxsga daxlsizligini anglash va uning natijalariga javobgarligini ta'minlaydi;

*Jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga va rivojlanishiga yordam beradi;

*Bitiruvchilarni tayyorlash darajasi va talabiga mos DTS loyihalarini, oliy va o'rta maxsus kasbiy pedagogik ta'limda asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

* Amaldagi oliy va o'rta maxsus kasbiy pedagogik ta'limda namuna bo'la oladigan o'quv dastur loyihalarini ishlab chiqish;

*Kasbiy pedagogik ta'limning barcha bosqichlariga o'quv muassasalarini normativ hujjatlar bilan ta'minlash;

*Oliy va o'rta maxsus kasbiy pedagogik ta'limda asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini ta'lim muassasalariga tadbiq etish bo'yicha ekspertiza qilish va uning xulosasini o'rganish.

*Oliy ta'lim vazirligining topshirig'iga asosan tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanma va ko'rsatmalarning qo'lyozmasini va qo'shimcha kasbiy pedagogik ta'lim ta'limda o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr ettirish uchun retsenziya olish;

*Kasbiy-pedagogik ta'lim sohasini tadbiq etuvchi davlatlar va tashkilotlarda ilmiy-uslubiy va ilmiy-tekshirishni faoliyatini muvofiqlashtirish.

Kasbiy ta'lim pedagoglarining tayyorlash dasturini amalga oshirayotgan ta'lim muassasalari – kasbiy-pedagogik ta'lim bo'yicha yagona boshqaruv va muvofiqlashtiruvchi O'quv Uslubiy Birlashmaga birlashadi. {1}

Kasbiy ta'limda pedagoglarni tayyorlash dasturini tadbiq etuvchi ta'lim muassasalari. {2}

“Kasbiy ta'lim (sohalar bo'yicha)” oliy kasb ta'limi mutaxassisligiga tayyorlash 128 ta OTM va ularning filiallarida

o‘tkaziladi. Kasbiy-pedagogik ta’lim dasturini tadbqiq etuvchi OTM bir qancha kategoriyalarga bo‘linadi:

1. Ixtisoslashtirilgan kasbiy-pedagogik OTM
2. Milliy universitetlar va ularning filiallari
3. Pedagogik OTM va uning filiallari
4. Texnik otm va uning filiallari
5. Agrar va qishloq ho‘jalik otm va uning filiallari
6. Sohalar bo‘yicha otm va uning filiallari.

Noixtisos OTM kasbiy ta’lim pedagoglari muxandis-pedagog fakultetlarida yoki pedagogik yo‘nalish bo‘yicha ta’lim beruvchi kafedralarida tayyorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining boshqaruvi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasida oliy ta’limni boshqarish davlat vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim boshqaruv organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi hisoblanadi.

Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligiga, tarkibida oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lgan vazirliklar va boshqarmalar bilan birgalikda quyidagi vazifalar beriladi:

- bakalavr yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun davlat ta’lim standartlarini, o‘quv reja va o‘quv fanlari dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va bosqichma-boqich kiritib borish, hamda respublika oliy ta’lim muasalarini ular bilan ta’minlash;

- oliy ta’lim yo‘nalish va mutaxassislik Klasifikatoriga zarur bo‘lganda O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish;

- oliy ta’lim muassasi faoliyatining normativ-huquqiy ta’minotini ishlab chiqish va o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari o‘quv-uslubiy boshqaruvini amalga oshirish;

- oliy va o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini muvoqlashtirish;

- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning normativ-uslubiy integratsiyasini ta'minlash.

Oliy ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy shakllarini rivojlantirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining rektorlar kengashi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati belgilangan nizom bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur nizom asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasining bevosita boshqaruvi rektor tomonidan amalga oshiriladi. Davlat oliy ta'lim muassasasi rektori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, nodavlat oliy ta'lim muassasalari rektorlari ta'sischi tomonidan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasasining ish natijalari uchun to'liq javobgarlik rektor zimmasida turadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va oliy ta'lim muassasa Nizomiga ko'ra, rektor oliy ta'lim muassasasi nomidan barcha organ va tashkilotlarda faoliyat yuritadi, mol-mulkgga belgilangan tartbdagi egalik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalarni taqdim etadi, bankda oliy ta'lim muassasasining hisob raqamini ochadi va kreditlar boshqaruvchisi hisoblanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi rektor zimmasiga klatilgan.

Oliy ta'lim muassasasi vakolatlari doirasida rektor:

- oliy ta'lim muassasasi ishchilar va talabalari uchun majburiy bo'lgan buyruq va topshiriqlarni chiqaradi;

- prorektorlarning aniq majburiyatlarini va mas'uliyatlarini belgilab beradi;

- ishchi va xizmatchilarni, hamda ilmiy pedagogik xizmatchilarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartbdagi ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;

- oliy ta'lim muassasa tarkibiga kiruvchi boshqa tashkilotlar va bo'limlarining ilmiy tadqiqot, tajribiy-eksperimental kompetentsiyasini aniqlab beradi, va ularning nizomlarini tasdiqlaydi;

- oliy ta'lim muassasalari ishchilari lavozimli maoshlarini orttiradi yoki qo'shimcha to'lovlarni belgilab beradi;

- kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki boshqa davlat organi bilan kelishilgan holda ishchilarning ichki tartib qonun qoidalarini tasdiqlaydi;

- Qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa vakolatlarni bajaradi.

Rektor byudjetdan ajratilgan va oylik maosh fondi mablag'lari chegarasida, oliy ta'lim muassasasi xizmatchilarining lavozim maoshlari tarif setkasi va oyliklarga o'rnatilgan limitlardan kelib chiqqan holda:

- oliy ta'limni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi bilan kelishilgan holda ilmiy kengashning maslaxatiga ko'ra fakultetlarni ochish va yopish huquqiga ega;

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ajratilgan shtatlarga dekan va dekan o'rinbosarlarini tayinlash huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun ilmiy kegash tashkil qilinadi.

Ilmiy kengashning tarkibi, vakolatlari, tartibi va faoliyati oliy ta'imni boshqarish bo'yicha davlatning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan Tipovoy qarori bilan tartibga solinadi.

Oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy boshqaruv organi bo'lgan vasiylar kengashi tashkil qilinadi. Uning tarkibiga ta'sischilar, mahalliy hokimiyat organlari, vazirlik va idora sohalari, muassasa va tashkilotlar, boshqa ta'lim muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar, fondlar va xomiylarning vakillari kiradi.

Oliy ta'lim muassasasi shu oliy ta'lim muassasasi qoshida tashkil topgan akademik litseylarning boshqaruvini va bir xil profilli kasb-hunar kollejlarning homiyiligini amalga oshiradi.

Oliy ta'lim muassasasi haqidagi amaldagi qonunchiligiga va Nizomiga ko'ra unda ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy va ko'ngilli jamiyatlar, dissertatsiyani himoya qilish kengashlari, ilmiy-uslubiy va ilmiy-texnik kengashlar, hamda yosh olimlar kengashini va shunga o'xshashlarni tashkil qilinishi taqiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi tasdiqlangan ishchilar miqdori va byudjet chegarasida (davlat byudjeti va byudjetdan tashqari

mablag'lar), talabalarning miqdoridan kelib chiqqan holda belgilangan tartibda o'z strukturasi shakllantiradi.

Talabalarni qonun va huquq yuzasidan tarbiyalash. Talaba deganda – o'zi izlanuvchan, bilimga chanqoq insonni tushiniladi. Talaba huquqi o'qituvchilarni o'z vaqtida bilim berishini talab qilishi kerak.

Talabalar darsdan tashqari xoxlagan o'qituvchidan dars olish huquqiga ega. Biror bir talaba o'qituvchilikda ukisa u xoxlagan she'r va kichik kitoblar yozishi mumkin.

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqining muhim universitetlaridan biri bo'lib, u fan, adabiyot va san'atlarini yaratish va undan foydalanish bilan bog'lik munosabatlarini ifodalaydi.

Talabaning mualliflik huquqi ob'ektiv fan, adabiyot va san'at asarlari hisoblanadi. Bunday asarning kadr-kiymati va chop etilgan yoki etilmaganligining axamiyati yuk. Agar mualliflik huquqining ob'ekti tan olinishi uchun qonun ikki shartni kuyadi: birinchidan, asar ma'lum bir ob'ektiv shakl muallif ijodiy faoliyati natijasini aks ettirishiga imkon berishi mumkin.

Agar respublika hududida birinchi marta bosilib chiqarilgan yoki bosib chiqarilmagan bo'lsada, lekin birdan-bir ob'ektiv shaklda respublika hududida bo'lgan asar uchun u qaysi mamlakat fuqorosi bo'lishidan qat'iy nazar, talabaning mualliflik huquqi beriladi. Talabaning mualliflik huquqi bo'lib, muayyan asarning yaratuvchisi hisoblanadi. Talabaning mualliflik huquqini faqat uning xayotlik vaqtida emas, balki xamma vaqt ximoya qilinadi.

Talabalarning vazifasi vaqtida darslarga qatnashib turish va yaxshi o'qib, undan yaxshi mutaxassis bo'lishi uning vazifasi. Ta'limning davlat boshqaruvining maxsus vakolati bo'lgan organlar amalga oshiradilar. Ta'lim muassalarida davlat talabalarining va me'yoriy hujjatlarni bajarilishini ta'minlaydilar, ularga uslubiy raxbarlikni amalga oshiradilar.

Konstitutsiya xalq ta'limini ma'muriy-huquqiy boshqarish masalalariga oid prinsipial qoidalarini oldindan belgilab beradi. Konstitutsiyaning 41-moddasi ma'muriy huquqiy sub'ekti sifatida har bir fuqarolik talabaning bilim olishini mustahkamlaydi.

Talabaga o'qishdan tashqari ta'lim madaniy estetika tabiiy-ilmiy, texnik sport va boshqa yo'nalishlardagi o'qishdan tashqari muassalarda tashkil qilinadi. Oliy ta'lim umumiy o'rta, xunar-texnika, o'rta maxsus ta'lim negizida oliy o'quv yurtlari talabalariga amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish ishlari ikki bosqich asosida bakalavriat va magstratura darajalari berish bilan olib boriladi.

Bunday o'qitishni tashkil etish Respublika xukumati tomonidan tasdiqlangan "Nizom"da tartibga solinadi. Xukumat tomonidan yana ixtisoslik ro'yxati belgilanadi, ularni sirdan yoki mustaqil o'qib egallashga yo'l ko'yilmaydi. Talabalar ikkinchi oliy ma'lumotni pul to'lab olish huquqiga egadirlar. Oliy o'quv yurtlarining faoliyati o'zlarining nizomlari bilan tartibga solinadi. Oliy o'quv yurtlarining o'zlari vaqti-vaqti bilan attestatsiya va akritizatsiyadan o'tib turadilar. Uzliksiz ta'lim tizimidagi oliy bosqich ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash hisobga oladi. Ana shu maqsadda ilmiy ishlab chiqarish bo'limlari, student talabalar ilmiy texnika ijodiyoti markazlari tashkil etiladi. Ta'lim muassasalarini boshkarishda talabalar katnashadilar. Talabalar stipendiyalar, yotokxonalar, ko'llanmalar va boshqalar bilan ta'minlanadilar. Ularga kutubxonalar, o'quv ishlab chiqarish, ilmiy, sport, sog'lomlashtirish bazalaridan foydalanishni kafolatlaydi.

Talaba yurtimizning demokratiyalashtirish imkoniyatlarni aniq va chuqur his eta bilishi kerak. Bugun jamiyatni demokratik asosda batamom yangilash imkoniga ega bo'lgan O'zbekiston uni kafolatlashning eng asosiy me'yori.

Fuqorolik jamiyatining shakllanishida va uning istiqboli belgisida eng asosiy ijtimoiy universitet bo'lgan o'z-o'zini boshqaruv organlarini o'zgarish jarayonini, uning fuqoro manfaatlariga mos shakllarini barpo bo'lishi mumkin.

Talaba shu munosabat bilan bir narsani chuqur anglab olmog'i zarurki, O'zbekiston hududida, fuqorolik jamiyatining ayrim muxim negizlari qadim-qadimlardan mavjud ekan. Talaba mulkiy munosabatlarni iqtisodiy soxa demokratiyalashuvining bosh bo'g'ini va uning fuqorolarda ulkan saloxatini vujudga keltiruvchi omil sifatida anglatish zarur:

– kadrlar tayyorlash sifati monitoring tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

– rivojlangan xorijiy demokratik davlatlar bilan kadrlar sifatini nazorat qilish va ta'lim muassasalari attestatsiyasi borasida xamkorlik urnatish;

– ta'lim tizimini boshqarish organlari xamda maxalliy ijro etuvchi xokimiyatining pedogog kadrlar va ta'lim muassasalari tashkil etish va o'tkazish borasidagi faoliyatini muvofiklashtirish va nazorat qilish kerak.

Talabalarga yaxshi dars berib ulardan yaxshi kadrlar chiqishini taminlash shu kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim muassasalarining faoliyati haqida tushuncha.
2. Oliy ta'lim vazirligining o'quv va ilmiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Oliy ta'lim tizimining talabasi qanday bo'lishi kerak?
4. Talabaning qoidasi va majburiyatlari nimalardan iborat?

2.4. Oliy kasbiy ta'lim jarayonida shaxsning sotsializatsiyasi.

«O'qimishli inson» tushunchasi

XX asrda fan, texnika va ommaviy ta'limni rivojlanishi shunday ko'p muammolarni tug'dirdiki ularni an'anaviy ta'lim tizimi yechishga ojizlik qiladi. Sanoatda yangi ilmiy texnologiyalar paydo bo'ldi, texnik shov-shuvlar ko'tarildi. Ko'pchilik fikriga ko'ra ko'p davlatlarda ta'lim rivoji sanoat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga nisbatan ancha orqada qoldi. Zamonaviy ta'lim asosiy jihatlari: natijalarni tartibsiz, bilib bo'lmasligi; ularni o'qitayotganlarning shaxsiga, o'qitilayotganlarni individual imkoniyatlari va o'quv kollektivining o'ziga hos xususiyatlariga bog'liqligi; faqat o'qituvchi-usta qo'lida o'z samaradorligini namoyon qiluvchi turli-tuman metodlarning ko'pligi; sanoat texnologiyalari rivojlangan sharoitda pedagoglarni texnologik va texnik jihatdan bo'sh qurollanganligi.

Pedagogik jarayonni texnologizatsiyalash urushdan keyingi yillar rivojlangan davlatlarda dolzarb muammoga aylangan edi, va

o'qitishni o'ziga xos natijalari kafolatlangan texnologik – ishlab chiqarish jarayoniga aylantirish vositalarini izlab topishga qaratilgan edi.

Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda birinchi yondashuv pedagogik jarayonga turli o'qitish vositalari va axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan bog'liq: technology in education (1950 – 1960-yillar.)

Texnik vositalar to'plami EHM, ma'lumot saqlash komyuter tizimlarini ishlatish-o'qitishni takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratadi, ya'ni texnologizatsiyalash asosan o'ziga hos texnik muhit yaratish yoki axborot texnologiyalarni o'qitishda qo'llashga qaratilgan edi.

1960 – 1970-yillar oxirida o'quv jarayonini texnik takomillashtirish, ta'limni takomillashtirish muammolarini yecha olmasligi ayon bo'ldi. O'qitishni texnologizatsiyalashda ikkinchi qadam o'qitishni dasturlash-o'qitish jaryoniga kibernetik prinsiplarini kiritish bilan bog'liq bo'ldi. Amarikalik pedagog U.Shramm gapiga ko'ra o'qitishni dasturlash o'ziga xos repetitor bo'lib, u o'qitilayotganlarni, mantiqiy bog'langan qadamlar bo'ylab shunday yetaklaydiki ular deyarli hato qilmaydilar; to'g'ri javoblar beradilar; bu javoblar darhol natijani e'lon qilish bilan mustahkamlanadi; natijada o'qitilayotganlar o'qitish maqsadi hisoblangan javobga yaqinlashadilar. Shunday qilib, dasturiy o'qitishning xarakterli jihatlari bo'lib, o'quv maqsadlarini aniqlash va ularga ketma-ket bajarib erishish. Dasturiy o'qitishning protsessual tomoni o'qituvchidan chetlashib bordi, chunki e'tibor o'qitish vositalariga: dasturiy matnlarni ishlab chiqish; dasturiy o'qitish didaktik mashinalarini ishlab chiqish, nazorat vositalari (mashinali va mashinasiz), dasturlashgan darsliklarni ishlab chiqish va boshqalarga qaratilgan edi. Bizda kuzatilgan, 1960-yillarda dasturiy o'qitishda bo'lgan ko'tarilish, so'ngra undan voz kechish, jarayon murakkabligi, o'quv jareni EHMning yo'qligi va bu turdagi o'qitish bilan ta'limni texnologizatsiyalash muammosini to'liq yechish mumkin emasligi, shunga olib keldiki, ko'p vaqt davomida (1980-yillar oxirigacha) texnologizatsiyalash amaliy pedogogik muammo sifatida ko'rilmagan va yechilmagan. Shu

bilan birga pedagogik nazariyada bu muammo tizimli yondashish doirasida ishlab chiqilgan (V.Bespalko, N.Talʼyuzina va boshqalar).

1970 – 1980-yillarda pedagogik texnologiya mohiyatini yangicha, unga pedagogik jarayonni boshqarish uslubi sifatida yondashish, tizimli tuzilishi: technology of education- o‘qitish texnologiyasi bilan bog‘liq tushunchasi paydo bo‘ldi. Lekin pedagogik jarayonni, ishlab chiqarish jarayonidan farqli texnologizatsiyaga qiyinchilik bilan moslashishi kabi o‘ziga hos jihatlari pedagogik texnologiyani turli mazmunli mohiyatini talqin qilinishini tug‘dirdi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi ta’rifiga bir necha yondashishni ko‘rsatish mumkin. (2.5.1-rasm).

Pedagogik texnologiya
(tushunchasiga ta’rifiga yondashish)

Protsessual	Instrumental	Shaxsiy	Tizimli
Diagnostika va tahminlash asosida kutilaetgan natijalarga erishishni ta’minlaydigan operatsiyalar, protseduralar ketma-ketligi bo’yicha pedagogik jarayonni qurish tizimli usuli.	Metodlar, uslublar, o‘qitish va tarbiya vositalari yig‘indisi	O‘qituvchi pedagogik mahorati komponenti: o‘quv-tarbiyaviy jarayonni pedagogik harakatlar tizimi sifatida amalga oshirish ko‘nikmalari	O‘quv muassasida to‘liq ta’lim jarayoni: maqsadlar to‘plami, mazmuni, o‘qitish va tarbiyalash vosita va metodlari (pedagogik tizim)

2.4.1.-rasm. "Pedagogik texnologiya" tushunchasi talqini

Protsessual yondashish ushbu fenomen mohiyatini aniqroq aks ettiradi va turli darajali texnologiyalarga tarqaladi: to'liq pedagogik jarayonni qurish imkonini beruvchi pedagogik texnologiyalardan, bu jarayon alohida elementlarini qurish tizimli uslubini ta'riflovchi pedagogik texnologiyalargacha (masalan, ishchan o'yin mustaqil psixotexnologiya bo'lib, kontekst o'qitish umumiy texnologiyasiga kiradi; maqsadni belgilash texnologiyasi to'liq o'zlashtirish texnologiyasi tarkibiy qismi sifatida).

O'qitish metodidan farqli, ta'riflash va algoritmlash mumkin bo'lganini texnologiya deyish mumkin. Uning jihatlari quyidagilar:

- Tizimlilik (faoliyatni tashkil etish va fikrlash tizimli usuli);
- Qayta takrorlash (u boshqa pedagoglar tomonidan takrorlanadi);
- Natijaviylik (pedagogik jarayon natijalari qo'yilgan iqsadlarga adekvatligi, bu dianostik maqsadlarni quyishva natijalarni diagnostika qilish tegishli usullarini ishlab chiqish).

Texnologik yondashish nozik tomoni: maqsad natijalarini adekvatligi va qaytarilishi, o'qituvchi va o'qitilaetganlar shaxsini baholay olmaslik, asosan reproduktiv o'qitish turiga yo'naltirilganlik. Ko'rinib turibdiki, hatto an'anaviy o'quv jarayoni texnologizatsiyaga qiyinchilik bilan tushadi, rejalashtirilmagan tasodiflar, o'qituvchi ularga tezda munosabat bildirishi vaziyatli harakatlar, improvizatsiyaga tayyor bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda har qanday pedagogik texnologiya moslashuvchan, yuz beruvchi turli pedagogik vaziyatlar variantlarni va ularga adekvat javob munosabatni e'tiborga olishi kerak. O'qituvchi shaxsiga to'liq bog'liq bo'lmagan o'qitish texnologiyasini yaratish shubha tug'diradi: uning asosida berilgan texnologiyalar maqsad va prinsiplari bilan mos tushmaydigan ma'lum munosabatlar, ko'rsatmalar yotishi mumkin, ular texnologiya mohiyatini o'zga oshga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotdagi natijalarni tahlili shuni ko'rsatadiki, ular pedagogik jarayonni boshqaruvchan va uning tizimli tuzilishi asosida samaradorliroq, va bu texnologiyalarni o'qituvchilar tomonidan

o'zlashtirilishi ularni professional layoqati va mahoratini ancha ko'taradi.

"Pedagogik texnologiyalarning amaldagi tasnifida ko'p aspektlilik va turli tumanlilik ko'zga tashlanadi, shuningdek mualliflarning "pedagogik texnologiya" tushunchasi haqida alohida yondashuviga ham G.K.Selevkoning ishida pedagogik texnologiyaning to'liq tasnifi taqdim etilgan, lekin muallif texnologiyani to'liq pedagogik tuzilma sifatida baxsli urinishlarni ko'rib chiqadi. Shuni esda tutish kerakki, har qanday tasniflagichda amaldagi texnologiya shartli bo'lib, tanlab olingan asosga turli xil sinflarga tobe hisoblanadi.

Texnologiya sohalar va ularni qo'llash bo'yicha chegaralaydi (o'qitish texnologiyasi va tarbiyalash texnologiyasi, kasbiy va umumta'lim) Ko'pincha savol tug'iladi: fan texnologiyasi o'qitish uslubiga aylanib qolmaydi? Sizga ma'lumki, uslubiyot didaktikaning bir qismi hisoblanadi, o'quv fanidagi pedagogik nazariyani aniqlashtiriladi, aniq fanlarni o'qitishda mazmuni inobatga olinadi. Shunday qilib, o'qitish uslubiyoti o'quv jarayonining mazmuni va instrumental tomonini o'z ichiga oladi, oldinlari fan texnologiyasi-jarayon tomoni bo'lib, uni algoritmi amaliyotda mujassamlashtiriladi. Boshqa yondashuv pedagogik jarayonda xarakter jihatdan pedagog va o'quvchilarni o'zaro bog'liqligi pedagogik texnologiya chegaralanganligi, ta'lim va tarbiyaning yetakchi shakli: yakka ta'sir texnologiyasi, guruh bo'lib ta'sir qilish texnologiyasi, jamoaviy ta'sir texnologiyasi.

Juda ko'p tarqalgan o'qitishning zamonaviy texnologiyalari yo'nalishning maqsadli 2 ta katta guruhlar bo'linishidir:

1) fanga yo'naltirilgan texnologiya – bilimlarni o'rgatish tuzulmasini, fan bo'yicha ko'nikma, bilimlarni va berilgan fanning mazmuni egallash

2) shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, shaxsga yo'naltirilgan o'qitishda vatanparvarlik g'oya va maqsadlarini tadbiiq qiladi." ²⁸

Agar shaxsiy yo'naltirilganlik o'qitish maqsadi shaxsiy jihat va tuzilishini, ijodiy madaniyat bilan bog'lanish jaraenida

²⁸ Teaching and learning in higher education. Chapter: Enhancing personal practice: establishing teaching and learning credentials., pages (469 -- 485)

o'qitilaetganlarni o'z-o'zini rivojlantirish va o'z yo'lini aniqlash bo'lsa, bu maqsadlarni amalga oshirish texnologiyalarini qurish mumkinmi? Qanday texnologiyalarni shaxsiy yo'naltirilganlik texnologiyalari deyish mumkin? Ba'zi olimlar bunday texnologiyalarni asosiy jihatlari deb, muloqatlik, faoliyatlik, ijodiy xarakter, o'qitilaetganni individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganli, unga mustaqil yechimlar chiqarish, ijod, o'qish va xulqi mazmunini tanlashda erkinlik yaratish deb biladilar.

Shaxsiy yo'naltirilganlikka adekvat o'qitish texnologiyalarini tuzish, avvalom bor faoliyat va muloqat, subyektlar o'zaro harakati usullarini o'zgartirishni talab qiladi. Shaxsiy yo'naltirilganlik o'qitish texnologiyalarini faqat ta'lim affektiv(asabiy) holatini amalga oshiruvchi va odam o'z-o'ziga va atrof muhitga munosabatni aniqlash va to'g'rilashda ko'maklashish deb bilib, toraytirish va chegaralash kerak emas. Texnologiyalarni shaxsiy yo'naltirilganlik texnologiyalariga kiritish kriteriysi bo'lib, texnologiyaning "shaxsiy tasdiqlovchi vaziyat" yaratish qobiliyati, talabani o'z o'quv faoliyati subyekti pozitsiyasiga o'tkazish. Buning natijasida shu faoliyat shaxsiy mazmuni ochiladi, kognitiv maqsadlarga erishishda o'z-o'zini rivojlantirishga ehtiej tug'iladi.

Shaxsiy yo'naltirilganlik texnologiyalarni qandaydir tasniflashga urinish kamdan-kam bo'ladi, sabab ularni tasniflash kriteriysi murakkab va yetarli darajada aniq emas.

Bu texnologiyalarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin.

1) qadriy-yo'naltirilgan – birinchi navbatda shaxs o'z-o'ini anglashi, uning qadriy (shaxsiy, xaetiy, axloqiy, kasbiy va x.k.zo.) rivojlantirishga qaratilgan o'z yo'lini aniqlashi: ijtimoiy-psixologik trening, baxs- munozara, ishchan va rolli o'yinlar;

2) adaptive (soddaroq) texnologiyalar, ularning maqsadi o'qitishni o'qitilaetganlar individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlariga moslashtirish, o'qish faoliyatida ular o'z o'rnini topish: o'qitishni individuallashtirish va differensiashtirish(modulli, turli darajali o'kitish va boshqalar);

3) shaxsni ijodiy rivojlantirish texnologichyalari-

o'qitilganlarni shaxsiy imkoniyatlarini – potensialini rivojlanishga qaratilgan, shu bilan birga ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan: TRIZ – texnologiya, tadqiqotdek o'kitish texnologiyasi, ijodiy ustaxonalar va boshqalar texnologiyasi.

Kasbiy o'zini tarbiyalashni tashkillashtirishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish zarur.

1. To'laligicha anglash :o'zini tarbiyalash masalasida shaxsni maqsadli tanlash.

2. Rejalashtirish, voqeyalarni tanlash, o'zini tarbiyalash dasturini tuzish.

3. O'zini tarbiyalash usullarini va choralarni tanlash.

4. Maqsad va masalalarni o'quv-ilmiy faoliyatdaga tadbiq etish.

Nazorat savollari va topshiriqlari

1. Texnologik yondashishni pedagogikaga kirib kelish sababi nimada?

2. XX asrda pedagogik texnologiyada qanday yondashuvlar ishlab chiqilgan? Bu yondashuvlarni qaysi biri zamonaviylik nuqtai nazaridan "pedagogik texnologiyani" aniq ochib beradi?

3. Turli tasniflashlar bo'yicha pedagogik texnologiyalarni ajrating.

4. Nima uchun shaxsga yo'naltirilgan pedagogika zamonaviy ta'limda yetakchi bo'lib qoldi?

III BOB. KASB TA'LIMI PEDAGOGINI TAYYORLASH MAZMUNI. NAZORAT SHAKLLARI VA TURLARI

3.1. Kasbiy ta'lim pedagogini tayyorlash mazmuni. 5350400- yo'nalishi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standarti

Pedagog o'z-o'zini professional mukammallashtirish va tarbiyalash yetakchi komponent bo'lib, bizning tushunchamizda "maqsadga muvofiq ma'lum tarzda amalga oshiriladigan pedagog umuminsoniy tajriba, pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan metodologik va maxsus bilimlar, kasbiy ko'nikma va malakalar" tushuniladi. (Novichkov V. B., Shevchenko V. M.)

Mustaqil o'rganish – pedagogni mutaxassis sifatida o'sishi uchun asos hisoblanadi. A. Disverg fikricha, o'qituvchi o'z tarbiyasi va bilimi ustida ishlar ekan, u haqiqatda tarbiyalay oladi va bilim beradi. (Disterveg A. Izbr. ped.soch. – M., 1956. – S. 74). Agar o'qituvchi kitob o'qimasa, o'rganmasa, o'z sohasidagi fan yutuqlari bilan qiziqmasa va ularni amalda qo'llamas, u faqat orqada qoladi emas, balki orqaga tortib, ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalar yechilishini qiyinlashtiradi, o'zi xohlagan yoki hohlamagan tarzda pedagogik jamoaviy harakatiga qarshilik ko'rsatadi. Rus o'qituvchilari o'qituvchisi K.D.Ushinskiy, o'qituvchi, ekan yashaydi degan edi. Zamonamiz mashhur olimi, akademik D.S.Lixachev yozgan edi "Har doim o'qish kerak. Barcha yirik olimlar umrini oxirigacha faqat o'qitmaganlar, balki o'zlari ham o'qiganlar. O'qishdan to'xtasang – o'qita olmasak. Chunki bilimlar o'sadi va murakkablashadi".

Kasbiy ta'lim pedagogi o'z-o'zini baholashni shakllantirish asosiy usuli - o'z natijalarini ideal pedagog-tarbiyachi shaxsi va faoliyati bilan solishtirish, va bu ish imkoniyat boricha birinchi kursdan boshlanishi kerak.

Professional idealni shakllantirishning eng sodda va eng ishonchli usuli – maxsus adabiyotni mustaqil o'rganish, o'z idealini topish maqsadida buyuk pedagoglar hayoti va ijodi bilan tanishish.

Bu o'zini tarbiyalash samaradorligini eng asosiy shartidir. Bu borada irodali odam obrazi taxlid qilish uchun misol bo'la oladi.

Bunday misol bo'lib, L.N.Tolstoyning o'z kundaliklarida qoldirgan, o'zini tarbiyalash ajoyib obrazlari misol bo'la oladi. U quyidagi qoidalarni bajarishga alohida e'tibor qaratgan: "Belgilangan narsani albatta hech nimaga qaramay bajarish. Bajaraetgan narsani yaxshi bajar. Hech qachon unutmagan narsani kitobga qaramay o'zing eslab qolishga harakat qil. Har doim o'z aqlingni bor kuchi bilan ishlashga majburla". (Tolstoy L. N. Polnoe sobr. soch. – T. 46. – M.; L., 1934. – S. 15).

"Pedagogning mutaxassis bo'lib o'zini anglashida psixologiya fani yordam beradi. Mutaxassis sifatida o'zini baholash mana shu uslub yordamida aniqlanadi, sharti shuki, ma'nogo ega xislatlar namuna sifatida beriladi. Pedagoglik kasbi yo'nalish darajasiga ta'siri ko'zda tutilgan pedagogik faoliyat sohasi bo'yicha loyihalash uslubi og'zaki matn "tushunish lug'ati" (dars berish yoki tarbiyaviy ish) tarzda qo'llash maqsadga muvofiq. Shaxsning o'zini dasturlash ravnaqi, bu shaxsining o'zining mukammallashtirishning dallir asosida mujassamlashtirish imkoniyati.

O'zini tarbiyalash dasturining qurilishi odatda "hayot qoidasi" tuzilmasini ishlab chiqishdan ilgari suriladi, qaysiki har doim shaxsning faoliyatiga va o'zini tutishni shakllanishiga olib keladi. Masalan: hech qachon va hech qaerda hech qolmaslik; hech qachon va hech qaerda birdek "ha" yoki "yo'q" so'zini ishlatmaslik-javobning boshqa shakllarni izlash; hech qachon va hech qaerda yordamdan bo'yin toblamaslik va h.k. K.D.Ushinskiy o'zini tarbiyalashda quyidagilar yordam bergan deb hisoblaydi:

1. G'oyat osoyishtalik, tashqi.
2. So'zi va ishi uchun to'g'rilik
3. Vaziyatni o'ylash .
4. Qat'iyyatlilik
5. O'zi haqida bekorga bir og'iz gapirmaslik.
6. Ongsiz ravishda vaqtni o'tkazmaslik; nimani xohlasa shuni bajarish, lekin nimadir sodir bo'lsa;
7. Kerakli va yoqimli narsalarni sarf qilmoq, hissiyotlarni sarf qilmoq.
8. Har kechda o'zi qilgan ishi uchun vijdonan hisob berish.
9. Hech qachon nima bo'lgani, nima borligi va nima bo'lishi

haqida maqtanmaslik kerak. (Ushinskiy K. D. Sobr. soch. – T. 2. – M., 1952. – S. 27).

O'zini tarbiyalashda o'zini ruhiy holatini boshqarish shuningdek tartibga solish asosiy hisoblanadi. Bularga turli xildagi uzulishlar, o'zini chalg'itish, mushaklarni bo'sh qo'yish, shuningdek o'zini ishontirish, o'ziga buyruq berish, o'zini idora qilish, tushkunlikka tushish. Oxirgi yillarda autotrening-maxsus so'zlar formulasi yordamida maqsadga yo'naltirilgan uslublar qo'llaniladi.

Integral bilishning mutloq anglash pedagogik fikrlash va faoliyatni ijtimoiy mashqlarsiz, kuzatuvchanlik rivojlantirish yo'nalishi ta'minlanmagan ijodiy loyihalash va oldindan bilishning asosida tassavur qilish”.²⁹

Kasbiy o'sish bu odam kasbiy va ijtimoiy iqtisodiy mavqeyini ma'lum etap va bosqichlar orqali, uning malaka va jamiyat talabi asosida ko'tarilishi. (Федотов В. А. Введение в профессионально-педагогическую специальность (экономика и управление): Учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во РГППУ, 2003.– С. 52). Karera individual bo'lib har bir odam uchun o'z traektoriyasiga ega.

Kasbiy ta'lim pedagogi uchun karera pedagogik mahoratni egallashdan boshlanadi. Pedagogik mahorat keng va o'zgaruvchan bo'lgani uchun, uning takomillashi butun umr davom etadi. Pedagog orttirgan tajriba pedagogik texnologiyalar tizimiga doktorlik disseptatsiyasi sifatida innovatsiya kiritish imkonini beradi. Shuning uchun pedagogik faoliyat ilmiy izlanish bilan bog'liq. Bunday karera pedagogni o'z ijtimoiy guruh doirasida o'sishini ko'rsatib, uning uchun qilib pedagogik faoliyatni qoldiradi.

Kasbiy ta'lim pedagogi karerasi boshqaruv ma'nosida ma'muriy o'sishga qaratilgan bo'lishi ham mumkin. Pedagogik faoliyatda pedagogning menejment darajasiga ko'tarilishi, uni tashkilotchilik bilimini faqat o'z fani doirasida emas, balki ta'lim muassasi doirasida ham olib borishni belgilaydi. Undan keyingi

²⁹ Teaching and learning in higher education. Chapter: Teaching quality, standards and enhancement., pages (186-198)

harakatlar shahar, tuman, viloyat mashtabida amalga oshadi. Bunday karera turi pedagogni ijtimoiy guruhidan chiqazib, uni asosiy pedagogik faoliyatdan uzoqlashtiradi. Pedagog ma'muriy xodim, boshqaruvchi bo'lib, ma'lum mansabdagi amldorga aylanadi. Kasbiy ta'lim pedagogini kasbiy o'sishiga ta'limni davom ettirishi ham sabab bo'ladi. Bu malakani oshirish, qayta tayyorlov (ikkinchi oliy ma'lumot, qo'shimcha ta'lim) doktoranturada o'qish bo'lishi mumkin. Kasbiy ta'lim pedagoglar uchun PGTA da iqtisod va boshqaruv sohasida "Muassasada boshqaruv va iqtisod" mutaxassisligi bo'yicha o'quv reja ishlab chiqilgan. Bu reja bo'yicha ikkinchi oliy ma'lumot "Iqtisodchi menejer" mutaxassisi bo'yicha beriladi.

Xalqaro dasturlar butun dunyoda tan olinadigan diplom olish imkonini beradi va dunyo mehnat bozorida mavqeyini ko'taradi.

Demak, pedagog o'zini takomillashtirishiga chegara yo'q, pedagog takomillashtirish yo'lini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zi belgilaydi.

Nazorat savollari :

1. Pedagogni kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashi haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogning mutaxassis bo'lib shakllanish jarayonida psixologik uslublarning roli?
3. Kasbiy ta'lim pedagogining kasbiy o'sishi (karera) haqida tushuncha.

3.2. Oliy o'quv yurtida o'qitishning tashkiliy shakllari

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish va fan-texnikaning taraqqiyotini o'qitish, tarbiya berish jarayoniga yangicha yondoshishni, o'qitishning yanada faol shakllari, metodlari va metodik usullarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Aytish lozimki, toki, shu davrgacha, balki hozirda ham o'qitishda, ta'lim berishda, ishlatilayotgan xotira usuli, ya'ni "Materialni yodlash" usuli hali ham bizning oliy o'quv yurtlarimizda hukm surib kelmoqda, deb aytish mumkin. Amerika olimlari o'qitishda "faktlarni yodlash", "Yesda saqlash" insonning

ijodiy o'sish xususiyatlarini kamaytirishi, ongda tormozlanish hodisasini vujudga keltirishi mumkinligini aniqlaganlar.

Xotira usulida – bilim egallash – biror materialni yodda, esda saqlashga asoslanilgan.

Chet elda o'qitish tafakkur usulida, ya'ni materialni mantiqan bilib olish (tushunib olishga) asoslangan. Shuningdek chet elda o'quvchining metodologik madaniyatga o'rgatish, unda metodologik madaniyatni hosil qilishga va uni tarbyailashga katta ahamiyat beriladi.

Har bir dars o'quv jarayonining bir qismi, hamda bilim, ko'nikma va malakalar egallashning mantiqiy tomondan yakunlangan bosqichidir.

Har bir dars quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Maqsad va mazmunining aniqligi. Bu talab ma'naviyat va ma'rifatimizga qisqacha sayohat va darsga mo'ljallangan o'quv materialini va uning tarkibini to'g'ri va aniq tanlash bilan amalga oshiriladi.

2. Tarbiya va ta'limga oid vazifalarning o'zaro bog'liqligi-bir butunligi. Ta'limning tarbiyaviy tavsifini jamiyatning obyektiv qonunlari yoki an'anaviy tarbiyaning qoidalari asosida belgilanadi. Bunda o'qituvchi talabalarning kasbiy bilimlarini shakllantirishdagi barcha imkoniyatlardan to'liq foydalanishi lozim.

3. Darsning istalgan bosqichida ta'limning eng kerakli metodlarini tanlay olinishi. O'qituvchining o'qitish metodini to'g'ri tanlashi birinchidan, o'qituvchi mehnatining samaradorligini: ikkinchidan, talabalarning eng yuqori faolligini ta'minlaydi. Bu esa talabalarda chuqur va puxta bilimlar hosil bo'lishini hamda egallangan bilimlarni amalda tatbiq etish malakalarini shakllantiradi.

4. Darsda talabalar guruhiga asosiy ish bilan yakka tartibdagi o'quv ishlarini to'g'ri uyg'unlashtirib olib borish. O'qituvchi dars davomida butun guruh bilan shug'ullanishidan tashqari talabalarga yakka tartibdagi topshiriqlarni berib, ularni mustaqil ishlashga kengroq jalb etishi lozim. Bu kelajakda o'qitishning asosiy negizi bo'lishi mumkin. Mazkur talab bajarilishi uchun o'qituvchi

nazariyani o'qib bo'lgandan so'ng, uni mustahkamlash maqsadida qisqa masala yechadi.

5. Darsni samarali tashkil etish. Bu talab darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish, o'qituvchi va talabalarning darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi, mashg'ulotlarni doimo yangilanib turadigan texnik jihozlar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlanishi, hamda o'tilayotgan darsning barcha elementlari va tarkibini puxta tuzish bilan ta'minlanadi.

Yuqorida ta'lim berishning shakllari, xillari va ularning qisqacha mazmuni tahlil qilinadi. kuyida o'qitish shakllari va turlarining mazmuni, belgilari va tarkibi tahlil qilinadi.

Informatika yoki axborot texnologiyalariga oid fanlar o'rgatilayotgan darslar ikki akadem soatli, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari esa to'rt va olti soatli bo'lishi mumkin. Darslar o'rtasida kamida 5 – 10 daqiqali tanaffus bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Informatika yoki axborot texnologiyalariga bag'ishlangan nazariy kurslar ma'ruza o'qish bilan o'rgatilayotganda va bunda qo'yilgan maqsad yo'nalishiga qarab kerakli (rejali) laboratoriya - amaliy ishlari o'tkazilayotganda darslar shaklining to'rt turini aniq ko'rsatish mumkin:

1-turi – yangi materialni o'rganib-o'rgatish darsi;

2-turi – bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish darsi;

3-turi – bilimlarni, malaka va mahoratlarni tekshi-rish darsi;

4-turi – aralash dars.

Har bir pedogogning nutq sifati va ovoz tembri har xil bo'ladi. Tegishlicha mashq qilib, ovozning yoqimli bo'lishiga erishi mumkin. Nutqning individual kamchiliklariga, masalan, dimog'dan so'zlash, so'zning ohirgi qismini «yutib yuborish» va shu kabi kamchiliklarga barxam berish zarur. Nutqni parazit so'zlardan tozalash lozim.

O'qituvchi ovozining o'zi bemalol gapira oladigan ohangini aniqlab olishi juda foydali. Bu ohangdan chetga chiqish nutqni jonlantiradi.

Nutqning past balandligi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining auditoriyani to'ldirib, eng oxirgi qatorda o'tirgan

o'quvchilar ham eshitadigan ovozi normal hisoblanadi. Biroq haddan tashqari baland ovoz o'quvchilarni charchatib qo'yadi.

Nutqning tezlik va balandlik darajasini, shuningdek, ohangini o'quv materialining qiyinlik hamda muhimlik darajasiga qarab o'zgartirish zarur. Muhim qonun qoidalar, tariflarni oddiyroq yoki ikkinchi darajali materialga qaraganda balandroq ovoz bilan va sekinroq bayon etgan ma'qul. hamma vaqt aniq va ravshan gapirishga harakat qilish lozim. Yangi terminlarni, ayniqsa, aniq aytish zarur.

Tajribali o'qituvchilar o'quv materialini bayon etish jarayonida ayrim jumlar orasida va har bir muhim fikr yoki tarifdan keyin bir oz to'xtab-to'xtab oladilar. Bu xol o'quvchilar e'tiborini oshiradi va bayon etilayotgan materialni tushinib olishi uchun vaqt beradi.

Nutq texnikasi o'qituvchining kundaliq ishi natijasidir. Uni doimo takomillashtirib borish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Boshqalarning qanday gapirayotganini kuzatib borish, ishdagi o'rtoqlari, shuningdek, majlis, ma'ruza, konferensiyada gapirganlar nutqining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish lozim;

Hamma vaqt o'z nutqini mashq qildirishga intilish kerak; nutqni yuqori madaniyatli va texnikali qilishning eng yaxshi usuli majlis, kengash, seminar, pedagogik o'qishlarda keng auditoriya oldida nutq so'zlashdir.

Maxsus texnika fanlarini o'rganishda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni ilmiy jihatdan qo'llash usullaridan biri laboratoriya mashg'ulotlaridir.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tish jarayonida talabalar o'qituvchi rahbarligida mustaqil ishlaydilar, nazariy bilimlari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda uni ishlatish amaliyotga uskunalardan tatbiq etish masalasini yo'llarni o'rganadilar, ayniqsa, o'lchov asboblardan tajriba jarayonida foydalanish mahoratini egallaydilar.

Shuningdek asbob-uskunalarini rostlash, so'zlash hamda ishlab chiqarish intizomi, mashina, uskuna, asbob, kompyuter texnikasiga nisbatan qanday munosabatda (to'g'ri va tejamli) bo'lish ruhida tarbiyalanadilar.

Laboratoriya ishlari o'zlarining vazifalari va o'quv jarayonida tutgan o'rniga ko'ra bevosita ishlab chiqarishdagi ishlar xarakteriga ega bo'lmay, nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish ta'limi o'rtasidagi oraliq vaziyatni egallaydi.

Laboratoriya mashg'ulotlari – normal sanitariya holatiga va zarur yorug'likka ega bo'lgan o'quv xonalarida va o'quv ish dasturlarida ko'zda tutilgan laboratoriya ishlarining izchilligiga amal qilgan holda olib borilishi lozim.

Laboratoriya – laboratoriya ishlarini olib borishda zarur bo'ladigan asbob-uskunalar (tekshirish-sinash, rostlash stendlari va o'rganilayotgan texnika fanining asosiy qismlari tadqiqot qilinadigan qurilmalar) va boshqalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarining sifatli bajarilishi nafaqat o'qituvchining mazkur mashg'ulotlarga puxta tayyorgarchilik ko'rishiga, balki talabalarning ham bu ishlarga yetarli darajada tayyorgarchilik ko'rishlariga va bu mashg'ulotlarni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishiga ham bog'liqdir.

Laboratoriya mashg'ulotlariga rahbarlik qilishni tashkil etishda va ularning metodik masalalarini (ishni olib borish metodikasini) ko'rib chiqishda o'qituvchi quyidagi asosiy masalalarga e'tibor berishi kerak:

*Birinchi*dan – talabalarning mustaqil bilimlarini oshirishlarini nazarda tutgan holda, laboratoriya mashg'ulotlarining maqsad va vazifalarini aniq belgilash hamda ularning mazmunini tushuntirib berish;

*Ikkinchi*dan – xavfsizlik texnikasi masalalarini va boshqa ko'pchilik jarayonlarni yoritish lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishga, o'tkazish metodikasiga oid asosiy masalalarga ta'sir ko'rsatuvchi omil-lar bilan birin-ketin tanishib chiqamiz.

Laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazishning tashkiliy shakllari.

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish usullari:

a) bir xil bajarish usuli – frontal mashg'ulotlar;

b) turli laboratoriya ishlari bajarish usuli – nofrontal mashg'ulotlar (zvenoli, yakka tartibdagi).

Laboratoriya mashg'ulotlarini birinchi usulda o'tkazishda hamma talabalar mazmunan bir xildagi ishlarni bir vaqtda bajaradilar. Bu ishlar o'rganilayotgan texnika kursining nazariy qismini o'rganish ketma-ketligini nazarda tutgan holda olib boriladi. Frontal mashg'ulotlar o'tkazish tizimining afzalligi shundaki bunda egallangan nazariy bilimlarni ilmiy tadqiqot ishlariga tatbiq qilish yo'llari, sirlari o'rganiladi. Bunda talaba o'rganilayotgan fanlar nazariyasini va uning qoidalarini mustahkamlashga va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish malakasini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu usul – o'qituvchining mazkur mashg'ulotlarga tay-yorgarchilik ko'rishini yengillashtiradi.

Frontal mashg'ulotlar o'tkazishning qator kamchiliklari ham bor. Bunda o'rganilayotgan fanning nazariy qismini mustahkamlashga qaratilgan stend, uskuna yoki qurilmalarning yetarlicha bo'lmasligi yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin.

Laboratoriya mashg'ulotlarini nofrontal tarzda tashkil etganda, laboratoriyada talabalar zvenolarga bo'linadi va har bir zveno mavjud bo'lgan uskunalarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazadi.

Kamchiliklari: rahbarlik qilishning qiyinligi, murakkabligi, chunki bunda o'qituvchi hamma talabalar uchun umumiy yo'riqnoma (tushuntiruv) o'tkazish va mashg'ulotlar yakunini kollektiv tarzda tahlil qilish imkoniyatiga ega emasligidadir.

Laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish tartibi.

Laboratoriya ustida yo'riqnoma berish.

Yo'riqnoma berish: dastlabki, joriy va yakuniy yo'riqnomalarga bo'linadi.

Axborot berish usuliga ko'ra: og'zaki va yozma bo'ladi. Dastlabki yo'riqnoma 5 – 10 daqiqa davomida o'tkaziladi.

Dastlabki yo'riqnomada quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi.

1. Laboratoriya ishiga qo'yilgan vazifa va maqsad.
2. Talabalarning ish o'rinlarini almashtirish grafigi bilan tanishtirish.
3. Laboratoriyadagi ish o'rinlari bilan qisqacha tanishtirib chiqish.

4. Laboratoriya o'tkazishda talabanning xatti-harakat qilish qoidalari.

5. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini o'rganish.

6. Talabalarning ish o'rinlarini tashkil etish.

7. Topshiriqlarni, vazifalarni olish va bajarish tar-tibi, ma'lumotlarni qayd qilish, natijalarni rasmiylashtirish va hisobot tuzish.

8. Navbatdagi ishlarga (vazifalar) topshiriqlar tarqatish.

9. Talabalarning laboratoriya mashg'ulotlari yuzasidan bergan savollariga javob berish.

Mazkur masalalarni oydinlashtirishda 8-banddagi ishga «navbatdagi ishlarga vazifalar berish»ga katta ahamiyat beriladi. Bunda navbatdagi laboratoriya ishlarini bajarishning o'ziga xos tomonlari tushuntiriladi, avval o'tkazilgan laboratoriya ishlarida yo'l qo'yilgan (uchragan) xatolarning yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish usullari tushuntiriladi va yangi topshiriq bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beriladi.

Laboratoriya ishlarini bajarishda laborotoriya ishni o'tkazish uchun yozilgan metodika katta ahamiyatga ega.

Metodikada:

– laborotoriya ishlar mavzusi va maqsadi ifodalanadi;

– mazkur ishni bajarish uchun zarur asbob uskunalar – ro'yxati keltiriladi;

– bajariladigan ish boshidan oxirigacha yozib chiqiladi;

– rioya qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik choralari ko'rsatiladi;

– ish natijalarini qanday rasmiylashtirish to'g'risida ko'rsatmalar beriladi.

Laboratoriya ishlarini olib borish og'zaki tushuntirish asosida o'qituvchining mohirona tushuntirishi va tashkil etishi turadi.

Joriy yo'riqnoma talabalarning ishini ko'zdan kechirishga, laboratoriya ishi bajarilishi to'g'risida bevosita yo'l-yo'riq ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Laboratoriya ishini o'tkazish jarayonida talabalar ishni qanday o'zlashtirganliklari, uni bajarish tartibiga qanday tushun-ganliklari tekshiriladi; tadqiqot davomi talabanning faol ishtirok etishi, metodikada ko'zda tutilgan amallarni (jarayonlarni) to'g'ri va ongli ravishda bajarilishi nazorat

qilinadi. Zarur holda o'qituvchi talabaga yordam beradi, talabalar ishini qisqacha tahlil qiladi, yo'l qo'yilayotgan xatolarini ko'rsatadi.

Laboratoriya ishi tugallanganligidan so'ng talabaga ish o'rini yaxshilab yig'ishtirish, asbob uskunalar, ko'rgazmali qurollar, qolaversa, laboratoriya uskunalari o'qituvchiga (yoki chilangarga) shaxsan topshirilishi lozim.

O'qituvchi topshirilayotgan uskunaning to'la komplektlanganligini, yig'ishtirilgan uskunaning qanday ko'rinishdaligini, texnik jihatdan soz holatdaligini, toza va moylangan bo'lishini nazorat qiladi.

Laboratoriya ish jarayonida – agar talabalar noto'g'ri xatti-harakat qilsalar, xavsizlik texnikasi qoidalarini buzsalar, u holda o'qituvchi laboratoriya ishiga bevestia yondoshadi va ularni to'g'ri yo'lga yo'llaydi.

O'qituvchining talabaga yordam berishi – bajariladigan ishlar aytib berishga yoki uni bajarib berishga qaratilmasligi kerak. O'qituvchi ishni talaba tomonidan mustaqil bajarilishiga erishishi lozim.

Laboratoriya mashg'ulotlarining davriyligi yakuniy yo'riqnomaga bilan tugallanadi.

Yakunlovchi yo'riqnomada (yakunlovchi suhbat) o'qituvchi:

– talabaning laboratoriya ishlarini diqqat bilan kuzatishi asosida – laboratoriya ishini tahlil qiladi;

– talabaning o'ziga xos xatolarini, ularning sabab va oqibatlarini, ishda ko'rilgan masalalar to'g'ri bajarilganligini ko'rib chiqadi.

Hisobot o'qitishning hozirgi zamon talablari bo'yicha, laboratoriya ishining oxirida tuzilishi, yakunlanishi, oxiriga yetkazilishi va topshirilishi lozim.

Hisobotda odatda, qo'llanilgan asbob-uskunalarga qis-qacha tavsiv beriladi; natijalar jadvallarga qat'iy belgilangan tartibda kiritiladi va tegishli hisob-kitob asosida diagrammalar quriladi; metodikada qayd qilingan savollarga javoblar, xulosa yoziladi va ish tekshiriladi (baholanadi).

Xulosa chiqarilgandan so'ng laboratoriya ishining navbatdagi mavzusi belgilanadi.

Laboratoriya hisobotiga qo'yilgan umumiy baho bajarilgan ishlarning natijalariga ko'ra beriladi. Unda:

- o'zlashtirilgan malaka va mahorat sifati;
- talabaniing mazkur laboratoriya mashg'ulotiga muno-sabati;
- hisobotdagi ish ko'rsatkichlarining malakali va chu-qur tahlili inobatga olinadi.

O'qituvchining laboratoriya mashg'ulotlariga tayorgarlik ko'rishi uning laboratoriya ishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan ish rejasini tuzishidan boshlanadi.

Ish rejasini;

- mashg'ulot elementlari va ularni o'tkazishga ketadi-gan vaqt,
- dastlabki va yakunlovchi suhbat rejalari;
- mashg'ulot mazmunining asosiy qoidalari;
- zarur asbob-uskunalar va ko'rgazmali qurollarning ro'yxati.

Laboratoriya ishi kalendar ish rejasiga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Tayyorgarchilik ishlari ham kalendar rejaga asoslangan holda olib boriladi.

Laboratoriyada ishlashni xavfsiz tashkil etish.

Laboratoriya ishlari – uskunaning ishi jarayonida olib boriladi. Shuning uchun uskunaga o'rnatilishi zarur bo'lgan asboblari, o'lchash apparatlari avvaldan o'rnatilgan bo'lishi va u xavfsiz ishlashi kerak.

Har bir talaba laboratoriya ishini o'tkazishda ko'zda tutiladigan xavfsizlik choralarini bilishi va unga qat'iy amal qilishi lozim.

Yangi texnikani yaratish yoki loyihalash murakkab jarayon bo'lib, ushbu ishlarni olib borish turli xil hisob-kitoblar bilan bog'langan bo'ladi.

Ma'lum bir mashina biron bir qismining hisob-kitobi dastlab mazkur texnika fanning nazariyasini o'rgatish jarayonida olib boriladi. Hisoblash nazariyasining amaliy tomondan mantiqan o'zlashtirilishi, amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'rganiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida hisoblash nazariyasini o'rganish chuqurlashtiri-ladi va talabalar bu mashg'ulot davomida mashina qismlarining o'zini yoki uning detallarini hisoblash ustida maxsus ko'nikma oladilar.

Amaliy mashg'ulot bevosita o'qituvchining rahbarligida va talabalarining mustaqil hisoblashlari bilan o'tkazilishi lozim.

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar pedagog rahbarligida mustaqil ishlaydilar, nazariy bilimlarini amaliy masalalarni hal etishga qaratadilar va shu yo'l bilan nazariyani amaliyotga tatbiq etish mahoratini egallaydilar.

Amaliy mashg'ulotlarning o'quv jarayonida tutgan o'rniga ko'ra ular bevosita ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lmay, nazariy ta'lim bilan ishlab chiqarish ta'limi (sexdagi ishlarga taqqoslanganda) o'rtasidagi oraliq vaziyatni egallaydi va bu oraliq vaziyat mutaxassislar tayyorlashda mazkur ikki tomon o'rtasida aloqa o'rnatishning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda dars o'tkaziladigan xona yorug' va shinam bo'lishi, shaxsiy kompyuter yoki joriy kompyuter bilan jihozlangan bo'lishi, nazariyaga oid adabiyotlar o'quv ko'rsatmalari, maxsus bildirgichlar, kataloglar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Mazkur ta'minotning to'liq bajarilishi, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda va unda yechila-digan masalalarni tahlil qilishda quyidagi ikkita masala hal etilishiga

1-masala yechilishi davomida muayyan ishlarni bajarishga e'tibor berish bilan birga talabaning mustaqil ishlashiga alohida ahamiyat berish; 2-masalani yechishda xonadagi mashina yoki kompyuterlarning xavfsiz ishlashiga, xonada xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishga e'tibor berish lozim.

Amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning tashkiliy shakllari:

2. Mashg'ulotni bir xil bajarish shakli ya'ni frontal mashg'ulotlarga oid.

3. Turli ishlar bajarish shakli; nofrontal kompyuterlarga zvenoli, yakka (shaxsiy tartibdagi) va guruhga oid mashg'ulotlar bo'ladi.

Texnika fanlaridan yuqorida bayon etilgan shakllar bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilganda (bunda xususiy (yakka) usulda amaliy mashg'ulot o'tkazish mustasno) hamma talabalar bir xilda yechiladigan masalani bajaradilar.

Mazkur ma'ruzaning muallifi, texnika fanlaridan uzoq yillar amaliy mashg'ulotlar o'tkazib, shunday xulosaga keldiki, frontal va guruhga oid usullarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilganda, talabalar dars jarayonida ham talaba tomonidan bajarilgan hisobni ko'chirib olar ekanlar. Talabalar o'rtasida vujudga keladigan ko'chirmachilikni bartaraf etish maqsadida, muallif xususiy-frontal usulda amaliy dars o'tkazish shaklini taklif etdi. Mazkur dars o'tkazish shaklida bir xil formulada yechiladigan masalaga, talaba xususiy yondashishi, o'ziga berilgan texnikaga oid ma'lumotlarni qo'yib ishlaydi.

Xususiy-frontal usulda amaliy mashg'ulotlar tashkil etilib, dars o'tkazilganda frontal usulda dars o'tkazishning barcha ijobiy yo'llaridan foydalaniladi.

Texnika fanlaridan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – talabalarni yer usti transporti texnikasining qismlarini loyihalashga va uning detallarini turli xil usullarda hisoblashga o'rgatishdan iboratdir. Talabalar bitta detalni bir necha usulda hisoblab, hisoblashdagi eng foydali usulni tanlab olishga o'rganishlari kerak.

Nazorat savollari

1. Amaliy mashg'ulotlar o'quv jarayonida qanday o'rin tutadi?
2. Amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning qanday tashkiliy shakllari bor?
3. Yangi materialni o'rganish darsining mohiyati nimada?
4. Bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish darsining tarkibini keltiring.
5. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv jarayonida qanday o'rin tutadi?

3.3. Talabalar bilimini nazorat qilish tizimi. Nazorat turlari

Talabalar bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o'qitilyotgan fanlarni chuqur egallash, chuqur topshiriqlarga ijodiy yondoshish mustaqil fikrlash, o'z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatdosh mutaxassislarni tayorlashga erishish.

Reyting tizimi quydagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

- Talabalarning o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish ularni semestr davomida o'z uslublarida uzluksiz, faol ishlarini taminlash.

- Talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish.

- Professor o'qituvchilarda maruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayorgalik ko'rish, baholash savollarini tuzishda mas'uliyatni oshirish.

Baholash tartibi va mezonlari:

1. Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabanning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

2. Har bir fan bo'yicha talabanning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi.

U shbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Yakuni talabanning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha o'zlashtirish darajasi-100 ballik tizimda baholanadi. Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o'rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86 – 100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

b) Xulosa va qaror qabul qilish; nazoratga - 30 ball;

c) Joriy va oraliq nazoratlarga - 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida NIZOM:

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009-yil 11-iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 10-iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Topshiriqqa muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-son buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.)

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 225-modda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2001-y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

Umumiy qoidalar:

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari:

d) Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

e) v) fanlarning talabalar tamonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

f) g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

g) d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

h) talabalarining fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

i) o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo'yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

Nazorat turlari, uni o'tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta'lim muassasasining (fakultet) o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsatiladi. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball.

Seminarda fanlar bo'yicha to'plagan ballni quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

86-100 % "a'lo"

71-85 % "yaxshi"

56-70 % "o'rta"

55 % dan kam "qoniqarsiz"

Talabalar bilimini baholash tartibi

Reyting natijalari oliy ta'lim muassasasi oliy kengashida muntazim ravishda muhokama etib boriladi va kengash qarorlari qabul qilinadi.

Seminar davomida o'qitilgan fanlar bo'yicha maksimal balning kamida 55% ni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblaniladi, 55% dan kam ball to'plagan talaba esa akademik qarzdor dep hisoblanadi.

Bo'lajak tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning o'rni:

O'zbekiston Resbuklasining Oliy ta'lim muassasalari amaliyoti haqidagi nizom. O'zbekiston Respublika Oliy va o'rta mahsus ta'lim Vazirligining 1998-yil 30-oktabrdagi 305-sonli buyrug'i bilan tastiqilgan. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risidagi" qonun va kadrlar tayyorlash umumiy dasturlari talabalarning mos tavishda ishlab chiqarilgan. Unda, Oliy ta'lim muassasalari talabalarining maskuriy amoliyotini o'tkazish shakillari, tartibi va uslubiyotlari berilgan.

Talabalar o'z maqsadiga erishish jarayonida bosqichma – bosqich bilim ko'nikma va malakalar etabini to'liq va muofaqqiyatli zabt etishlari shart. Ular albatta qo'ygan maqsadlari tomon ildam qadam qo'yishlarigina ularni yuksak cho'qqilar tomon eltadi.

Nazorat turlarini o'tkazish muddati:

Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrnig oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Belgilangan muddatlarda topshirilmagan joriy va oraliq nazorat ballari keyingi baholash ballariga qo'shilmaydi va qayta topshirishga ruxsat berilmaydi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq yoki yakuniy

nazorat turlarini har biri bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun 2 hafta muhlat beriladi. Shu muddat davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi:

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining "O'quv rejasida ajratilgan soat" ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, "Fandan olingan baho" ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o'zlashtirishi qo'yiladi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi. Har bir fan bo'yicha o'tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh va professor- o'qituvchi jurnallari hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o'zida (nazorat turi yozma ish shaklida o'tkazilgan bo'lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e'tiboriga etkaziladi. Yakuniy nazorat natijalariga ko'ra dekanat talabalarining fan bo'yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to'ldiradi. Talabaning reytingi uning bilimi, ko'nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo'yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to'plangan reyting ballari yig'indisi orqali aniqlanadi.

Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o'quv yili yakunlangandan so'ng e'lon qilinadi. Diplom ilovasi yoki akademik ma'lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo'lsa, reytinglar yig'indisi olinadi. Talabalarning joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda erishgan va tegishli hujjatlar (guruh jurnali, o'qituvchining shaxsiy jurnali, reyting qaydnomasi)da qayd etilgan o'zlashtirish ko'rsatkichlari dekanatlar va o'quv-metodik boshqarmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Yakuniy qoidalar:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

OTM ta'lim jarayonini tashkillashtirish. Talabalarni ilmiy loyiha va konferensiyalarga tayyorlash va ishtirokini ta'minlash.

Oxirgi o'n yillikda loyiha va dissertatsiyalardan universitet dasturlarida qo'llash katta ma'no kashf etmoqda. Birinchidan loyiha va dissertatsiyalar ko'pgina talabalarning imkoniyatini, talaba-tadqiqotchi sifatidagi faoliyatini ko'rib chiqadi va shuningdek ilmiy tadqiqotga o'z hissasini qo'shadi.

Ikkinchidan loyiha va dissertatsiyalar tadqiqot madaniyatining samaradorligi asosiy hisoblanadi, aspirant va talabalarning o'uv dasturining asosida yotadi.

Uchinchidan loyiha va dissertatsiyalarni, fanlar orqali dasturlarni ahamiyatli komponent darajasi sifatida ko‘riladi.

Shunday qilib, talabalar universitetni tamomlagandan keyin tadqiqotlarni tahlil qilish va ishtirok etish “iqtisodiy bilim” ni talab etadi, ongli ravishda o‘quv dasturlarini rejalashtiradi va ishlab chiqadi.³⁰

Dissertatsiya va loyiha tadqiqotning rag‘barlantiruvchi foydali yo‘l sifatida ko‘rinadi, avlod orqali birinchi ma‘ulotlarni tahlil qilish. Bunday yondashishi kognitiv ko‘nikmalari oliy darajada rivojlantirishga yo‘naltirilgan, baholash va sintez va tahlil shular jumlasidan. Shundan ko‘rinib turibdiki, loyiha va dissertatsiyalarni asoslash foydali chora ko‘rinadi:

- qo‘shimcha baholash;
- o‘quvchilarning imkoniyatlari va huquqlarining kengayishi;
- talabalarni rag‘barlantirish; motivatsii studentov;
- ilmiy tadqiqotlar va dars berishning o‘zaro aloqasining o‘sishi;
- talaba-tadqiqotchilar imkoniyatlarining ta‘siri;

Dissertatsiyaning loyihadan farqi, qoidasiga muvofiq tadqiqot sifatida shakllanadi, birinchi ma‘lumotlarni olish uchun yo‘naltiradi. (Williams i Horobin, 1992).

Talaba (odatda) loyiha mavzusini tanlaydi; o‘zining materiallari uchun aniq manbasini topadi; oxirida mahsulotni taqdim etadi; mustaqil ishni olib boradi. Loyiha uzoq davrni o‘z ichiga oladi va o‘qituvchi konsultat vazifasini o‘taydi. (Genri, 1994).

Kurs ishi va diplom ishi o‘rtasidagi o‘xshashlik shundan iboratki, ikkalasi ham loyihani boshqarish ko‘nikmalarini talab etadi: rejalashtirish, harakatni rejalashtirish, vaqtni boshqarish, monitoring, mahsulotni vaqtida topshirish va baholash.

Loyiha va dissertatsiyalarni joriy qilishdan oldin, nazorat qiluvchi organlar loyiha bo‘yicha o‘zlarining boshqaruv bo‘yicha ko‘nikmalarini ko‘rib chiqish kerak.

Nazorat tuzilmasining 4 ta o‘ziga xos xususiyati mavjud bo‘lib, qaysiki supervizorlarni rejalashtirish va almashishni talab qiladi.

³⁰ Teaching and learning in higher education. Chapter: Planning teaching and learning: curriculum design and development

Birinchidan ta'limning maqsadini belgilash va kelishish; ikkinchidan aniq masalalarni aniqlash va kelishish, muddatning shakllanishini kiritish; uchinchidan oldinga qo'yilgan maqsadni kelishish va baholash kriteriyalarini tushunishni ta'minlash va ko'rish.

Chelfordi Xopkins guruhlangan loyihalardan foydalanish uchun chiqqan.”³¹

Loyiha va dissertatsiyalarning tayyorlash uchun nazorat savollari.

Nazoratni rejalashtirish-keyingisini qanday xal etasiz?

- hozirgi kuchli va kuchsiz tomonning muhokamasi;
- oldingi ishni rejalashtirayotgan talabani rag'barlantirish;
- Faoliyat rejasi davomida qisqa muddatli maqsadlarni o'rnatish.

Sizning kun tartibingizda nima bor?

• Harakat rejasi bilan kelishish yoki harakat rejasiga munosaba bo'yicha rivojlanishi haqida ma'lumot.

- bajarilgan ish bo'yicha o'z fikrini bildirish;
- muammolarni hal etilishida kamchiliklarni bartaraf etish;
- baholash mezonlarini ko'rish;
- harakat rejasini ko'rish va hozirgi ko'rsatkich;

Qanday ma'lumot bilan sizga murojaat etish mumkin?

- ishning borishi haqida yozma hisobot;
- supervizor materialining loyihasi;
- baholash mezonlari va normativ vedmost loyihalar

Shuni aytish kerakki loyiha va dissertatsiyalarni sarali va ta'sirchanligi rahbar tamonidan nazorat qilinadi, ular o'zlarining boshqaruvchanligini va chiqishib keta olishni o'rganish va mukammaltirishi kerak.

Shunaqa fikr bildirilgan ediki, rahbar talabani qo'llab-quvvatlashning kengaytirishi, chunki kuzatuvchi talabani undab va rag'barlantirish orqali birlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Aynan bu ko'rinish loyiha va dissertatsiyani ta'limning qudratli qiladi. ³²

³¹ Teaching and learning in higher education. Chapter: Supervising projects and dissertations., pages (150-166)

³² **A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education** Enhancing Academic Practice Third edition Edited by Heather Fry Steve Ketteridge

Nazorat savollari:

1. Reyting tizimi haqida tushuncha.
2. Talabalar bilimini baholash tartibi qanday qoidalarga asoslanadi?
3. Bo'lajak tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning o'rni haqida tushuncha.

IV BOB. MUSTAQIL TA'LIM. ILMIY LOYIHALAR VA KONFERENSIYALARDA TALABALARNING ISHTIROKI. PEDAGOGIK MULOQOT

4.1. Mustaqil ta'lim olish – mutaxassisning intellektini shakllantirish usullari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda axborotlar va ular bilan ishlashga doir bilim, dunyoqarash, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fanlar dasturlarida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Fanni o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabaning qiziqishlarini, anglash faolligini va mustaqil ishlarini rivojlantirish yo'nalishida boradi, bunda talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil o'qish ko'nikmasi va layoqatlari shakllanadi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishni bajarishdan **asosiy maqsad** – kafedra professor-o'qituvchilarining bevosita rahbarligi va nazorati ostida talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yana-da mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish natijasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr-dan-semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim. Ya'ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

Fan bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;
- Prezident J.A.Karimov asarlarini mustaqil o'rganish va konspektlashtirish;
- O'zbekiston Resublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlarni konspektlashtirish;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- talabalarning ilmiy jamiyatlari va to'garaklarida ishtirok etish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- hisob-kitob va grafik ishlarini bajarish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza matnlarini tayyorlash;
- "talaba-o'qituvchi-kutubxona" kunida fan bo'yicha yangi o'quv adabiyotlari sharhini o'qituvchi bilan hamkorlikda tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar turar joyida ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- fakultativlar va maxsus seminarlar ishlarida ishtirok etish;
- kafedraning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Talabalarning mustaqil ishi ta'lim va tarbiyaning shunday vazifalariga bo'ysundirilganki, butun o'quv jarayoni to'laligicha talabalar tomonidan faol, ongli, puxta va tizimli ravishda fan asoslarini o'zlashtirish va ularda iqtisodiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Bu vazifalar ta'lim jarayoni va shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini bilmasdan va foydalanmasdan turib hal qilinishi mumkin emas. Ularning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

Fan bo'yicha mustaqil ishlarni referatlar shaklida tashkil etilishi talabalarni ilmiy-ijodiy o'quv jarayoniga jalb qilishning keng tarqalgan usullaridandir. Talabalar ilmiy ijodi ta'lim shakllaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h.k.

Agar referat tayyorlashning darslik bo'yicha tayyorlangan seminar mashg'ulotidagi chiqishga qaraganda mazmun va sifat

jihattan yuqoriligi hisobga olinsa, referat shubhasiz katta foyda keltiradi. Talaba auditoriya oldida referatda bayon qilingan qoidalarni himoya qilishga, yoqlashga tayyorlanishi kerak, Informatika fanini o'rganishda bu muhim ahamiyatga ega.

Referat – bu talabalar mustaqil ishlarining samarali shakllaridan biridir.

Mazkur shakl talaba tomonidan referat mavzusini tanlash, unda yoritiladigan masalalar mazmunini oldindan rejalashtirish, referatni tayyorlash va muhokama qilishning barcha bosqichlarida kafedra professor-o'qituvchilarining tashkiliy-uslubiy yordami va maslahati asosidagina samarali amalga oshishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi tomonidan talabalarning referat ishlariga rahbarlik qilish qanchalik batafsil va malakali amalga oshirilganligi va referatlarga talablar mezoni qanchalik to'g'ri qo'yilganligi albatta, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Topshiriq talabalarning referat yozish ko'nikmalarini, ilmiy qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olgan holda berilishi juda muhim.

Ko'rgazmali vositalar va taqdimotlar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalari ham talabalar mustaqil ishlarining shakllaridan biridir. Kafedra professor-o'qituvchilari talabalar ilmiy-nazariy konferensiyasini tashkil etish orqali o'z ishini guruhning kasbiy yo'naltirilganligini, a'zolarining yosh tarkibini, qiziqishlarini hisobga olib, tabaqalashgan holda tashkil qilishi kerak. Faqat shu holdagina talabalarning konferensiyani o'tkazishda faol ishtiroki va manfaatdorligi ta'minlanadi.

Fan bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich – fan o'qitilayotgan barcha o'quv guruhlarida konferensiyalarni o'tkazish;

2-bosqich – har bir guruhda tanlab olingan talabalarning eng yaxshi ma'ruzalarini fakultet konferensiyasiga taqdim etish va o'tkazish;

3-bosqich – fakultetda o'tkazilgan konferensiyada tanlab olingan eng yaxshi ma'ruzalarni universitetda o'tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyaga taqdim etish.

Butun guruhlar uchun yagona bo'lgan konferensiya mavzusini tasdiqlab, talabalarning ma'ruza va chiqishlarini guruhlarining qiziqishlariga qarab ixtisoslashtirish mumkin.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlarning kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- fanga doir darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanning alohida bo'limlari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar asosida ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan dasturiy tizimlari bilan ishlash;
- qo'shimcha adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron shakldagi o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda ma'lumotlar banklari bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va talabalar davrasida himoya qilish.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil

ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uning bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

Ayni paytda ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning yagona konsepsiyasi to'la shakllanmagan bo'lsada, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarini modellashtiruvchi kompyuter o'qitish tizimi kun sayin rivojlanmoqda. Bu yo'nalishda turli variantdagi darslik va o'quv qo'llanmalarni shakllantirilishi va shaxsiy kompyuterlarning imkoniyatlari ortayotgani, laboratoriya ishlari va tabiiy eksperimentlarni modellashtiruvchi dasturlarning yaratilayotgani bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Umuman aytganda, har qanday pedagogik texnologiya – bu axborot texnologiya hisoblanadi, chunki o'qitish jarayoni texnologiyasining asosini axborot va uning bosqichma-bosqich harakati (yoxud boshqacha tus olishi) tashkil etadi. Shuning uchun kompyuterdan foydalanilgan o'qitish texnologiyasini – kompyuter texnologiyasi deb atagan ma'qul.

Kompyuter texnologiyasi dasturlashtirilgan o'qitish g'oyasini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'qitishning yangi, hali tadbiiq etilmagan, yoxud aytarli tadbiiq etilmagan yangi texnologik variantlari bilan ish ko'radi va hozirgi zamon kompyuterlari va telekommunikatsiyasining noyob imkoniyatlarini paydo etadi. Mazkur texnologiya parametrlarini quyidagicha sinflashtirish mumkin:

1. Ishlatilish darajasiga ko'ra: umumpedagogik.
2. Falsafiy asosga ko'ra: sharoitga moslasha oladigan, texnografik.
3. Rivojlanishning asosiy faktoriga ko'ra: ijtimoiy – psixologik
4. O'zlashtirishning konsepsiyasiga ko'ra: assotsiativ – reflektorli.
5. Shaxsiy strukturasi bo'yicha orientirlashtirishga ko'ra: axborotlashtirish-operatsion.
6. Mazmunan xarakteriga ko'ra: yondashuvli.
7. Talabalarning bilish faoliyatini boshqarish tipiga ko'ra: kompyuterli.

8. Tashkiliy formasiga ko‘ra: individual + kichik guruhlar tizimida.

9. Talaba shaxsiga yondashuv bo‘yicha: hamkorlik.

10. Ustuvor metodi bo‘yicha:

Axborot + operatsion + dialogli + dasturlashtirilgan o‘qitish.

11. Modernizatsiyalash yo‘nalishiga ko‘ra: tashkil etish va boshqarishning samarali yo‘li.

12. Ta‘lim oluvchining kategoriyasiga ko‘ra: ko‘p kategoriyali.

Kompyuter texnologiyasi bo‘yicha ta‘limning konseptual holatlari qilib esa quyidagilarni olish ma‘qul hisoblanadi:

- o‘qitish – bu talaba va kompyuter orasidagi muloqot;
- adaptatsiya tamoyili – kompyuterni talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish;

- o‘qitishning dialogli xarakteri;

- boshqarilishi: o‘qituvchi tomondan ixtiyoriy vaqtda o‘qitish jarayoniga

- tuzatish kiritish imkoniyatining mavjudligi;

- individual va guruhli o‘qitish ishlarini optimal uyg‘unlashtirish imkonining mavjudligi;

- talabaning kompyuter bilan muloqotida ularning optimal qulay holatlarini qo‘llab-quvvatlash imkonining mavjudligi;

- o‘qitishning chegaralanmaganligi, o‘qitishning tahlili va amalda qo‘llanilishi (har qancha ko‘p bo‘lganda ham).

Mustaqil ishlarni tashkil etishning istiqbolli yo‘nalishlari

Ko‘pchilikning fikriga ko‘ra, ta‘limda axborot texnologiyalarini foydalanish sohasida, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng istiqbolli yo‘nalishlardan sanaladi. Ma‘lumki, o‘quv materiallarini turli tavsiya shakllari, jumladan ba‘zan o‘rganiladigan hodisani turli nuqtai nazardan qaraydigan darsliklar, yangi mavzularni o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan savollarga ixtiyoriy vaqtda to‘la javob olish imkonini beradigan lug‘aviy “spravochnik” tizimi, tabiiy fanlarni o‘rganishda demonstratsion eksperimentlar va laboratoriya mashg‘ulotlari, talabalar tomonidan ixtiyoriy o‘quv fanini mustaqil o‘rganishda kerak bo‘ladigan ehtiyojlardan sanaladi.

Mustaqil o'qishda, materiallarni o'zlashtirishda yuqorida eslatilgan elementlardan foydalanish tartibi, har bir talabanning individual xususiyatlari tomonidan belgilanadi. Talabalarning mustaqil ish dasturi kompyuter texnologiyasi tizimida o'zaro parallel faoliyat ko'rsatadigan quyidagi uchta asosiy tizimdan tashkil topadi: o'quv metodik adabiyotlar kutubxonasi, integrallashgan lug'atlar hamda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimlari.

Ta'limda axborot texnologiyaning lug'aviy tizimi, quyidagi ikki muhim shartni qanoatlantirmog'i lozim.

Bulardan **birinchisi**, u barcha talabalar uchun, istalgan vaqtda, qanaqa mavzu bo'lishidan qat'iy nazar, barcha lug'aviy materiallar haqida istalgan ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'lish uchun sharoit yaratadi. Boshqacha aytganda, murojaat etiladigan lug'aviy materiallar integrallashgan kompyuter ensiklopediyasi ko'rinishida bo'lmog'i zarur.

Ikkinchisi – mazkur lug'aviy tizim oson to'ldiriladigan va takomillashtiriladigan bo'lmog'i lozim. Talabalarga laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni mustaqil imitatsiya qilish imkonini berilishi esa, bu borada bir qancha murakkab masalalarni yechish zaruriyatini tug'diradi. Bunda, eksperimentlarning dinamik modellarini avtomatik ko'rish uchun birinchi navbatda, eksperimentni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning modellarini yaratishni taqozo etadi.

Nazorat savollari:

1. Mustaqil ishlarni tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari
2. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
3. Kompyuter texnologiyalarining asosiy didaktik funksiyalari

4.2. Talabalarni ilmiy loyihalar va konferensiyalarga tayyorlash va ularning ishtiroki.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot

tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlariga ehtirom tuyg'usini bolalik vaqtidanoq shakillantirishimiz zarur. Ilm-fan tobora rivojlanib borayotgan bugungi kunda insoniyatning axborot olishga bo'lgan ehtiyoji ham ortmoqda. Shu bilan birga axborotlarning qanday usulda va qay yo'sinda olish muhim ahamiyatga ega. Bu ma'lumotlarni qayta ishlash va tahrirlash imkoniyatlarini bilish va ularni uzatish uchun nimalarga e'tibor berishimiz kerak degan savol tug'iladi va bunda albatta bizlarga kompyuter texnikasi va uning vositalarisiz buni amalga oshirish mushkulligini hozirda har bir inson tushunib yetsa kerak deb o'ylaymiz. Bundan tashqari ma'lumotlarni kitobdan, turli manbaalardan va hozirda juda muhim ahamiyat kasb etayotgan Internet tarmog'idan olishimiz mumkin.

Ta'limda axborot kommunikativ texnologiyalarini qo'llaganda o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkillashtirish uchun ma'lum bir shart-sharoitlar mavjud.

Ikkinchidan maxsus dasturiy ta'minotlar mavjud. Ta'lim tizimida multimedia elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, har xil animatsiyalarni yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar bor.

Bu dasturlarning turlari juda ko'p bo'lib, maktabdagi ta'lim faoliyati uchun quyidagi dasturlardan foydalanish mumkin. Multimediali taqdimot ma'ruzalarini yaratishda Microsoft Power Point va Macromedia Authotware dasturlardan foydalanish mumkin. Bu o'quvchilar va o'qituvchilar uchun o'rganishi va amalda qo'llashi oson bo'lgan dasturlardir.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz o'z oldiga ezgu maqsad qo'yib yashamoqda. Ular bilimga chanqoqligi, o'qish, izlanish va jamoat ishlarida faolligi, ilmiy va ijodiy salohiyati bilan bir qatorda zamonaviy axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi bilan ham ajralib turadi. Tabiiyki, bu ehtiyoj ularni Internet tomon yetaklamoqda. Internet tarmog'iga ulanish va undan unumli foydalanish axborot kommunikativ texnologiyalarini amalda qo'llashdan iboratdir.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimiz axborot bozorining asosiy iste'molchilari bo'lgan bunday yoshlar o'zlarini

qiziqtirgan savollarga javobni asosan Internetdagi elektron manbalar va veb-saytlardan qidirmoqda.

Internet tarmog'ida ta'lim tarmoqlarining yetakchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. **Internetdagi manzili – www.ziyonet.uz. www.uzedu.uz**

Bu portalda hozirgi vaqtga kelib, ta'lim sohasiga tegishli tashkilotlar va muassasalar o'z veb-sahifalarini yaratmoqdalar. Bu esa yoshlarimizning internet bilan yanada mustahkam aloqa qilishga va o'z veb-sahifalarini boyitib borishga, yangiliklarni yoritishga, forumlarda ishtirok etishga imkoniyatlari yanada kengayib borishiga olib keladi.

Har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida axborot – kommunikativ texnologiyalarini qo'llash dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Har bir pedagog – o'qituvchi, o'quvchi, malaka oshirish kurslari tinglovchilari ham bundan mustasno emas. Chunki o'quvchi har bir fan bo'yicha referatlar tayyorlashi, pedagog – o'qituvchi o'zining darslarini zamonaviy usulda olib borishi, malaka oshirishga kelgan tinglovchi esa kurs ishlarini tayyorlashlari kerak. Shuning uchun ular o'z ijodlarini kompyutersiz amalga oshirishlari mumkin emas. Masalan, oddiy matnni yozishni bilishlari va uni tahlil qilishlari kerak. Buning uchun ular Microsoft office paketiga kiruvchi Microsoft Word matn dasturida ishlash ko'nikmalarini bilishlari kerak. Ko'rgazmali slaydlardan foydalanishni bilishlari uchun Microsoft Power Point dasturidan foydalanishlari kerak bo'ladi. Turli hisoblashlarni va arifmetik amallarni bajarish, diagrammalar hosil qilish uchun esa Microsoft Exceldan foydalanishni bilishlari kerak. Internetdan ma'lumotlarni olish uchun veb – brauzerlarda ishlash ko'nikmalarini hosil qilishlari kerak bo'ladi.

Multimedia vositalari ham zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalari asosiy bo'g'inini tashkil etib, undan foydalanmay turib, darslarni tashkil etish mumkin emas.

Shuning uchun dars jarayonida videoproektor, veb – kamera, raqamli fotoapparat, skaner va printerlardan foydalaniladi. Ta'limda AKTni qo'llash o'quv jarayonini oqilona boshqarish va nazorat

qilish orqali vaqtni hamda mablag'ni tejaydi. O'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondoshuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Masalan, o'quvchini kompyuter yordamida testdan o'tkazishda uning bilimini kompyuter baholab beradi. Bu esa o'quvchi o'zining bilimini to'la namoyish etishga harakat qilish imkoniyatini beradi. Agar test natijalari qoniqarsiz bo'lsa, u o'zini bilimini yanada boyitish maqsadida boshqatdan sinab ko'radi, bu uning bilimi qay darajada ekanligini toki o'zining bilimini to'laqonli darajaga olib chiqquncha unda sinovdan o'tish imkoniyati bo'ladi.

Elektron o'quv – qo'llanmalaridan foydalanishda mustaqil fikrlab o'qib o'rganishga, nazorat savollariga javob berishda aqliy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. An'anaviy darsdan mutlaq farq qilib, o'quvchinining kayfiyati dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy faoliyati va kasbga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Bugun o'quvchini darsning faol ishtirokchilariga aylanishi, dars jarayonini mustaqil boshqarishni o'rgatishga ham tayyorlaydi.

AKT dasturlaridan foydalangan holda tinglovchi yoki ishtirokchilarni baholash bu bilimlarni o'qitilayotgan materialni va Internet, Intranet hamda multimedia vositalari texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasini baholashdir. Masalan: O'qituvchi savollarni elektron pochta yoki xat, axborot ko'rinishida jo'natishi mumkin. Onlayn tizimida test olish joriy qilingan bo'lishi mumkin. Bu ayniqsa masofadan o'qiganlar uchun juda qulaydir.

O'quvchilarni baholash uchun test olishning turli variantlarini ishlab chiqish imkoniyati borligi va o'quvchilar turli turdagi vazifalarni bir vaqning o'zida ishlab natijalarini olishlari mumkin. Interfaol vazifalar baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lishi mumkin.

Savolnoma shaklidagi test ham ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlash mumkin.

AKT moslashuvchandir. AKT turli yoshdagi o'quvchilar, turli darajadagi o'qituvchilar uchun moslashtirilishi mumkin hamda ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'makdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimida kompyuter texnikasidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga qaratilgan izlanishlar to'xtovsiz kechmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga doir bir qator qarorlar qabul qilindi. Ularda asosan, yoshlarimizga berilayotgan bilim va ko'nikmalarni yangicha usullarda tushuntirish nazarda tutilgan. Ayni chog'da yosh pedagoglardan ish faoliyatini puxta rejalashtirishi, qo'yilgan masalaning to'laqonli yechimini topishi uchun zarur bo'lgan axborotlarni tezkor topa olishi, o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning modelini ko'ra bilishi hamda yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi uchun yetarli malakalarga ega bo'lishi talab etilmokda.

Ta'lim muassasalaridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud holat va muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Moddiy-texnika bazani takomillashtirish maqsadida, ma'nan eskirganlarini yangilash kerak. Ya'ni, joylardagi o'quv muassasalarini zamonaviy texnik qurilmalar, zamonaviy kompyuter, videoproektor, maxsus ekran, televizor, video kamera, fotoapparat, veb-kamera, skaner, printer, internet, kompakt disklar, yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash zarur.

2. O'quv dargohlarida dasturiy mahsulotlar yetarli darajada emasligini hisobga olib, ularni multimedia elektron darsliklar, o'rgatuvchi trenajyorlar, virtual laboratoriya, texnik qurilmalarning dasturiy ta'minoti, ularni ishlatish va o'rgatish bo'yicha qo'llanmalar bilan ta'minlash kerak.

3. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lum bir qismi zamonaviy kompyuter texnikasidan o'quv jarayonida yetarli foydalanish malakasiga ega emas. Moddiy-texnik baza va multimedia dasturlaridan dars jarayonlarida, amaliy mashg'ulotlarda foydalanishni bilmaslik – barcha ishlarning

samarasiz ketgani hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim muassasasidagi o'qituvchilarni kompyuterda mukammal ishlashni bilishlari, uning imkoniyatlaridan o'qitish jarayonlarida unumli foydalanishlari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga ta'sir etuvchi asosiy faktorlar haqida gap ketganda avvalo, o'qituvchilarni kompyuterda ishlashga o'rgatishni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich – ta'lim muassasasida o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini aniq belgilab chiqish kerak. Bu bosqichda barcha ta'lim muassasasida so'rov o'tkazish orqali kompyuter texnikasidan foydalanish darajasiga ko'ra quyidagilar aniqlanadi:

– kompyuter texnikasi bilan muloqotni umuman bilmaydiganlar;

– kompyuter texnikasi bilan muloqotni qisman biladiganlar. Bunday xodimlar kompyuterni o'chirib yoqishni, unda murakkab bo'lmagan operatsiyalar bajarishni, ma'lum dasturlarga kirish va chiqishni biladiganlar;

– kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar. Bunday o'qituvchilar kompyuterdagi dasturlar bilan ishlay oladilar, kompyuterdan foydalanuvchi sifatida foydalanishlari mumkin;

– kompyuter texnikasini mukammal egallaganlar. Bunday pedagoglar dasturlar bilan ishlay olishdan tashqari, ma'lum bir tilda o'zlari istagan dasturlarni tuza oladilar.

Demak, birinchi bosqichda o'qituvchilarning bilim darajasi aniqlab olinadi.

Ikkinchi bosqich – ta'lim jarayonida kompyuter texnikasining maqsadli ishlatilishiga erishish.

Birinchi navbatda, ta'lim muassasasida mehnat qilayotgan o'qituvchilarning kompyuter savodxonligi darajasini kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar darajasiga yetkazish lozim.

Buning uchun dastlab zamonaviy texnologiyalar bilan tanish bo'lmagan o'qituvchilarni kompyuter texnikasi bilan muloqot qilishga o'rgatish vazifasi hal qilinadi, ularning shu sohadagi bilim

va malakalari ikkinchi guruh – kompyuter texnikasi bilan muloqotni qisman biladiganlar darajasiga yetkaziladi. Bu bosqichda o'qituvchilarga "office" dasturlarida ishlash to'liq o'rgatiladi.

Keyingi bosqichda esa, shu ikki guruh o'qituvchilarini yoppasiga murakkablashtirilgan dastur asosida kompyuter texnikasi bilan yaxshi muloqot qilishga o'rgatiladi. Barcha fan o'qituvchilarining kompyuter texnikasi bilan muloqotni yaxshi biladiganlar darajasiga yetkazilishi fanlardan mavzularning ma'lum qismini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tish, hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida butun jahon axborot tizimi INTERNETra ulanish, undan materiallar olish va dars jarayonida mazkur materiallardan foydalanish, mavzular bo'yicha dars mashg'ulotlarini loyihalash, dasturlashtirishga imkon yaratadi.

O'qituvchi mavjud dasturlardan avvaldan rejalashtirgan holda dars jarayonida foydalanishi, zarur hollarda dastuplarga vaziyat taqozosiga qarab ayrim o'zgartirishlar kiritishi, dars jarayonida dasturlarni almashtirishi ham mumkin. Bunday darajadagi o'qituvchiga darsga tayyorgarlik, dars jarayonida, darsdan keyin boshqa markazlardan ko'mak olishga ham imkoni bo'ladi. Bu bosqichning hayotga tatbiq qilinishi ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonining hozirgi davr talablari, ilg'or mamlakatlar ta'lim tizimi darajasiga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

Uchinchi bosqichda – kompyuter texnikasidan o'quv jarayonida unumli foydalanish, uning asosida amaliy darslar va seminar-treninglar o'tkazish hisoblanadi. Bu bosqichda asosan professional darajada biladiganlar qismidan foydalaniladi. Har bir fan o'qituvchisi o'zining fanidan kelib chiqib, AKTni dars jarayonida foydalanish koeffitsientini aniqlashni bilishi kerak, ya'ni o'z o'quv fanida AKTdan foydalanish mumkinligi va zarurligi bo'lgan joylarini aniq bilishi va tasavvur qilishi kerak.

Uchinchi bosqich juda murakkab va davomli jarayon bo'lib, unda har bir fan o'qituvchisi o'zining fanidan oddiy 1-darajali elektron qo'llanmalarni .doc va .html formatlarida tayyorlashi

o'rgatiladi. Keyingi navbatda, ularga murakkab dasturlar (ya'ni, Macromedia Flash, Macromedia Dream-weaver kabi)da ishlashni o'rgatish ko'zlangan maqsadga olib keladi.

Videokonferensiyalar – bu odamlarga biri-biri bilan muloqot qilish imkoniyatini beruvchi kompyuter texnologiyasidir.

Oddiy kompyuter yordamida ma'lumotlarni ko'rish, almashish, birgalikda tahlil qilish mumkin. Bunda siz ko'rish va eshitish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Konferensiyada qatnashish uchun quyidagilar zarur:

Kompyuterda maxsus videokonferensiyani ta'minlovchi qurilma va programm ta'minot o'rnatilgan bo'lishi shart. 100 marotaba eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan ma'qul deyishadi. Haqiqatan ayrim vaziyatlarda suhbatdoshni eshitish yetarli bo'lmaydi. Ilmiy tekshirishlar telefon orqali muloqot qilinganda ma'lumotning 10 foizigina qabul qilinishini ko'rsatdi. Suhbatdoshni ko'rganda ma'lumotning 60 foizi qabu! qilinadi. Shuning uchun insoniyat qimmatli vaqtining aksariyatini safarlarga sarflaydi. Bunda vaqtdan va puldan yutqazadi. Bu muammoni videokonferensiyalar yengilgina hal etdi. Endilikda universitetlar, yirik-yirik korxonalar muzokara va turli anjumanlarni videokonferensiyalar yordamida amalga oshirmoqda.

Videokonferensiya quyidagi imkoniyatlarga ega:

Bir paytning o'zida dunyoning turli nuqtalaridagi mutaxassislarni virtual konferens xonaga yig'ish. Turli — matnli, audio va videoli ma'lumotlarni uzatish. Birgalikda ma'lumotlarni ko'rish.

Boshqalarni ko'rish va ularning fikrini eshitish va umuman muhokamada aktiv ishtirok etish. Operativ ravishda maslahatlar (konsultatsiyalar) berish yoki olish

Hozirgi kunda bu anjuman o'qishda (masofadan o'qitish), meditsinada (telemeditsina), boshqarishda (elektron ofislar), ehtiyotlash tizimlarida va boshqa turli sohalarda juda qo'l kelmoqda. Faraz qilaylik, siz bir muammo bilan ishlamoqdasiz va uni boshqa mamlakatdagi hamkasblar bilan muhokama qilmoqchisiz. Bir joyga yig'ilish uchun mablag' vaqt zarur. Internet

yordamida bu muammoni tezgina muhokama qilib, hal qilish mumkin.

Konferensiyada quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

Bog'lanish tarmog'i sifati va tezligi yuqori bo'lishi shart (64 Mb sek da ishlash mumkin, lekin 128 Mb sek tavsia etiladi). Odatda videokonferensiyalarni o'tkazish uchun 64 Kbs dan 512 Kbs tezlikli ISND yoki 1-1.5 Mbs gacha bo'lgan IR tarmoqlardan foydalaniladi. Qoniqarli sifatli tasvirlar 200 Kbs tezlikda va yuqori sifatli tasvirlar 300 Kbs tezlikda olinadi.

Audio va video ma'lumotlarni ishlash tezligi muammosi, ya'ni uzatilayotgan ma'lumotlarni kodlash va qayta tiklash tezligi. Agar kompyuter kelayotgan kadrlarni, ovozlarni qayta ishlashga ulgurmasa, video va audio ma'lumotlarda uzilish bo'ladi. Ya'ni ma'lumotlar to'la aks ettirilmaydi. Bunda videokonferensiya mazmuni yo'qoladi. Toshkent davlat peagogika universiteti VCON, Sanon, RADVision kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan videokonferensiya qurilmalari va UZNET provayderi aloqa kanalidan foydalangan holda, respublikamizning bir qancha OTMlari bilan videokonferensiya aloqasini amalga oshirmoqda. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari, Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, Guliston Davlat universiteti, Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat instituti, Navoiy davlat konchilik instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti kabi OTMlarni misol keltirishimiz mumkin.

O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash etiqodni manaviy va siyosiy g'oyalarni shakillantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga tasir ko'rsatish meto'dlari kiradi. Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga mofiq tarizda halqilish uchun qo'laniladi. Yana o'quvchilar jalb qilingan foalyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Kino filimlar san'at asarlari o'qtuvchining jonli so'zi bolalar o'yini mehnat, sport, badiy haskorlik, ishtimoij va boshqa faolyat turlari tarbiya vositavari hisoblanadi.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari uslubi vositalari va shakillaridan mohirona foydalanishga bog'liq shunday qilib tarbiya jarayonida o'qituvchi, bitta o'quvchi yoki sinif jamosi

manfati yo'lida biron bir tarbiyaviy masalani hhal qilish uchun o'quvchilarni pedago'gik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda tasir etishni turli tuman metod, uslub va shakllari majmuosiga tarbiya usuli deyiladi.

“Buyuk Britaniya oliy ta'limida talabalar faqat soni ko'pligi bilan emas, balki turli -tumanligi bilan ham farqlanadi. Talabalar ijtimoiy klasi, yoshi, moliyaviy va oilaviy ahvoli; ularning ma'lumoti, oliy ta'limga kirish maqsadi va intilishi; dini, etnik va milliy mansubligi; qobiliyatlari va imkoniyati cheklanganligi.

Talabalar soninig o'sishi va oliy ta'lim tizimiga o'z ishlarida kelajakda muvaffaqiyatga erishishni hohlagan va yordamga muhtoj talabalar mavjudlik tendensiyasi bilan bog'liq. Talabalar barchasi bir hil emas, lekin ularning o'xshash jihatlari bor, ular ko'pchilikni tashkil etadi. Talabalar uchun oliy ta'limdan boshqa yuqori ta'lim haqida gapira olmaymiz.

Ularning ko'pchiligi uzoqlardan madaniy kapitalsiz keladi. Ularga kelish oldida o'qituvchilari tomonidan asosiy talablar bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Bular talabalarni tutib nazoratga olishga olib kelpyapti.

Hozirga vaqtda talabalar o'qish uchun juda katta miqdorda krelitlar olishga, ularning oilalari esa, katta moliyaviy qurbonlik qilishga majburdir. Boshqa bir talabalar haftasiga ko'p soatlab, yoki kuni bilan ishlashga majbur. Talabalar o'zlarini oliy ta'lim iste'molchilari deb biladilar va undan katta natija kutadilar. Ular National Student Surveydan yig'ilgan iste'molchilardek ko'p korxonalariga yordamchi xizmat ko'rsatadi. Bunda biz kollej va universitetlarning talabalarni o'qitish va ularni kutgan natijalarini oqlash va ular tanlagan tadqiqotlarini davom ettirishga yordam berishlarini bilamiz. Ular faqat ilmiy xodimlarni emas, balki barcha talabalar bilim olishini qo'llab quvvatlaydigan xodimlarni ko'rib chiqadi. Bunda talabalarni to'g'ridan to'g'ri yoki virtual o'qitishni qo'llab qo'llab quvvatlashni nazarda tutadi. Maqsadli o'qitish imkoniyati cheklangan talabalar uchun ham katta qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunlar nogiron talabalar uchun ham bir hil sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

O'zgarib borayotgan jarayonda oliy ta'limga tizimli yondashishni talab qiladi. Ta'lim jarayoni modelini to'g'ridan to'g'ri uzatish talabalar ehtiyojini qondirmaydi. Oxirgi vaqtda bu jarayon ancha o'zgarishlar bo'layotgani bilan belgilanadi. O'qituvchilar faqat ma'ruzalar o'qimasdan talabalar uchun yordam sifatida amalga oshiradilar. Oliy ta'lim o'qituvchilari bundan keyin o'qituvchiga yo'naltirilgan emas, balki shaxsga yo'naltirilgan tarzda ishlaydi.

"Talaba markazda" bo'lishi uchun barcha talabalar o'qiydigan fan bo'lishi, ular qiziqish bilan o'kish kerak. Talabalar o'zlari tanlagan fan bo'yicha boshlang'ich bilim darajasidan yuqori bilim darajalariga ko'tarilishi kerak. Barcha talabalar fanni o'qiganda erishishi kerak bo'lgan talabalarini biladilar. O'qish jarayonining rivojlanishi undan qoniqishdir. Tizimli o'qitish talabalar bilim olishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishdir. Ba'zi birlar uchun bu AT sohasida o'z ko'nikma va malakalarini oshirishdir, yana boshqalar uchun tillar o'rganishdir, boshqalar uchun kasbiy ko'nikmalarni oshirishdir. Har bir talaba uchun ko'nikma va malakalarini oshirish obyektini o'z xohishi bilan ta'minlanadi.

Learn Highe markazi 16 tashkilotlar uchun malakani amaliy oshirish, ilmiy-tadqiqiy baza yaratish, ta'lim resurslarini samarali foydalanish uchun hamkor tashkilot hisoblanadi.

Learn Highe markazi talabalar o'z mustaqil fikrlash qobiliyatlarini, bilimlarini rivojlantirish, tushunish, o'z-o'zini anglash, to'g'ri fikrlash, rasmiy va norasmiy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatadi. keng ma'noda "Talimni rivojlantirish" talabalar uchun (o'quv reja, o'qitish strategiyasi, yordamsi xizmatlar va boshqalar) yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun yordam beradi."³³

³³ A Handbook for Teaching and learning in higher education enhancing. Chapter: Supporting student learning. Pages 113-132

Nazorat savollari:

1. Ta'limda axborot kommunikativ texnologiyalarini qo'llash qanday asoslarga tayanadi?
2. Kasb ta'limi sohasini rivojlantirishda axborot – kommunikativ texnologiyalarini qo'llash deganda nimani tushunasiz?
3. Talabalarni bilim saviyasini oshirishda video konferensiyalardan foydalanish afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuring.

4.3. Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi va har tomonlama rivojlanishi

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar davlatimizning kelajagidir.

Mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan bir paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 3-sentyabrdagi "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni zamiridagi g'oyalar, ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsadlar ma'naviyatning ustuvorligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O'zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o'lkaning benihoya go'zalligidan bahramand bo'lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat – tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim–tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa, insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharafli mehnat va qunt, irodani talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat-ma'rifat keng quloch yoygan, ilm-irfon taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli va jamiyat fuqarolarida sog'lom fikr, aql-idrok har doim ustuvor bo'ladi.

Mustaqillik bizga ma'rifiy, madaniy, adolatli va insonparvar jamiyat qurish imkonini berdi. Endi bu jamiyatga har bir inson o'z o'rni, mavqeiga yarasha vijdonan hissa qo'shmog'i lozim.

Insonning ma'naviyati uning odobi, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlari zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Fazilatlar insonning ijobiy sifatleri majmuidan iborat.

Sifat – alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir.

Fazilat – alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

Odamning inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlanganligi bilan belgilanadi. Shu o‘rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to‘xtalib o‘tish joizdir.

Odob – har bir insonning o‘zi bir inson yoki jamoa bilan bo‘lgan muloqotida hamda yurish-turishida o‘zini tuta bilishidir.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan xulq-odob normalari majmui.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to‘plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma’naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

Kamolotga erishgan, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy, muntazam izchil va bir tizimga kirgan shaklda bo‘lishini taqoza etadi. Bu yo‘lda kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini takomillashtirish, professional fanlar singari g‘oyaviy mazmuni talabalarga yangi jamiyatning har bir mutaxassisiga zarur bo‘lgan ijtimoiy dunyoqarashni shakllantiruvchi tasavvurlar zahirasini hosil qilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishga yangicha yondoshuv asosida axloq malakalarini hosil qilish mumkin. Talaba yoshlarda yagona pedagogik jarayonda ma’naviy-axloqiy odatlarni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

– sho‘rolar hokimiyati davrida ta’lim sohasidan o‘rin olgan mafkuraviy mahdudlikdan xalos bo‘lish;

– o‘zbek milliy mentaliteti va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadigan ma’naviy qadriyatlar tizimini mustahkamlash;

– Sharq mutafakkirlari asarlarida ko‘tarilgan Komil inson g‘oyasi ta’limotlariga amal qilish;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida ta’lim-tarbiya xususan hozirgi zamon yoshlari qanday bo‘lishi kerak degan ta’limotiga nisbatan javoblarga to‘la amal qilish kabilar.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutanosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u bor-yo'g'i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro'-e'tibor orttirish vositasiga aylanib qolaveradi».

Mustaqillikning bosib o'tgan yillari davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuquriashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davr ichida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Mamlakatimiz O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, «Istiqlol mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu intilishlari, hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi»

Bu qo'yilgan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi XXI asrda biz yashamoqchi bo'lgan umumiy uyimiz, ya'ni yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bugungi kunda xalqning boy zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning

samarasi taqdiri bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz».

Ta’lim individning jamiyat hayotining turli sohalariga jamiyatda mavjud madaniyatga tayyorlash va moslashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institutdir, Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har qanday sohada bo‘lganidek ta’lim sohasida ham muammolar mavjud. Bu kabi muammolar mustaqil respublikamizni ham chetlab o‘tgan emas. Ushbu muammolarni hal etish hamda ta’lim sohasida zaruriy islohotlarni amalga oshirish maqsadida ta’lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko‘ra mamlakatimizda yagona uzluksiz ta’lim tizimi tashkil qilinib, ta’lim islohoti va uning istiqbollari quyidagi tamoyillar asosida belgilandi:

a) millati, dini, irqi, e’tiqodidan qat’iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta’lim olish imkoniyati yaratilganligi.

b) ta’lim tizimining uzluksizligi, ilmiyligi, dunyoviyligi va izchilligi.

v) ta’limda umummilliy, unuminsoniy, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarning ustuvorligi.

g) ta’limning insonparvarligi, demokratiyaliligi, ta’lim-tarbiya muassasalarining siyosiy partiya va boshqa ta’sirlardan xoliligi.

Demak, yuqoridagi tamoyillar amalga oshirilayotgan ekan, jamiyatimizning har bir a’zosi, xoh duradgor, hisobchi, korxonah rahbari yoxud mashhur siyosatchi bo‘lsin, bu sohaga yuksak hurmat-e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi lozim. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, aqlli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart» degan shiori hamisha har birimizning diqqat markazimizda bo‘lishi shart.

Kasbiy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy istiqloq mafkurasiga asoslangan, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo‘nalishlar bilan erishiladigan

g'oyaviy a'mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Mustaqillik sharoitida talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda qator vazifalarni hal etish talab etiladi. Jumladan:

– Har bir ta'lim oluvchining ongida davlat mustaqilligi xalqning oliy g'oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o'z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta'minlash va O'zbekistonning ulug' tarixiy o'tmishiga, bozor munosabatlariga asoslangan yangi demokratik jamiyat qurishda tanlab olgan o'ziga xos yo'lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug'orilgan oliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni to'g'ri tushuntirish va uni e'tiqodga aylantirish;

– Ta'lim oluvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ularni zamonaviy qadriyatlar ehtiyoji - o'zini yuqori tutish va viqor saqlash, oilaviy tantanalarda o'zini ko'rsatishga urinish, xizmat vazifasidan shaxsiy maqsadlar uchun foydalanish kabi illatlarga murosasiz bo'lish ruhida tarbiyalab borish ularni yuqori axloq malakalari bilan qurollantirishning garovi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, axloqiy tarbiya tarbiyaviy ishlar kompleksida yetakchi o'rin tutadi. Kasb ta'limi muassasalarida talaba-yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma'qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e'tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni, xatti-harakat bilan bog'liq malaka va odatlarni hosil qilib bo'lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

O'zbekiston Respublikasida chuqur keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, zamon talablariga javob beradigan oliy ma'lumotli iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashga ixtisoslashtirishgan uzluksiz iqtisodiy ta'lim tizimini shakllantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Biz qiyin sharoitda kelajagimiz poydevorini

qurib oldik. Bunga o‘rnimizga keladigan yosh avlod qanday baho beradi, loyihalarimiz, ishlarimizni taroziga solib ko‘rib nima deydi? Har birimiz mana shu savolni dilga tugib mehnat qilishimiz lozim. Mening ishonchim komilki, O‘zbekiston xalqi farovon turmush kechiradigan buyuk davlat bo‘ladi».

Ma'lumki, qaysi davlatda kadrlar tayyorlash siyosati to'g'ri va omilkorlik bilan tashkil etilsa, o'sha davlatda har doim taraqqiyot bo'ladi.

Ta'lim har bir jamiyatning ajralmas qismi, madaniyati va rivojlanishning asosiy ko'rsatkichidir. Har qanday mamlakat istiqbolli rejalar tuzar ekan, avvalo ta'limga e'tiborni kuchaytiradi. Shu ma'noda mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab, davlatimiz rahbarining «Kelajak bugundan boshlanadi», «Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi», «Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz» degan da'vatlari ostida ta'lim tizimini isloh qilishga kirishildi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligini yanada yuksaltirish, respublikaning aql zakovat salohiyatini o'stirish, davlatimiz qudratini oshirish, uning mustaqilligini mustahkamlash uchun xizmat qiladigan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi. Ta'lim tizimining moliyaviy va moddiy ta'minoti qonuniy yo'l bilan ijobiy hal etildi.

Faqat o'tish davrining o'zida mazkur dastur uchun 65 mlrd. so'm ajratish ko'zda tutilgan. 1999-yilda bu maqsadlar uchun 34 mlrd. so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizga teng qismi ma'rifat, ta'lim va tarbiyaga ajratilmoqda – bu katta miqdordagi mablag'dir. Masalan, respublikamizda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» doirasidagi ta'lim xarajatlari 1999-yili 159, 2 mlrd. so'm, 2000-yili 248, 8 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2001-yili 336, 1 mlrd. so'm sarflangan.

1997-yilda tashkil topgan «Umid» va boshqa jamg'armalarning ko'magida iqtidorli yoshlar rivojlangan davlatlardagi nufuzli o'quv markazlarida tahsil olmoqdalar. Yoshlar xorij hayotini ko'rib, xalqaro hayotiy tajriba ortirib, chet tillarini mukammal egallab,

zamonaviy bakalavrluk va magistrlik darajasiga respublikamizning turli bosqichdagi kadrlar xorijiy ta'lim markazlarida tajriba va malaka orttirib kelmoqdalar. Bunday yondashuvlar ham O'zbekiston ta'lim tizimining yorqin istiqboliga va uning mavqeini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda kelajagi buyuk davlatni qurish tafakkuri, dunyoqarashi zamon talablariga mos ravishda o'zgargan mutaxassislarimizga ko'p jihatdan bog'liqdir. Yangicha fikrlaydigan, yangi bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli xo'jalik yuritadigan yuksak malakali, chuqur bilimli mutaxassislarni tayyorlash davr talabi va haqiqat taqozosidir.

Kasb ta'limi muassasalarida axloqiy tarbiya muammosini amalga oshirish uchun qator muammolarni hal etishga e'tiborni qaratish kerak. Ular:

1. O'qitish jarayonini ilg'or pedagogik texnologiya va axborot texnologiyasi asosida uyushtirish;
2. Talaba va ustoz o'rtasidagi axloqiy hamda aqliy saviyani oshirishga erishish;
3. Ta'lim-tarbiya masalalarining qat'iy reja asosida olib borilishi;
4. O'quv muassasasida ijobiy emotsional sharoit yaratish;
5. Ta'lim oluvchilarning o'quv muassasasining umumiy tartib, hayot tizimiga rioya qilishiga erishishni ta'minlash.

Shunday qilib, yagona ta'lim-tarbiya jarayonida axloqiy tarbiya ishini amalga oshirishda suhbat, munozara, ma'ruza kabi metodlardan, axloqiy odatlarni esa mashq, turli faoliyatni uyushtirish orqali amalga oshirish mumkin.

“Avvalam bor oliy ta'lim haqida juda ko'p bahslar bo'lgan. Ba'zi akademiklar o'z akademiklik mavqelari uchun kasbiy tayyorgarlikni xo'rlashdek deb bilar edilar. Lekin, kasbiy amaliyot va ta'lim olayotganlar uchun katta mas'uliyatdir.

Shu nuqtai nazarda ta'limdagi ilg'or tajriba ko'p yillik mehnat samarasidir. Bu ta'lim jarayonini yutuqlarini belgilash va kamchiliklarini aniqlash maqsadida olib boriladigan doimiy nazoratga bog'liq. Ko'p yillar davomida AQSHda ta'limni baholash uslublari o'zgargan, chunki talabalar anketa so'rovlari umumiy tarzda edi.

Lekin Buyukbritaniya va Avstraliya universitetlarida baholash shakllantirish va rivojlantirishdan ustun turadi (sifat oshadi), va diqqat markazida komanda treninglari, va lektorlar turadi. Shuning uchun ko'p sohalarda turli bacholash sifatini amalga oshirish maqsadida 1980-yillardan boshlab ko'p urinishlar amalga oshirilib kelindi.

Mazmun motivatsiyasi

Kurslar va ularda o'qitish samaradorligi va natijaviyligini aniqlash uchun ko'p yo'llari mavjud. Yangi o'qituvchilar "Men hamma narsani to'g'ri qilayapmanmi?" deb bilishga harakat qiladilar. Ularning yangi o'qituvchi sifatida bo'sh va kuchli tomonlarini aniqlash uchun ularni darsini boshqa hamkasblari ishlari bilan solishtiriladi.

Kurs koordinatorlari kurslar qanday ishlayotgani, ularning muqimligi, yangi talabalar yaxshi jamlanayaptimi aniqlab turadilar. O'quv dasturlari bilan shug'ullanuvchi xodimlar undagi bloklar hajmini to'ldirib yangilab turadilar. Shu bilan birga tashqi aloqa ham amalga oshiriladi. Universitet ta'limini kasbiylashtirish shunga olib keldiki, tajribali o'qituvchilar dasturlarni hujjatlashtiradilar. Shu bilan birga sifat kafolati o'quv jarayonini doimiy monitoringini olib borish va modul va dasturlar tahlilini ta'minlaydi. Milliy Student Survey (NSS) markazi Cooke ma'ruzadagi tavsiyasiga asosan o'z bitiruvchilari uchun ma'lumotlarni ochiq va ommabop qildi. Ma'lum qilinishicha, Avstraliyada milliy universitetda olib borilgan ishlarga Britaniya universitetlari ikki usul javob qilishi mumkin:

NSS anketasi savollari tadqiqotida o'z aksini topdi.

Alohida fakultetlarida o'qitish sifatini yaxshilash uchun, unda NSS reytingi kutilgandan past bo'lgan."³⁴

Nazorat savollari:

1. Talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy odatlarini tarbiyalash haqida nimalarni bilasiz?

³⁴ A Handbook for Teaching and learning in higher education enhancing. Chapter: Evaluating courses and teaching, pages. 198-213

2. Sizningcha kasb ta'limi muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning asosiy mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?

3. Yoshlarni kasbga yo'naltirishda milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan ma'naviy-axloqiy ishlar nimalardan iborat?

4.4. Pedagogik muloqat tushunchasi. Pedagogik vaziyatlarning turlari

Ibtidoiy tizim davridan boshlab, kishilar ma'lum ijtimoiy munosabatlar asosida bir-birlari bilan aloqa qila boshlaganlar. Muloqot insonning mehnat faoliyatida eng muhim soha hisoblangan.

Bashqacha aytganda, muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

«Shaxslar faoliyatining motivatsiyasining asosi sifatida yo'zaga chikayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy — iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y-fikrlari, istaklarini yuzaga chikishga ham sabab bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir». (V.M.Karimova. Ijtimoiy psihologiya asoslari. Toshkent. 1994-yil. 35-bet). Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chikadigan turli faolliklari mobaynida bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

«Har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan faoliyatlari o'zaro munosabat va ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish, avvalo, odamlarning bir — birlari bilan til topishishni, bir — birlariga turli xil ma'lumotlarni o'zatishni, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffakkiyati, obrusi uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti davomida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psixolog B.F.Pargin shunday yozadi:

- a). individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b). individlar o'rtasidagi axborot almashinuv jarayoni;
- v). bir shaxsning bashqa shaxsga munosabat jarayoni;
- g). bir kishining bashqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d). bir-biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;
- ye). shaxslarning bir – birini tushunish jarayoni.

Muloqot o'z xususiyatlariga ko'ra turli shakl va ko'rinishlarga ega bo'ladi. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy- ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi. («Xalq ta'limi» jurnali, 2003-yil, 3 – son, 48 – bet).

O'qituvchi va o'quvchi, domla va talaba o'rtasidagi munosabat va muomala madaniyati ularning fe'l-atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'kimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasbidan, o'quvchisidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yukligini, oilaviy munosabatlarga daxldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi – yukligini yaxshi anglaydi. Muomala jarayonida suxbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuxratparastlik, manmanlik, befarqli, xasadgo'y, giybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi.

O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. (Biz o'z ishimizning bir mavzusini «O'qituvchi nutqi – pedagogik mahorat shartidir» deb nomlaganmiz, u mavzuga o'qituvchi nutqi haqida to'lik tafsilot berilgan. X.B.).

Chunki nutq va unda ifodalangan soʻz kishiga taʼsir etuvchi qudratli psihologik kuchga ega. Uni faqat oʻzining mazmuni bilan, balki soʻzlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham taʼsir darajasi va qudrati yanada ortishi mumkin.

«Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Ha» soʻzini aytishning 50 dan ortiq uslubi bor, «Yoʻq» soʻzini ham shuncha uslubi bor, ammo bu soʻzni yozishni faqat bir uslubi bor». (Xalq taʼlimi jurnali, 2003-yil, 3 – son, 49-bet).

Bu fikrning zamirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik koʻchirim maʼno yashiringan. Zotan oʻqituvchi muloqotining zamirida soʻz, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir oʻqituvchining saviyasi, maʼnaviy dunyosi, madaniyatiga bogʻliq. Bundan kelib chikadiki, oʻqituvchi oʻz muomalasida meʼyorni bilishi lozim.

Oʻqituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarda, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, ota-onalar bilan, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan boʻlsak, bugungi kunda oʻquvchi, talabalar feʼl- atvorini oʻrganish, ularning bir-birlariga mehr-muruvvatli boʻlishga oʻrgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish eng muhim, dolzarb vazifa boʻlib kelmoqda.

Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida oʻz ahamiyatini yuqotmagan. Atoqli adib B.Shou soʻzlari bilan aytgand: «Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni oʻrganib olgan boʻlsakda, bizga bir narsa – insonlardek yashashni oʻrganib olish yetishmaydi». Mashhur izquvar Sherlok Holms taʼkidlaganidek : «Har bir inson oʻz xususiyatiga koʻra hal etilmaydigan jumboq»dir. Kishilar xulqi, feʼl-atvori bilan bir-birlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi oʻxshashlik miqdori minimum foiz doimiy holatda saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashki turqi -- tarovatigina emas, balki ichki olami, masligi. Insoniy qiyofasi, hozirgi koʻrinishi va holatdagi yetib kelishi uzoq tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot natijasida esa kishilar oʻrtasidagi muloqot harada muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli oʻqituvchining muloqot

madaniyatida ham oqilola ehtiyojni anglab olish eng muhim vazifadir.

Muloqot shu darajada muhim ekan, biroq shaxslararo muloqotga hech kim, hech kayerda maxsus o'rgatilmaydi.

O'qituvchining ish faoliyati davomida o'quvchilar bilan muomala – munosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini egallab oladi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga bolaning muomalasiga, axloqiga, xulqiga nisbatan alohida, katta talablar quyilgan.

O'qituvchi hayotga endigina qadam quyayotgan bolalar bilan doimo muloqotda bo'ladi. Bolalar o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlarini o'zlashtiradilar. O'quvchi muomala odobini, muloqot olib borish yo'lini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi.

Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bo'lib qolmaydi. O'zining qo'pol muomalasi bilan o'quvchini o'qishdan sovitib, dilini ranjitadigan o'qituvchilar ham ahyon-ahyonda uchrab turadi, albatta. Hayotda, amaliyotda bunga ko'plab misollar topiladi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' ortira olmaydilar.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning xulqini, muomalasini, bola bajargan ishini odilona to'g'ri baholashdir. Xulqi, muomalasida esa bolaning biror kishi yoki narsaga munosabati ham ifodalanadi.

Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashkari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashkari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida u ishlarni xususiyati va bajarish jarayoni, natijasi haqida tuliq tushuntirishiga bog'liqdir.

Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishiga to'g'ri keladi:

O‘z ishi jarayonida o‘qituvchi har bir o‘quvchining kadr – kimmatini inson sifatida hurmat qilishi, o‘quvchiga nisbatan ishonch;

Bolaga mehribon, g‘amxo‘r bo‘lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo‘lish;

Bolalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik takti saklash.

O‘qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Muallimlik kasbi shunday sharaflı, ishonchli va olijanob kasblardan bo‘lganligi uchun ham Milliy dasturdan, ta‘lim to‘g‘risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab o‘quvchilari, o‘quv yurtlarining pedagog hodimlari, professor o‘qituvchilari bajaradilar. Shuning uchun ham «Qonun»da pedagog xodimlar o‘zlarining kasb-kor sha‘ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o‘quvchi va talaba, o‘qituvchi – o‘quvchi shaxsning qadr-qimmatini hurmatlashlari; ularni mehnatga, qonunlarga, ota-onalar va xotin-qizlarga, ma‘naviy-tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashlari, o‘zlarining butun faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga, xaqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va bashqa xayrli xislatlarga nisbatan xurmatni qaror toptirishlari; o‘sib – ulg‘ayib kelayotgan avlodni bir – birini tushunish, xalqlar o‘rtasida, shuningdek barcha elatlar, millatlar va diniy guruhlar o‘rtasida tinchlik, axil – inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozim.

Pedagogik mahorat fani o‘qituvchisining maqsadlaridan biri – komil insonni o‘qitish va tarbiyalash natijasidir.

Komil inson g‘oyasi - ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatga ega bo‘lgan g‘oyadir. Odamzodga xos eng yuksak ma‘naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezigulikka undaydigan olijanob g‘oyadir.

O‘qituvchiga ishonib topshirilgan bu vazifa nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularning ma‘rifat va madaniyat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu – orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan.

Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbim, olam uyidin Senga farz o'lmagay g'amnok chiqmoq, Jahondin notamom o'tmaq biaynih. Erur hammomdin nopok chiqmoq», degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi.

Shuning uchun ham yangilanayotgan jamiyatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya dasturini tubdan islox qilish, ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanish, o'qituvchi faoliyatidagi ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Ta'lim berish mahorati pedagogga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan quyidagi bosh (dominant) omillar bilan aniqlanadi:

- qo'llab-quvvatlash va o'quv jarayoni muhiti;
 - pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
 - fanni chuqur bilishi, kasbiy emilkorlik va erudiqiya;
 - yangi pedagogik va kompyuter texnologiyalarni bilish;
 - kasbiy axborot manbaalari sifatida chet tillarini bilish;
 - yangi uslubiy va bilim manbaasi sifatida ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;
 - uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarini bilish;
 - o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning moddiy texnika bazasi bilan bog'liq bo'lgan axborot bazasi va resurslari.
- Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma'naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqiy, vatanparvarlik va burch (hislar)iga asoslanadi. Ta'lim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, ma'naviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o'zi gumanitar va gumanistik ruhda tarbiyalangan hamda o'quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo'lishi shart.

Pedagogning o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy; fazilatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va xayrixohlik, kirishimlilik va hazil-mutoiba hissi. Ushbu fazilatlar pedagogning ta'lim oluvchilar oldida obro'sini belgilaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlarini uning ta'lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini reyting asosida baholash va nazorat qilish mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta'lim: berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog'liq.

Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlarini obyektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting-nazoratda qo'llay olishi, hamda standart testlarni ishlab chiqarish va qo'llay olish bo'lishi lozim.

Oliy ta'lim-mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishni ta'minlovchi, uzluksiz ta'limning zamonaviy talablariga javob beradigan, o'zi tanlagan bilimlar sohasi yo'nalishi (ixtisosligi) bo'yicha ijodiy faoliyatiga tayyor, respublikaning ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlashga qodir, yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlarga ega, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni amalga oshiruvchi mustaqil ta'lim turidir. Oliy ta'limning kasbiy-ta'lim dasturlarini o'zlashtirish o'rta maxsus kasb-hunar ta'limidan keyin, ular negizida amalga oshiriladi. Oliy ta'lim auditoriya mashg'ulotlari auditoriyadan tashqari (o'ziga tayyorlanish), mustaqil bilim olish va eksternet shakllarda tashkil qilinadi.

Oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Oliy maktabdagi ta'lim o'rta (o'rta maxsus) ma'lumot negizida amalga oshiriladi va muayyan mutaxassislik (yo'nalish) ga ;yo'naltirilgan bo'ladi.

2. Oliy maktabdagi ta'lim didaktik jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'zaro bog'liq holda olib boriladi.

3. Oliy maktabdagi jarayon o'ziga xos shakl va metodlarda olib boriladi.

Bu jarayonni modellashtirish umumiy didaktik va o'qitishning bu pog'onasi didaktikasi muammolari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim o'rta (o'rta maxsus) negiziga asoslanadi hamda ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichiga ega.

Oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgarishlar o'tkazish boshqaruvni takomillashtirish, ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalar, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalanilgan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirilishi, xalqning boy ma'naviy va intellektual meros yo'nalishini ta'minlash.

Ishlab chiqarishning talab va ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantirishda, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning muvoziy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Pedagog kadrlarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi malakasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish, o'zaro integratsiyalangan ta'lim muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar, apparatlar bilan jihozlash.

Mazkur vazifani muvaffaqiyatli hal qilishda muxandis-pedagoglarning fan va texnika sohasidagi yutuqlaridan muttasil foydalana bilishlari, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish ta'limi tajribalarini tadbiq, eta olishlari katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni hal qilishda "Sohaga kirish" o'quv kursi katta ahamiyatga ega.

Metodik ishlarning maqsadi ishlarining sifatini yaxshilash, o'qituvchining rejasi va dasturlariga to'liq amal qilib, dars o'tishlariga erishish ilg'or tajribalarni o'rganish, ulardan foydalanish, o'qituvchilarni fan, madaniyat sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirishga qaratilgandir. Metod birlashmalarida yangi zamonaviy metodlardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi, ochiq darslar o'tkaziladi, ilg'or o'qituvchilarning ta'lim-

tarbiya sohasidagi tajribalari o'rganiladi. Ba'zi matnlarni o'tish rejalari va o'qituvchilarning rejalari, konspektlari muhokama qilinadi; Metodik ishlarning rejasida quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. O'quv dasturi asosida o'tiladigan darslarning mavzutikasini, rejasi, ma'ruza-matnlarni tuzish, muhokama qilish va tasdiqlash.

2. Ko'rsatmali materiallarni tayyorlash.

3. O'tkazilgan ochiq darslar mavzutikasini va kuzatilgan darslarni muhokama qilish.

4. Fandagi yangiliklar ma'naviyat va mafkura, ta'lim-tarbiya sohasida ilg'or ilmiy tajribalar to'g'risida ma'ruzalar qilish.

5 Seminar, laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishni muhokama qilish.

6. Semestr davomida o'tkaziladigan joriy nazorat, oraliq baholash va yakuniy baholash o'tkazish, kurs isbi, kurs loyihalash, diplom ishlari kabi ishlar metodik ish rejasiga kirgiziladi.

Endi o'qitish metodikasini ko'rib chiqamiz.

Metodika -- metod va usullarning yig'indisidan iborat bo'lib, qandaydir harakatni amalda bajarilishidir. O'qitish metodikasida u yoki bu fanni o'rganish haqida tushuniladi. Adabiyotlarda shunday so'z talqini uchraydi "O'qitish metodikasi", "O'rganish metodikasi". Bu ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir. Chunki o'qitish-bu o'rgatilganni faoliyatini, o'rgatish esa-ularni birgalikdagi faoliyatidir. O'qitish metodikasining metodologik asoslari bilim nazariyasi bo'lib, umumiy qonuniyatlarni, inson atrofida sodir bo'layotgan, uni o'rab turgan dunyo shakli va metodlarni o'rganadi.

O'qitish metodikasi o'quv fani sifatida bo'lg'usi muxandis-pedagogga quyidagini tushuntirish kerak:

Qanday va nimaga o'qitish, qanday ketma-ketlikda va nimaga endi shunday o'qitiladi, boshqacha emas?" U nafaqat metodlarning bilim ta'lim mazmunini, o'qitilayotgan fanlar majmuasini o'z ichiga oladi. O'qitish metodikasi fani maxsus va ishlab chiqarish ta'limi fanlari kasb-hunar maktablari va kollejlarda o'qitiladigan predmetlarni bir butun guruhlar sifatida birlashtiradi.

"Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish" o'quv kursida talabalarga mutaxassislik fanlarini ishlab chiqarishiga tadbiiq

etilgan holda o'quvchilarga o'qitish metodlarini o'rgatishdan iborat. O'quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni olib borish, mutaxassislikka bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va qobiliyatlarini rivojlantirish kasb-hunar kolleji o'quv dasturlari hamda hujjatlarni to'g'ri yuritish kabi muammolarni yechishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur haqida gapirganlarida "Har tomonlama yetuk yuqori malakali kadrlar tayyorlash dasturimizning asosiy sharti bo'lishi kerak" degan edi. Faqat shunday kadrlar ta'lim, ilm-fan va ishlab-chiqarishning, umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oydinlashtiradilar, belgilaydilar.

Intellectual hamda sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'lim tizimining bosh maqsadi – bu raqobatbardosh tovarlar yetishtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali raqobatga kodir xizmatlarni ko'rsatishdir. Bu mamlakatlarda kasbiy ta'limning iqtisodiy xizmatlari jamiyat taraqqiyotida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori malakali kadr tayyorlashda ta'lim, ilm-fan va ishlab-chiqarish qay darajada o'zaro bog'langan, o'zaro hamkorlikka erishgan bo'lsa, professional ta'limdan foyda shunchalik ko'p bo'ladi.

AQSH, Frantsiya, Yaponiya kabi intellektual va sanoati rivojlangan bir qator davlatlar tajribasining taxlili ko'rsatishicha barcha pog'onalarda yetishtiriladigan kadrlar raqobatbardoshligi va kadrlar tayyorlashning sifati:

- ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zviy bog'langanligi;
- fan-texnika, texnologiya va iqtisodiyot borasidagi erishilgan eng so'nggi yutuqlarga asoslanib ishlab chiqilgan kasbiy ta'lim dasturlari hamda ta'lim muassasalari turlarining rang-barangligi;
- professional ta'lim tizimini iqtisodiyotning ustuvor va foyda keltiruvchi tarmog'iga yo'z o'g'irganligi, asoslanganligi;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlari hamda moddiy-texnikaviy bazasi bilan ta'minlanganligi;
- professional ta'lim tizimiga yuqori malakali o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb kilinganligi;

– ta’lim jarayonining informatiyalashtirilganligi va kompyuterlashtirilganligi;

– kadrlar tayorlash sifatini xolisona baholash va nazorat qilish tizimining qo‘llanilganligi;

– intellektni o‘lchash va baholash, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni o‘lchash va baholash, ularning o‘sishi muammolari bo‘yicha, shuningdek kasbga yo‘naltirish muammolari bo‘yicha psixologik – pedagogik izlanishlar, tadqiqot ishlarining bajarilganligi;

Xorijiy mamlakatlar va Respublikamiz tajribasidan kelib chiquvchi fikr-mulohazalar va xulosalar hamda yuqorida zikr etilganlar, O‘zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan isloxotlar siyosatining beshta tamoyili kadrlar tayorlash Milliy dasturiga asos qilib olingan.

Kadrlar hayotiy tsiklining uchta asosiy bosqichida ularning malakasi yuqori bo‘lishini ta’minlashga kompleks yondoshish Milliy dastur strategiyasining negizida yotadi.

Birinchi bosqichda kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj bashorat qilinadi va shaxs, jamiyat va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muayyan talablar aniqlanadi. Bunda oldindan aniqlanuvchi ildam malaka saviyasi o‘rganiladi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi. Bunda urnatilgan malaka saviyasi ta’minlanadi.

Va nihoyat, uchinchi bosqichda kadrlardan kasbiy faoliyati doirasida foydalanish bilan bog‘liq bosqichda ta’minlangan malaka saviyasi qo‘shimcha kasbiy ta’lim (yoki o‘zi mustaqil bilim olish) mikyosida davriy ravishda yangilanishi va ortib borishi kerak bo‘ladi.

1. Birinchi maqsadlaridan biri to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganish.. Qat’iyatlik bo‘lmaslik kerak va o‘ylamasdan qabul qilingan qarorlardan qochish zarur. Sanitar ma’orif jarayoni yangi talab etilayotgan xulq va odatlarga negizida emas, bu yaxshi o‘ylab topilgan masalani yechimiga olib keladi.

2. Xatti-harakatni o‘zgartirish uchun, sabab yoki dalil kelitirish uchun yetarli darajada bilish zarur. Shuni tasdiqlash kerakki bu sizning istaklaringizni amalga oshishiga avtomatik tarzda olib

kelmaydi. Faqat istak bo'lishi yetarli emas. To'sqinliklar bilan hamkorlik qilish zarur, chunki ularni oldini olish va yengib o'tishda ko'rnak beradi.

4. Hech qanday xatti-harakat ma'nosiz emas. Har doim "yaxshi" sabab yoki vajlar bor, qaysiki salomatlikni va to'sqinlik qiluvchi xatti-harakat larni yaxshilaydi. Har bir xatti-harakat xavfining o'z asl sababi mavjud. Boshqalarga yordam berib xavfning sababini, sharti va muxokamasi, uning tadbiqu ijobiy o'zgarishga olib keladi.

5. O'z-o'zini past baholash – ishtiyoqning manbasi hisoblanadi. Ishtiyoqni bartaraf etish o'zimiz tomonidan uqtiriladi va kamsitilishidan ogohlantiriladi.

6. Xatti-harakat ning ish holatida yangi yordam berish yo'llarini o'rganilmoqda, agar biz ko'radigan bo'lsak buni jamiyat ham qo'llab-quvvatlaydi. Nisbatan ijtimoiy muhit va turli xil fikrlar bo'g'ini, xatti-harakat ning bir xil turlarini tartibga solib bo'lmasligini ta'kidlaydi.³⁵

Nazorat savollari:

1. Pedagogik muloqot va uning ahamiyati haqida tushuncha?
2. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala odobi haqida nimalarni bilasiz?
3. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish yo'llari nimalardan iborat?
4. Pedagogik vaziyatlarning turlari nimalardan iborat?

³⁵ [www.sciencedirect.com/science/article/pii..](http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0890406505000000) Teacher's self-concept and self-esteem in pedagogical Communication Galina Glotovaa*, Angelika Wilhelm

V-BOB. SHAXSNING PEDAGOGIK QOBILIYATI. O'QITUVCHI MUVAFFAQQIYATI. O'QITUVCHINING KASB-TA'LIMDA ROLI VA O'RNI

5.1. O'qituvchining kasbiy sifati. Shaxsning pedagogik qobiliyati va unga tavsif

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi.

Bir-biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o'qituvchiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlari;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k.

Umumlashtirilgan modelning doirasidagi malakaviy zamon talablari pedagog «qiyofa»sini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun ta'lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muhit), kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar ustuvor bo'lgan va xalq xo'jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta'lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog'liq bo'ladi.

Kadrlarning yangi avlodini tayyorlash muammosining samarali yechimi, birinchi navbatda, hozirgi kun talablariga javob bera oladigan psixologiya, pedagogika, iqtisodiyot, ekologik madaniyat, huquqshunoslik va shunga o'xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqur biladigan professional malakaga ega bo'lgan har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan bog'liqdir.

Olib borilgan kuzatishlar va AQSH, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa sanoati hamda intellektual bilimlari rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatib turibdiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog'liq bo'lar ekan:

– ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro samarali aloqadorligiga;

– ta'lim muassasalari va professional ta'lim dasturlari turlarining (tiplarining) xilma-xilligi, ularda fan va texnikaning eng oxirgi yutuqlari, iqtisodiyot va texnologiyalarning eng yuqori andozalari va ko'rinishlari qay darajada aks ettirilganligiga;

– professional ta'lim tizimini ustuvor va foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqqa aylantirishga;

– ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash va ularning moddiy-texnik asosini yaratish hamda ularning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlashga;

– professional ta'lim tizimiga eng yuqori malakali o'qituvchilarni va mutaxassislarni jalb etishga;

– o'quv jarayonini informatizatsiyalash va komp-yuterlashtirishga;

– kadrlarni tayyorlashning sifat bahosini va obyektiv nazorat tizimini qo'llashga;

– shaxsning rivojlanishi, o'lchovi, sifat va xulqini, qobiliyat va intellektini baholash hamda kasbiy mahorati muammolariga bag'ishlangan psixologik-pedagogik izlanishlarni bajarishga;

– o'qituvchilarni yuqori darajada moddiy rag'batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun mutaxassisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi intellektga ega bo'lgan, fan asoslarini chuqur o'rgangan bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma'rifatli va ma'naviyatli inson bo'lishi kerak. U o'z mutaxassisligi, masalan, iqtisodchilikdan tashqari, xorijiy tillardan birini bilishi hamda AKT dan foydalana olishi shart.

Zamonaviy pedagog yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqur biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyanob kishi bo'lishi kerak.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Shunday ekan, o'qituvchilik katta san'atdir. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilgor tajribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rinadi. Chunki o'quv mashg'ulotlari o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra o'qituvchining o'quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy-g'oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo'lishi, turmush bilan, o'quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo'lishi zarur.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi yoki talabalar o'rtasida o'zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadga erishishda yaqin hamkorlik lozim. Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so'z va quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lgan, rasmiyat uchun yuzaki o'tkaziladigan dars (ma'ruza) va boshqa o'quv mashg'ulotlari o'quvchi talabalarni qiziqitirmaydi, ularni

ilmiy, g'oyaviy jihatdan yetarli oziqlantirmaydi. Shu sababli, o'quv mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta'sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Ta'lim va tarbiya jarayoni ta'sirchanligining yanada yuksak bo'lishi o'qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o'quvchi yoki talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatiga bog'liqdir.

Zamon talablari professor-o'qituvchilarning o'zlarida mavjud bo'lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o'rganib, mag'zini chaqib, undan keyin o'z talabalariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog'liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deb ta'kidlanadi Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro' orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o'z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi zarur.

O'qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritar ekanmiz, uning ongligiga, milliy g'oya va mafkuraga sodiqligiga, bilish va fikr doiralarining kengligiga, o'z vazifasiga munosabatiga e'tibor bermok kerak. Ayniqsa, pedagogik mahorat bobida o'qituvchining fikr doirasi keng bo'lish zarurligini alohida hisobga olish lozim. Chunki kishida bilim va fikr mukammal bo'lmasa, u kamolotga erisha olmaydi. Darhaqiqat, kishi u yoki bu masalani, albatta fikr orqali hal etadi. Shuning uchun, pedagogik mahorat sohibi bo'lishga intilgan kishi, shubhasiz, o'z bilimini doimo kengaytirishi, o'zining o'quvchi yoki talabaga ma'naviy-axloqiy

ta'sir etuvchi g'oya va fikrlarini yangilab borishi zarur. Buning uchun u ko'p o'qishi va o'rganishi lozim. O'qituvchining pedagogik mahoratiga baho berishda uning ta'limni qay darajada tashkil qila bilishi muhim ahamiyatga egadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida dars va boshqa turdagi barcha o'quv mashg'ulotlarini mukammal tashkil qilish-o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlar ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e'tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'qituvchining ilmiy saviyasi uning o'z burchiga munosabati, yoshlarga murabbiylik ishtiyoqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatli dars bera olishida ko'rinadi. Fan o'qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdagi mashg'ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san'atini mukammal egallagan o'qituvchi uyushtirgan o'quv mashg'uloti chuqur bilim berish vositasi bo'lishi bilan birga mustaqil O'zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo'lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi, jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo'lish uchun nimalar qilish zarurligini ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, birinchi navbatda, yoshlarimiz o'z murabbiylari darsidan har jihatdan mamnun bo'lsinlar. Ularda romantik orzular uyg'onsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o'qish-o'rganish va mehnatga havas kuchaysin. Ular o'quv mashg'ulotidan so'ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma'naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Ta'limning mazmundor, qiziqarli va tushunarli bo'lishi ustoz bilan shogirdlarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog'laydi, ular o'rtasidagi samimiy hurmat va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o'qituvchi, avvalo, o'z fanini va uni o'qitishning metod, usul va vositalarini mukammal o'zlashtirib olishi, o'qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligiga erishishi, o'z shogirdlariga hurmat va muhabbat ifoda eta olishi, ularni hayotga qiziqtirishi va ularning ruhiy holatlarni bilishi va tushunishi, bosiqlik bilan o'z his-tuyg'ularini boshqara

olishi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish madaniyati bo‘yicha ibrat bo‘lishi, nutq madaniyatining yuqoriligi va ijtimoiy faolligi, ayniqsa, omma o‘rtasida ilmiy-ma‘rifiy va ma‘naviy-madaniy ishlarning targ‘ibotchisi bo‘lishi lozim.

Shundagina mamlakatimizning kelajagi bo‘lgan o‘quvchi yoshlarimiz o‘z murabbiylarining nomini zo‘r ehtirom, chuqur minnatdorchilik bilan tilga oladilar. Buning uchun har bir o‘qituvchi O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunida ko‘rsatilganidek, o‘z fanlari bo‘yicha tegishli ma‘lumot egasi, yuksak kasbiy tayyorgarlik va yuqori axloqiy fazilatlar sohibi bo‘lishi kerak.

Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi-o‘qituvchilik va murabbiylikdir”, – deganida O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov haq fikrni ifodalagan edi. G‘azal mulkingning sultoni, ikki daryo bo‘yidagi zahmatkash xalqini yakqalam qilgan A.Navoiy ranj ila bir harf o‘rgatgan ustozlar xizmatini yuz ganj ila ado etib bo‘lmasligini yozgan va hayotda o‘z ustozini mavlono Lutfiyga bo‘lgan ehtiromida uning amaliy isbotini namoyon etgan. Shu boisdan, azal-azaldan bu kasb juda e‘zozli hisoblangan. Ta‘lim-tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyat ularning faol ishtirokchisi-o‘qituvchi shaxsiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish va respublika ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta‘minlash ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma‘naviy qiyofasi hamda ularning kasbiy mahoratlariga ham bog‘liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab va qiyin faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilganidir. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o‘zining ma‘naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a‘zolari o‘rtasida yuksak xurmat-ehtiromga sazovor bo‘lgan kishilar, donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgan. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi va mazmuni

nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikri ibratlidir: " – Tarbiyachining o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib o'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. ...O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz, ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.

Maktablardagi jarayonlarda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: "Mening aytganim aytgan, deganim degan".

O'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi majburiy itoatkorlik o'rini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz".

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi lozim?

O'qituvchi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik ma'lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi 7-bandiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan ma'n etilgan shaxslarning ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

✓ O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni berib borishi lozim.

✓ Zamonaviy o'qituvchi ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

✓ O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi lozim.

✓ O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

✓ O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va boshqalardan umumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i darkor.

✓ O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo'lishi shart.

✓ O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi, kommunikativlik layoqatiga ega bo'lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari (mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

✓ O'qituvchi yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi bir qator sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

✓ O'qituvchi kiyinish madaniyatiga (sodda, ozoda va bejirim kiyinish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning diqqatini ko'p jalb etuvchi turli xil bezaklar (qimmatbaho taqinchoqlar va yorqin rangli pardoz-andoz vositalari)dan ortiqcha va o'rinsiz foydalanmaslik, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishga odatlanish kabilar) ega bo'lishi lozim.

✓ O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofda qilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

✓ O'qituvchi shaxsining mazkur talablarni o'zida aks ettira olgan ichki va tashqi qiyofasi uning o'quvchilar va hamkasblari hamda ota-onalar o'rtasida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ikki muhim ko'rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy

aloqadordir. Uning kasbiy talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda.

“Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir”, – degan shior kun tartibiga o‘rnili kiritilgan mustaqillik yillarida bu masalaning yechimi o‘qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo‘lib qoldi. Boisi, o‘qituvchi tajriba va malakasining uyg‘unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. O‘qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo‘lishi lozimligini mazkur darslik epigrafidagi buyuk nemis pedagogining fikri ham tasdiqlaydi.

Ta‘lim tizimini insonparvarlashtirish (gumanizatsiyalash) muammosi kun tartibiga qo‘yilgan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik jihati oldingi o‘ringa chiqdi.

O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya’ni sahovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma’naviy poklik qanoatlilik, rostgo‘ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshlilik, muloyimlik va boshqalardir.

O‘qituvchining kasbiy fazilatlari: o‘z sohasining puxta bilimdoni bo‘lish, hunar sirlarini sodda usulda o‘rtaga olish, hayotiy tajribalari asosida tarbiyalovchilik, shogirdlar ehtiyojlari va yutuq-kamchiliklarini idrok eta oluvchanlik, nutq madaniyatiga ega bo‘lish, shaxsiy namuna bo‘la olishlik va shu kabilardir.

Shogirdlik odobi bo‘yicha quyidagicha mezonlar qayd qilinadi: “Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin”.

1) avvalo: o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish; 2) o‘z ishiga e’tiqod qo‘yish va unga ishonish;

3) ustoz oldida xokisor bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish; 4) ko‘rish (nojoiz) lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish;

5) eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; 6) barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish;

7) ustoziga qarshi bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Ana shu kesimlarda o‘qituvchi va o‘rganuvchi o‘rtasidagi dialektik munosabat to‘laqonli amalga oshiriladi.

O'qituvchidan birinchi navbatda quyidagilar talab qilinadi:

1. Jismoniy va aqliy salomatlik.
2. Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
3. Kuchli va keng qamrovli poyindor bilim.
4. Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
5. Nutq madaniyati, notiqlik san'ati va imlo savodxonligi.
6. Muttasil o'z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar.

Odatda, ko'pchilik o'qituvchilar shaxsni o'rgatish va tarbiyalashdagi vazifasini o'z o'quv fani doirasida o'quvchini tegishli bilim va ko'nikma hamda malakalar bilan qurollantirish, ularda tahlil qilish, umumlashtirish va qiyoslash sifatlarini shakllantirishda ko'radilar. Vaholanki, o'qituvchining mehnati va uning pedagogik faoliyati keng qamrovlidir. U o'qitishning uchta muhim ijtimoiy funksiyasi-ta'lim berish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq vazifalarini bajarishga mas'uldir. Biroq oliy pedagogika o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlar o'qituvchining amalga oshiradigan amaliy-pedagogik faoliyati bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Bu fikrni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashni ko'zda tutib o'quv rejasiga kiritilgan mashg'ulotlar aksariyatining mazmuni aynan o'qituvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vaziyat o'qituvchining malakali mutaxassis sifatida shakllantirilishida ijobiy ta'sirga ega bo'lsada, uning kasbiy-pedagogik faoliyatida bevosita qo'llay oladigan ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash metodlarini egallashiga xizmat qilmaydi;

Ikkinchidan, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodkorlik tushunchasi ma'lum bir cheklangan ma'noda, odatda texnik ijodkorlikni amalga oshirish va boshqarishga tayyorlash ma'nosida talqin qilinadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarish jarayonida shakllantiriladigan shaxsda esa nafaqat texnik yoki badiiy ijodkorlik bilan bog'liq, balki yanada chuqurroq bilimlarni talab qiluvchi tadqiqotchilik ijodkorligini shakllantirish lozim bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari haqida tushuncha?
2. O'qituvchining pedagogik mahorati haqida nimalarni bilasiz?
3. Shaxsni tarbiyalashda o'qituvchining roli va o'rni?

5.2. Kasbiy o'sish. Kasbiy faoliyatga kirishda o'qituvchining kreativligining o'ziga xos xususiyati

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun har bir o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodiylik, mustaqil fikrlay olish, yechimlarning yangi, andozasiz yondashuvlarni talab qiladi. Maktabdagi dars pedagogik ijodkorlikning bosh plasdarmi hisoblanadi. Darsda o'qituvchining asosiy ehtiyoji: uzatish, berish, o'rgatish amalga oshiriladi. Yosh avlodga o'z bilim va tajribalarini uzatish jarayonida o'qituvchi o'z ijodkorligini namoyon qiladi.

Dars ishlarida an'anaviy metodika bo'yicha ko'plab kamchiliklar haligacha yo'qolgani yo'q. Masalan, dars o'tish jarayonida ma'nosini anglamay, yod olish elementlari haligacha saqlangan. Ko'pchilik o'qituvchilar hozirgi zamon iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotni yorita borib, yetilib qolgan muammolarni tahlil qilishga e'tibor berishmaydi, balki o'quvchida materialning eng muhim joylarini yodlab olishni talab etadilar.

Bunday dars berishdan qochish kerak. O'quv jarayonini tashkil etishga yangicha sifat yondashuvi kerak. Shuning uchun maktabdagi formapizmni bartaraf etishga qaratilgan yangi g'oyalar, konstruktiv holatlar pedagogik jamoatchilik tomonidan katta e'tibor bilan kutib olinmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, pedagogik hamkorlik haqida aytish o'rinli. Bunday pedagogik hamkorlikning mualliflari o'qituvchi-novatorlar V. F. Shatalov, ye. N. Lisenkova, P. I. Volkov, M. P. Shetinin va boshqalar haqida gapirish mumkin. Pedagogik hamkorlik metodikasiga tayanib ishlansa, ancha yengil bo'ladi. Bu yerda o'qituvchi hotirjam, bolalar ham xotirjam, o'zaro ishonch, ularga yengil, o'qituvchi ham xursand.

Zamonaviy ta'lim qaysi sohada bo'lmasin insonga o'zi va uni o'rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, yashashni o'rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqqan holda bilim olish – bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim muhim rol o'ynaydi. Istalgan davlatni tezlikda rivojlanishi asosiy va inkor etib bo'lmaydigan intellektual imkoniyatlar ta'lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshadi.

Fuqarolarning savodxonligini oshirish orqali davlat iqtisodiyoti va jamiyatda yashash tarzi darajasini yuksaltiradi, rivojlanayotgan texnologiyalar esa oliy ta'limni jahon bozorlarida naqadar zarurligini ko'rsatadi.

Kreativlik kundalik professional faoliyatga ko'proq kiradi va nafaqat yakka tartibdagi korxonalarining, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyatning ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'yilgan vazifaga faqatgina kreativ ta'lim metodikasini maqsadli adekvat (mos, o'xshash) holda olib borish bilan erishish mumkin, bunda pedagogik jarayonning har bir ishtirokchisiga yangi bilimlarni tushuntirish, yaratish va undan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishga imkon beradi.

Aynan shuning uchun ham so'nggi yillarda kreativ ta'limni kreativ rivojlanish shakli sifatida tadqiqotchi-pedagoglar tomonidan faol o'rganilib kelinmoqda.

Ma'lumki, dastlab psixologiyaga "kreativlik" (creativity) atamasini 1922-yil Rey M.Simpson «American Journal of Psychology» jurnalida amerikalik maktab va kollej o'quvchilarini kreativ fikrlashini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqot ishida bergan.

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy

bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi – «Ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi», «Ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik».

"Kreativlik" va "ta'lim olish" tushunchalarini umumlashtirib, biz "kreativ ta'lim" tushunchasini quyidagicha ta'riflaymiz: bu shunday ta'lim turiki, pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagoglarni o'zini fanini yaxshi bilishi va o'quvchilarga yetarli darajada yetkazib bera olsa bo'ldi, fikr yuritishni esa vaqtlar o'tib o'zi o'rganib oladi, degan fikr yaqin vaqtlargacha ham bor edi, lekin haqiqiy amaliyot shundan dalolat beradiki, bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi.

Bugungi kunda o'quvchi o'z ijodini anglash va assimilyatsiya qilishdan ko'ra, o'z davrining ko'p qismini, shu jumladan o'z mustaqil ishlarini internetdan qidirish va yuklab olish uchun o'tkazadi. Kreativ ta'limning mohiyati shundaki, o'quv jarayoni nafaqat barcha o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarni oshkor qilish orqali bilish jarayonida ishtirok etishi bilan emas, balki ular o'zlari bilgan, o'ylagan, bajara oladigan narsalarni tushunish va aks ettirish imkoniyatiga egadirlar.

Bilish jarayonida kreativ hamkorlik faoliyati yangiliklarni o'zlashtirish, ya'ni har bir o'quvchi bu jarayonga o'zining o'zgacha inividual hissasini qo'shadi, faoliyatning usuli, g'oyasi, ilmi bilan almashinuvi natijasida yangi g'oyalar, yangi bilimlar va yangi munosabatlar paydo bo'ladi.

Kreativ ta'limning mohiyati haqida batafsilroq ma'lumot olish uchun keling an'anaviy va kreativ ta'limning qiyosiy tahlilini keltiramiz (1-jadval).

An'anaviy va kreativ ta'limni taqqoslash bilan asosiy farqni ajratishi mumkin: an'anaviy o'rganish talabalarning aql-idrokiga

ta'sir qiladi va kreativ ta'lim esa ta'lim oluvchining shaxsiga ta'sir qiladi – uning fikrlari, his-tuyg'ulari, bilimlari, innovatsion jamiyatda faol hayot uchun qiziqish va hohish uyg'otadi. (1-jadval).

1-jadval

An'anaviy va kreativ ta'limning qiyosiy tahlili

Mezonlari	An'anaviy ta'lim	Kreativ ta'lim
Ta'lim maqsadi	Bilim va nazariya bilan o'rtoqlashish	Talabalarning faol pozitsiyasini shakllantirish
O'qituvchi faoliyati	Aktiv, bilim berishga yo'naltirilgan	Faol, talabalarning ijodini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan
Ta'lim shakllari	Frontal	Guruhli va invidual
Ta'lim metodlari	Og'zaki, ko'rgazmali	Muammoli, proektli, tadqiqotli
Ta'lim vositalari	Darslik va o'quv qo'llanmalar	Informatsion-kommunikatsion texnologiyalar
Faoliyatni baholash	O'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi	O'z-o'zini nazorat qilish va baholash

Kreativ ta'lim o'quv jarayoniga ta'lim oluvchini yuqori darajada qamrab olish bilan xarakterlanadi, ya'ni ularning qo'yilgan vazifani yechishga ijod qilish va anglash faoliyatini faollashtiradi. Kreativ ta'limni fikrni faollashtirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim oluvchini o'z hohishiga qaramasdan uzoq vaqt davomida faol bo'lishga majburligi, o'quv tadqiqot jarayoniga jalb qilinishi, ijodiy tomondan mustaqil fikr qabul qilishi, yuqori darajadagi motivatsiya va emotsionallikka ega bo'lish bilan farqlanadi.

Kreativlikni rivojlantirish uchun mashg'ulotlarni interfaol turlaridan, kreativlikni rivojlantirish metodlaridan va ijodiy ta'lim muhitini yaratish uchun dizayn-fikrlashdan foydalanish lozim. Bunday muhit qulay vaziyat, har qanday ijodiy mahsulotni qabul qilish, rag'batlantirish bilan xarakterlanadi. Bunday kreativ ta'limda asosiy o'rinni informatika o'qituvchilari guruhi egallaydi, ular o'z qiziqishlarini muhokama qilish, muhokamalarda ishtirok etish, bayonot va hatti-harakatlarda bir-birlarini rag'batlantirish va faollashtirish kabi faoliyatni amalga oshiradilar. Fikrlash orqali, shaxs o'z harakatlarini tahlil qiladi (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz). Bunda o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlari aks ettirilgan. Quyidagi kabi savollar berishni tavsiya qilamiz: nima qildingiz(natija)? Qanday qilib buni qildingiz (texnika, vositalar, usullar, texnologiyalar)? Muammoni hal qilishda qanday qiyinchiliklar paydo bo'ldi? Eng yaxshisi nima bo'ldi? Sizning fikringizcha, o'qituvchining yordamidan iborat bo'lishi kerakmi? Muammoni yechishda qanday yangi narsalar oldingiz? Muammoning mazmuni va yechimi sizning professional manfaatlaringiz va imkoniyatlaringizga mos keladimi? Fikrlash yordamida ta'sirning qanchalik izchil, maqsadga muvofiq va samarali ekanligi va oldindan rejalashtirilgan natijaga qanchalik erishilganligi aniqlanadi.

O'quvchilar bilan munosabat. O'qituvchi oldida o'quvchilarni ta'limning umumiy mehnatiga jalb etishdek muhim vazifa tu-radi. Pedagogik hamkorlik oldingi pedagogikadan, bolalarni o'qishga tortishda o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi mehnati asosiga qurilganligi bilan xarakterlanadi. O'quvchilar bilan munosabatda novatorlik yondashuvining mohiyati shundaki, ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi ta'lim tizimida adekvativ o'zgarishlarni talab etadi. V.I.Juravlevning ta'kidlashicha, hamkorlik pedagogikasi nafaqat munosabatlar, balki bilish operasiyasining tuzilishini, bilimlarni jamoa bo'lib egallash va mustaqil bo'lib yakka tartibda ishlashni (eng yaxshi sherik bo'lish uchun) ham talab etadi.

Ixtiyoriy ta'lim olish. Hamkorlik pedagogikasining bu prinsipi o'quvchida qo'rqish hissini yo'qotish, erkin bo'lish, o'ziga ishonch

uyg'otish, unda to'laqonli ijodiy ishlashga qobil insonni ko'rish, V.A.Suxomlinskiy so'zi bilan aytganda, muvaffaqiyatdan yuzaga kelgan ko'tarinkilik bo'lsa, o'sha yerda o'qishga qiziqish bo'ladi.

Qiyin maqsad g'oyasi. Tajribani o'tkazuvchi o'qituvchilarning yozishicha, ularning ishlari an'anaviy darsdan shunisi bilan farq qiladiki, ular bolalar bilan hamkorlik g'oyasini quvvatlab turadi, bolalar oldiga ko'proq murakkab maqsadlarni qo'yadi, ularning o'ta murakkabligiga e'tiborni qaratadi va ushbu maqsad albatta amalga oshiriladi, bu o'rinda mavzu yaxshi o'zlashtirilgan bo'lishi kerak. Mazkur holatda o'quvchilarni maqsadning o'zigina emas, balki qiyinchiliklarni yengishga bo'lgan qat'iy ishonch ham birlashtiradi.

Tayanch g'oyasi. O'qituvchi – novatorlar predmet-so'z axborot-lariga turli-tuman tayanch signallarini kiritadi. Chunki bular xotirani, mantiqni, xayolni, tafakkurni algoritmik ko'rinishlarini rivojlantirish vositasi hisoblanadi. V.F.Shatalov darsda tayanch signallaridan unumli foydalanadi.

Erkin tanlash g'oyasi. O'quvchilar ijodiy fikrlashni rivojlantirishning eng oddiy yo'li hisoblanadi. Erkin tanlash maktab o'quvchilari shaxsidagi ayrim sifatlar notekis rivojlanishining oldini olish imkoniyatlarini beradi. Erkin tanlash g'oyasiga misol: V.F.Shatalov o'quvchilar ixtiyoriga juda ko'plab misollar beradi va bolalar o'z ixtiyorlari bilan xohlagan misolni tanlab oladi.

S.N.Lisenkovada o'qituvchi doskaga qanday qiyin so'zlar yozishini bolalarning o'zlari tanlaydi. I. P. Volkov o'quvchilarga faqat mavzu beradi, o'quvchilar esa qanday materialdan nima tayyorlash mumkinligini aytadilar.

Ilgarilab ketish g'oyasi. Bu g'oya S.N.Lisenkova, V.F.Shatalov va boshqa o'qituvchilarda yaxshi hal etilgan. An'anaviy tarzda o'qituvchi darsda o'tgan materialni qaytarib, yangisini bayon etar ekan, u faqat «kechagi» va «bugungi»ni bilar edi. Hozirgi zamon darsida ilg'or o'qituvchilar, masalan, S.N.Lisenkova misolida, darsning ma'lum vaqtini keyinchalik o'qitilgan materialni o'zlashtirishga ajratadi.

Yirik bloklar g'oyasi. Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, agar materiallar yiriklashtirilib, yagona blokka birlashtirilsa, o'quvchiga tushadigan og'irlikni keskin kamaytirish hisobiga o'rganiladigan material hajmini ko'paytirish imkoniyati yuzaga keladi. Ijodkor novator-o'qituvchilar darslikdagi 3-4-paragrafdagi tekstlarini bitta darsda o'rganishni ma'qul ko'radilar.

Darsga turlicha shakl berish g'oyasi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarda dars o'rganilayotgan predmet shakliga javob beradi. Masalan: V.F.Shatalovning matematika darsida teoremani isbotlay borib, ortiqcha bironta so'z ishlatmaydi. Matematika o'qituvchisining hikoyasi juda aniq bo'lishi kerak. I.P.Volkovning ijodkorlik (mehnat) darsida o'quvchilarning shovqin qilishiga yo'l qo'yiladi. O'quvchilar unga ko'plab savollar bilan murojaat qilishadi. Ye. N. Ilin badiiy asarni tahlil eta borib, tahlil badiiy shaklda bo'lishiga harakat qiladi.

O'z-o'zini tahlil etish g'oyasi. Ilg'or o'qituvchilar bolalar o'qishining dastlabki davridan boshlab individual va jamoa bo'lib o'z-o'zini tahlil etishga o'rgatib boradi. Sh.A.Amanashvili kichik yoshdagi bolalarni baho berish va muhokama yuritishga o'rgatib boradi. Uning o'quvchilari dars vaqtida o'z o'rtoqlarining ishlarini tekshirib, baholab, bir-birlarining yozma ishlariga taqriz yozishga o'rganib boradilar.

Sinfning intellektual asosi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning sinflarida bilimga bo'lgan intilish, yuqori maqsadlarga erishish doimo hukm suradi. Sinfning umumiy maqsadlari va boyliklariga uning intellektual fondi (asosi) kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar qiyinchiliklarni yengishga, aqliy zo'riqishdan qo'rqmaslikka, yevristik quvonchni ko'ra olishga o'rgatadi.

Shaxsiy yondashuv. Ilg'or o'qituvchilar dars o'tish jarayonida, har bir o'quvchi o'z shaxsini his etib turishiga o'rgatadi, o'qituvchining o'ziga e'tibor berayotganini sezib turadi. Bu, asosan, har bir o'quvchining dars davomida o'z mehnatiga berilayotgan bahoni olib turishi bilan xarakterlanadi. Har bir o'quvchi o'ziga vazifa tanlaydi. Hech kim undan qobiliyatsiz deb gumonsiramaydi. Sinfda hamma har tomonlama himoyalangan bo'ladi.

Maktab amaliyoti va pedagogika asosli ravishda tasdiqlaydiki, dars o'qituvchining butun fikr va harakatlari doimo qaytarilib turadigan va aylanib turadigan markaz hisoblanadi. Dars pedagogik jarayon zanjirida shunday halqaki, M.N.Skatkin so'zi bilan aytganda tomchida quyosh aks etganidek, unda barcha tomonlar aks etadi. «Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan». (Совершенство процесса обучения. М. 1971. 149 стр.).

Tarbiyalanuvchi shaxsini yaxlit shakllantirish nuqtai nazaridan har qanday darsning foydali koefficientini aniqlash yuzasidan ma'lum bir mezonni topish qiyin.

Dars ta'limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktabdagi ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o'quvchilarni o'zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshirishni nazarda tutadi.

Har bir o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyati davomida 25 mingdan kam bo'lmagan dars beradi. Qaysi o'qituvchi darsning mazmunli va qiziqarli bo'lishini xohlamaydi? Kim mohir o'qituvchi bo'lishni xohlamaydi?

Buning uchun uzoq yil ishlagan o'qituvchi bo'lish yetarli emas. Dars mustaqil va mas'uliyatli ijodiy ish sifatida o'qituvchidan rivojlanuvchi ijodiy pedagogik fikrlashni, pedagogik mahoratni egallashni talab etadi.

Darsning texnologik tomonlari.

1. Ta'lim vositalari.

O'qituvchining muvaffaqiyati uning, birinchi navbatda, g'oyaviy, nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. Darsga tayyorgarlik shu fan bo'yicha darslik, psixologik-pedagogik va uslubiy xarakterdagi kitoblar o'qishdan, uslubiy jumallar, qo'shimcha adabiyotlar, gazeta va turli materiallarni o'qishdan iborat bo'lishi kerak. Bibliografik kartochkalar, boshqa o'qituvchilarning konspektlari, rejalari, dars loyihalari, turli tahlillar va boshqa manbalar ham zarur. Shuningdek, yana turli o'quv fanlari, diafilmlar, diapozitiv, texnik vositalardan ham foydalanish muhimdir. Shu mavzu (darsga oid) bo'yicha turli ilmiy manbalardan, qonun va qarorlardan olingan sitatalar, tezislar, fikrlar keltirilsa ham maqsadga muvofiqdir.

Shuni hisobga olish kerakki, barcha o'qituvchilar uchun bir xilda bo'lgan ta'lim vositalari bo'lishi mumkin emas. Uning turli-tumanligi o'qituvchi fanning o'ziga xosligi bilan, uning imkoniyatlari, ehtiyoji, intellektual faolligi, yangilikni his etishi, pedagogik bilimga chanqoqligi va b. q. bilan belgilanadi.

1. *Dars materiali mazmuning tahlili.*

Darsning yaratilishi – bu fikrlarning paydo bo'lishidir. U bir nechta elementlardan tashkil topgan. Bulardan eng muhimi davlat programmasi tomonidan belgilab qo'yilgan materialdir. Tajribali o'qituvchilar o'quv programmalarining asosiy yo'nalishini, ularning har bir bo'lagini juda yaxshi biladi. Bunga maqsad, vazifa va programmaning tuzilishi kiradi. Yaxshi o'qituvchini doimo mavzuga oid materialni shu vaqt uchun qanday o'tish kerak degan masala qiziqtirib keladi (mavzu bir necha bor oldin o'tilgan bo'lsa ham). Bu esa, bugungi maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirishga qanday ta'sir etadi? Oldingi yildagi darsdan farqli o'laroq bu yilgi darsni, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy holatni, ilmiy yangilik, madaniy sohadagi o'zgarishlarni ifodalash haqida jon kuydiradi. Tajribali o'qituvchilar – kompleks tarzda rejalashtirishni o'ylaydi.

Har bir dars o'zida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni belgilaydi:

– tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ma'lum ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy dunyoqarashlarni shakllantirish, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik va boshqa insoniy sifatlarni yuzaga keltirishdan iborat;

– ta'limiy maqsad; o'quv programmalarini talablari asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

– rivojlantiruvchi maqsad esa: o'rganilayotgan materialdan eng muhimlarini, zarurini ajratib olish, qiyoslash – umumlashtirish, mustaqil fikrlay olish, ta'limda qiyinchiliklarni yenga olishga o'rgatish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

3. *Dars ishlanmasi.*

O'qituvchi shu darsning muallifi va dars uning mahorati, ijodkorligi, motivlariga bog'liq bo'lib, dars badiiy rangga ega bo'lishi zarur. Avvalo, darsning ijodiy mushohadasi yuzaga keladi

va u ishlanib, keyinchalik pedagogik asar sifatida amalga oshiriladi.

Darsning mushohadasi quyidagi elementlardan iborat:

– davlat programmasida belgilangan materialni o‘qituvchi tomonidan anglab yetish;

– shu yoshda o‘qiyotgan o‘quvchilar saviyasini hisobga olgan holda hozirgi zamon g‘oyaviy vazifalari bilan shu dars materiali o‘rtasidagi munosabatni belgilash;

– o‘tiladigan materialning o‘qituvchining o‘z bilimi, tajribasi va g‘oyaviy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi;

– oldingi o‘tilgan materialning bugungisi bilan o‘zaro uzviy bog‘liqligi;

– o‘tiladigan materialning mazkur sinf va shaxs psixikasi bilan bog‘liqligi.

Eng yaxshi darsni hozirgi ilg‘or va yangi usullarga asoslanmay turib tashkil etish mumkin emas. Shuningdek, fanlar va turli yoshdagi o‘quvchilar gruppasining o‘ziga xos tomonlari ham hisobga olinishi kerak.

Masalan, M.Abdurasulov, V.F.Tursunov va S.N.Lisenkovalar tajribasi boshlang‘ich sinf uchun ma‘qul bo‘lsa, V. F. Shatalov, N.P.Guziklarning tajribasi tabiiy matematik sikldagi fanlar uchun ma‘qul, Ye.N.Ilina, A.Jabborovlarning tajribalari adabiyot fani o‘qituvchilari uchun foydali.

Dars mushohadasini ishlab chiqish barobarida o‘qituvchi o‘quvchilarni darsning subyektiga, uning hammuallifiga aylantirish foydali.

Mushohadali o‘ylash – bu dars materiali uchun samarali prinsiplar va vositalarni o‘ylab topish, aniq sharoit uchun, ta‘limiy, tarbiyaviy vazifalarni shu holat uchun belgilash kam vaqt, ortiqcha urinish qilmay materialni o‘quvchiga yetkazishdir. Masalan: darsni suhbat asosida yoki munozara usulida qanday tashkil etish mumkin?

Eng muhimi, darsni ishlashda uslubiy yo‘llar tanlash, keyinchalik darsning qolgan komponentlari haqida (vazifalarni tekshirish, mustahkamlash va h. k.) o‘ylash kerak.

O'qituvchining o'quvchilar faoliyatini dars jarayonida boshqarish mahorati ko'plab omillarga bog'liq. Shulardan eng muhimi o'z predmetini o'quvchilarga qiziqarli qilib yetkazishdan iborat. Olimlarning takidlashicha, qiziqish shaxsning barcha psixik jarayonlari va funksiyalari, idrok, tasavvuri, diqqati, xarakteri, fikrlashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda o'qishga qiziqish, havasning yuzaga kelishi va rivojlanishida mohir o'qituvchilar quyidagi asosiy holatlarga doimo rioya qiladilar:

– bilimga qiziqishni rivojlantirish, o'rganilayotgan predmetga muhabbat shu vaqtda yuzaga keladiki, agar aqlli o'quvchilarni mustaqil, izlanuvchi xarakterda tashkil etilsa, ta'lim muammoli xarakter kasb etadi;

– boshqa mehnat kabi o'quv mehnati ham turli-tuman bo'lsa, qiziqarli bo'ladi. Bir xildagi ma'lumotlar va bir xildagi ta'sir tizimi tezda zerikish uyg'otadi;

– o'rganilayotgan predmet va ayrim mavzuga qiziqish uyg'otish uchun uning zarurligini, muhimligini maqsadga muvofiqligini tushuntirish zarur yoki uni anglab yetish kerak;

– oldingi o'tilgan materiallar bilan yangi o'rganilayotgan material uzviy bog'lansa, u yanada qiziqarliroq bo'ladi;

– juda yengil yoki juda og'ir materiallar bolalarda qiziqish uyg'otmaydi. O'qish qiyin, lekin o'quvchilar kuchi yetadigan bo'lishi zarur;

– o'quvchi ishi qanchalik tez tekshirilib, baholanib turilsa, ishlash shunchalik qiziqarli bo'lib boradi;

– o'quv materialining yorqinligi, emotsionalligi, o'qituvchi his-tuyg'u bilan materialni bayon etishidagi o'zaro uzviyligi o'quvchilarda shu materialga kuchli qiziqish uyg'otadi;

– ta'sir tizimining xilma-xilligi, kompleksligi va ularning frontal differensial individual ishlarda unumli foydalanish o'quvchilarda o'rganilayotgan predmet va materiallarga qiziqishni oshiradi.

1. *Darsda ish shakllarining xilma-xilligi.*

Mohir pedagoglar dars-leksiya, dars-seminarlar, dars-munozaralar, dars-konferensiya, dars-ekskursiya, o'quv kabinetlari

tizimida mustaqil ishlar darsi, dars-konkurslarni o'tish va ularni o'tkazish texnikasini yaxshi egallash bilan ularning mahorati ajralib turadi.

a) Muammoli ta'lim. Masalan, birinchi sinf o'quvchilariga tayyor materialni daraxt va boshqa poliz yekinlari misolida berish mumkin (Daraxtda yagona katta ustun bo'lib, undan bir nechta shohchalar, barglar o'sib chiqadi, poliz yekinlarida yagona katta ustun yo'q va yerdan birdaniga bir necha barglar o'sib chiqishi mumkin), Lekin ular oldiga muammoli holatni qo'yish mumkin. Birinchidan bu holatda bolalar materialni eslab qoladi, ikkinchidan, mustaqil yechimni izlaydi.

b) Ijodiy xarakterdagi masalalar. Bu pedagog va o'quvchining haqiqatni birgalikda izlash mashg'uloti, madaniy fikrlash laboratoriyasi. Bunday darsda har bir o'quvchida bilimga qiziqish, yangilikka intilishga ehtiyoj seziladi. O'zlari savol berib unga javob axtaradilar. An'anaviy darslarda o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar darslik bo'yicha javob beradilar, Shu bilan haqiqat topilgan, ular darslik va qo'llanmalarda mavjud degan tasavvur hosil bo'ladi. Yana nimani istash kerak? Nima uchun istash kerak? Haqiqat topilgan, faqat uni qabul qilish zarur degan tushuncha yuzaga keladi. Bunday holat darsni zerikarli, ehtirossiz, o'lik bir narsaga aylantiradi. Shuning uchun beriladigan savollar oldindan o'ylab, sistemalashtirilgan, bolalarni o'ylantiradigan fikrlarni to'qnashtiradigan, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga turtki beradigan, mustaqil fikr yuritishga undaydigan, yangilikni o'zi izlab topishga turtki beradigan aniq, qisqa savol berishga alohida e'tiborni qaratmoq kerak. Mantiqiy fikr yuritishga undaydigan savollar bolalarni keyinchalik ijodiy fikr laboratoriyasini kengaytirishga yordam beradi.

d) Darsda mustaqil ishlar. Mohir o'qituvchilar yosh o'qituvchilarga nisbatan kam kuch, vaqt sarf qilgan holda o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qiladi va bu borada yaxshi natijalarga erishadilar. Buning uchun ular quyidagi qoidaga amal qiladilar agar mavjud mavzu ish sharoit uchun kuchi yetadigan bo'lsa, u holda o'quvchilarga shu materialni mustaqil o'rganishini tashkil etish, agar qiyin bo'lsa, u holda, o'qituvchi o'zi materialni bayon qilib berishi kerak.

Mustaqil ishlashning juda ko'plab ko'rinishlari – o'qituvchi o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlashda qo'llaydi. Birinchi navbatda, bu ishlar qaytarish xarakteriga ega. Jumladan, oldingi o'tilgan materiallarni qo'llash bo'yicha mashq va masalalar, o'qituvchi topshirig'i bo'yicha darslik materiallarini tanlab o'qitish, oldingi o'tilgan materiallarni umumlashtirish uchun turli sxema va tablisa tuzish zarur. Mustaqil ishlar yangi materialni samarali o'zlashtirish maqsadida ham foydalaniladi.

Biz yuqorida aytganimizdek, o'qituvchi uchun pedagogik mahoratni egallash nafaqat o'z predmetining har tomonlama bilishi bilan, shuningdek, odamlarni siyosat, fan, san'at, texnika, sport sohasida nimalar qiziqtirishni ham yaxshi bilmog'i zarur.

a) Darsning psixologik tomonini hisobga olish: O'qituvchilar o'quvchilar xotirasi, diqqati, irodasi, yig'inchoqligi, chidamliligi kabi sifatlarning rivojlanish darajasini doimo sinab turadi. Bunda nimalarga rioya qilish kerak? O'qituvchining bosh vazifasi - o'quvchilarni hamma tomonlama yaxshi bilishi va uni tushunishga intilishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Darsda optimal psixologik rejimga rioya qilish kerak. Qanday qilib? Fikrni yo'naltirishga, ixtiyoriy diqqatni markazlashtirishga halaqit berayotgan har qanday narsani yo'qotish zarur. Shuning uchun o'quvchi yuzi, ko'zi, harakatlaridagi ozgina bo'lsada har bir o'zgarishlarni darrov seza bilish, unga darrov reaksiya berish, ular diqqatini boshqarish, jonlantirish va yo'naltira bilmoq zarur.

Ijodiy darsning asosiy shartlari, qiziqishlarni hisobga olish qobiliyati, fikrlash tezligini, tayyorgarlik darajasini, har bir sinf o'quvchilarining xarakter sifatlarini hisobga olishdan iborat.

b) O'qituvchining o'quvchilarga talab qo'yish xarakteri. Oddiy hisob-kitob shuni ko'rsatyaptiki, 45 minut davomida o'qituvchi o'quvchiga o'rtacha 100 ga yaqin talablar qo'yadi. Ko'pmi bu yoki ozmi? Bu o'rinda A.S. Makarenkoning gapini eslash o'rinli «Shaxsga qancha ko'p talab qo'ysang, shuncha marotaba uni hurmat qil». Lekin gap nechta talab qo'yishda emas, boshqa o'qituvchilar qanday talab qo'yayotganini kuzatish bilan xarakterli. Shuningdek talabalar tabiatini bilish ularning tavsifini tahlil etish kerak.

Bu o'rinda ayrim o'quvchilar harakatlariga baho berish, rag'batlantirish, xulosa qilish ayrim ko'rsatma, kamchiliklarni aytib o'tish orqali ko'plab o'qituvchilar kimga qanday talablar qo'yishni biladilar va bolalar buning oqibatida ma'lum tartibdagi talablarga ko'nikib, ma'lum xulqiy tomonlarini shakllantirib boradi. eng muhimi, qo'yladigan talablar kuchi yetadigan, aniq, ma'lum darajada oxiriga yetkaziladigan talablar bo'lmog'i zarur.

d) Darsda emotsional – intellektual holatni yaratish. Dars davomida o'quvchi atrof muhitni bilibgina bormay, balki unga munosabat ham bildiradi. Ba'zi holatlar uni hayajonlantiradi, ba'zilariga befarq, ba'zilariga o'zi aralashadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, ijobiy yemosiya inson faoliyatining kuchli kuzatuvchisi va ilhomlantiruvchisidir. Darsning emotsional-intellektual holati bir qator usullar bilan quvvatlab turiladi.

Birinchidan, o'rganilayotgan mazmunda qiziqarli axborotlardan foydalanish qo'shimcha manbalarga murojaat qilish tufayli. Masalan, tarix darsida shunday misol keltiring: yer yuzida bo'lib o'tgan 14520 dan ortiq urushda 3 mlrd. 640 million odam o'ldi. Agar shu urushlar xarajatlari hisoblab chiqilsa, 8 metr qalinlikdagi 10 km oltin kamar bilan yer ekvatorini o'rab chiqish mumkin.

Ikkinchidan, darsda turli kashfiyotlar, ma'lum olimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, irodaviy, xarakterli odamlar hayotidan hikoyalar aytish mumkin.

Uchinchidan, bolalar o'zlarini qiziqtirgan ijodiy ishlarga birdaniga jalb etish orqali tasodifiylik, hayron qolish keyingi faoliyat uchun muhimdir.

To'rtinchi, o'quv materialiga o'qituvchining turli ko'inishdagi emotsional munosabati. Boshlovchi o'qituvchilar shuni esda tutish kerakki, go'zallik, obrazlilik, o'rganilayotgan materialning hayajonlilik o'quvchilarga o'tadi.

e) Yumor hissi: tadqiqotchilar tajribali o'qituvchilarning xususiyatlari ichida ularning quvnoq xarakteriga alohida e'tibor berishadi. Bunday fazilat butun dars davomida ishchan kayfiyatni saqlashga yordam beradi. Buning uchun usullar ko'p (fizkultminut, sevimli ashulani aytish, hazil-mutoyibali gaplar aytish).

f) Dars tezligi. O'qituvchi uchun dars tezligi nafaqat mehnat

muammosi bo'lib qolmay, balki intizom, dars sifati muammosi hamdir. Darsda yuqori tempni ushlab turish uchun uning kuchi yetadigan bo'lishi va bu o'rinda, o'quvchilarda ma'lum ko'nikmalar shakllanishi zarur. Ba'zi tajribasiz o'qituvchilar vaqtni material sifatiga e'tibor bermay tezligini oshiradilar. Ritmning buzilishi har qanday ishchan holatga, o'quvchilar kayfiyatiga ta'sir etadi.

Ish tezligining eng qulay holatini aniqlash uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

a) darsning ko'pchilikni qoniqtiradigan o'rtacha tezligini topish;

b) o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish;

d) jamoa va individual ishlashning o'zaro ma'qul bog'liqligini izlab topish;

e) o'quvchilar faoliyati ko'rinishlarini o'zgartirib va yangilab turish kerak;

f) vaqtni samarasiz sarf bo'lishini maksimal qisqartirish, tezlikni asta-sekin oshirishga erishish zarur.

Ish tezligi o'qituvchi tomonidan faqat ish vaqtida hal etiladi.

g) Darsda o'z-o'zini nazorat. O'z-o'zini nazorat yosh o'qituvchilar pedagogik qobiliyatini rivojlanishini tezlashtiradi, tajribali o'qituvchilar pedagog mahoratini «sirini» oshkor etadi. O'qituvchi o'z-o'zini tahlil etishga murojaat etib, darsda o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirish kabi kuchli qurolga ega bo'ladi, bu esa o'z o'rnida o'z mehnatidan qoniqish, ma'naviy kuchga ega bo'lish kabi his-tuyg'uni yuzaga keltiradi. Dars tahlilining quyidagi umumlashgan prinsiplariga rioya qilish mumkin:

1. Darsda nima qilish mo'ljallangan edi, aslida nima bo'ldi, qiyoslash zarur.

2. Bilim, ko'nikma va rivojlanish borasida o'quvchilarda o'zgarishlarni oldingi tahlil qilingani bilan qiyoslash.

3. Darsda o'quvchilar chin dildan ishlayotganini hisobga olish zarur.

h) Darsning sifat tomoni. Darsning sifat tomonini aniqlash o'qituvchi uchun mahorat maktabi, mashg'ulotlar tashkil qilishning

eng samarali yoʻl va usullarini ongli darajada qoʻllash sharti hisoblanadi. U darsda nimaga erishdi, nimaga erishaolmadi, sabab qanday, bartaraf etish, yanada rivojlantirish uchun nima qilish kerak?

Dars sifatini anʼanaviy sxema boʻyicha aniqlash mumkin: soʻrash – tushuntirish – mustahkamlash – uyga vazifa.

Masalan, dars sifatini M. Maxmutov sxemasi boʻyicha didaktik kategoriyalar va tuzilish elementlari boʻyicha oʻtkazish mumkin.

Didaktik kategoriyalar boʻyicha tahlilning vazifalari quyidagilarni aniqlashdan iborat:

1. Dars didaktik prinsiplar va oʻquv tarbiya jarayoni talabari javob beradimi?

2. Darsning borishi va natijasi dars talablari va programmaga javob beradimi?

3. Didaktik vazifalar hal etildimi? Oʻquvchilar bilim, koʻnikma va malakalarni egallashlari maqsadi roʻyobga chiqdimi?

4. Butunicha dars tuzilishi qanday edi va tashqi-ichki tuzilishi elementlarining izchilligi qanday?

5. Darsning didaktik vazifalariga oʻqituvchi metodlari, koʻrgazmalilik va texnik vositalar toʻgʻri keldimi, oʻquvchilar yuqori darajada bilishi uchun mustaqil ishlashiga bular yordam berdimi?

6. Ushbu darsda differensiallash va individuallashtirishning xarakterli tomonlari nimalardan iborat boʻladi?

Dars tahlili tuzilish elementlariga koʻra quyidagilarni aniqlaydi.

Dolzarlilikni sifat jihatdan aniqlash, harakat qilishning yangi tushuncha va usullarini shakllantirish, koʻnikma va malakalarni shakllantirish, darsning qaysi elementlari oʻquvchilarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishini belgilash. Shularning barchasi dars sifatini belgilaydi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni alohida taʼkidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi oʻqituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik koʻrishiga bogʻliqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilgʻor texnologiyalariga muvofiq holda loyihalaniishi alohida oʻrin tutadi.

Nazorat savollari:

1. Dars pedagogik faoliyatning asosi ekanligini isbotlang.
2. Novator pedagoglarning asosiy g'oyalari nimalardan iborat?
3. Kreativ o'qituvchi tushunchasiga ta'rif bering?
4. Pedagogik maqsadga muvofiqlik va o'qituvchi tashqi qiyofasining darsni yaxshi olib borishdagi ahamiyati?

5.3. O'qituvchining kasbiy ta'limda roli va o'rni

"Ta'lim sohasida axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish bugungi kunning taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Bunda ilg'or tajribalarni nafaqat maktab, litsey va kollej, oliy o'quv yurtlari, balki har bir oila hayotiga kirib borishi uchun zamin yaratishning ahamiyatini chuqur anglash lozim" I. Karimov.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rni egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirish, dars va ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etish,

Birinchidan, tizimda yuqori malakali pedagoglar kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini uzluksiz va sifatli ravishda oshirib borishga;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar kasbiy

qiyinchiliklari va ehtiyojlariga asoslangan uzluksiz sifatli metodik xizmatni tashkil etishga;

Uchinchidan, mavjud fan xonalari, o'quv laboratoriya asbob-uskunalar, jihozlar va kompyuter texnikasidan, umuman olganda, barcha shart-sharoitlardan samarali foydalanishga;

To'rtinchidan, sifatli ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va umumta'lim maktablari hamkorligida ilg'or ish tajribalarini amaliyotga joriy etishga;

Eng asosiysi, Xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratiga bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy o'qituvchi o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi- kasbiy kompetentligining eng asosiy komponentidir. Jumladan,

– Dunyo va mamlakatda ta'lim taraqqiyoti bosqichlarini bilishi, xalq ta'limi tizimida o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini ta'minlashga, uzviylik va uzluksizligiga amal qilish;

– Kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik faoliyatida qo'llay olishko'nikmalariga ega bo'lish;


– O'quvchilarning ruhiy, jismoniy rivojlanishi va yosh xususiyatlari qonuniyatlarini bilishi, ta'lim-tarbiyada pedagogik-psixologik yondashuvga asoslanish;

– O'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda darsning aniq bosqichi uchun samarali zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

– O'quv-tarbiya va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti va sog'ligi, texnik hamda axborot havfsizligini ta'minlashga tayyor bo'lish;

– Dars jarayonida mediaresurslar va elektron tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda mediahavfsizlik me'yorlariga amal qilish;

O'qituvchilar umumta'lim fanlarini o'qitish darsning mazmuniga mediamadaniyat va mediavaxfsizlik tushunchalarini singdirib borishi, ularga axborot texnologiyalarining cheksiz ijobiy imkoniyatlari, afzalliklari bilan bir qatorda salbiy ta'siri va oqibatlaridan o'zini himoyalash yo'llarini ham o'rgatish lozim. Bunda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini quyidagilarni inobatga olgan holda rivojlantirish maqsadga muvofiq:



– O'quvchilarda axborot texnologiyalarining hayot va jamiyatdagi roli, imkoniyatlari va qo'llash doirasi, shuningdek, uning salbiy oqibatlari va ulardan himoyalalanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish;

– Ta'lim olish va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida elektron resurslar, o'quv dasturlari va boshqa o'quv-metodik mahsulotlarning afzalliklarini anglash va qo'llashni o'rgatish;

– Masofadan ma'lumot almashish lokal va global tarmoqda ma'lumot qidirishni va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-hatardan saqlanish hamda mediamadaniyat qoidalariga rioya qilish.

Yoshlarimizda yangi zamonga mos hayotiy mo'ljallarini belgilashda chalg'imaslik, axborot makonida o'zlariga kerakli manzilni aql-idrok, halollik va mehnatsevarlik bilan topish, vatan taraqqiyoti va yurt faravonligiga o'z hissasini qo'shish kabi fazilatlarni tarbiyalash biz pedagoglarning burchimizdir.

O'qituvchilik eng qadimiy kasblardan biri hisoblanadi. Pedagogning jamiyat taraqqiyotidagi roli o'ta muhimdir. Ular yoshlarni tarbiyalaydilar, avlodni shakllantiradilar, kattalar ishining davomchilarini, barkamol shaxslarni tayyorlaydilar. Shuning uchun ham, qaysidir ma'noda pedagog jamiyat kelajagini, ilmu-fanini va madaniyatini quruvchisi deyishimiz mumkin. Barcha zamonlarda buyuk ma'rifatparvarlar o'qituvchining jamiyat hayotidagi rolini yuqori baholashgan. Buyuk pedagog Y.A.Komenskiy o'qituvchilik

kasbi haqida “O‘qituvchi kasbi shunday ajoyibki, quyosh ostida undan muhimroq bo‘lishi mumkin emas” degan edi.

Belorussiyalik shoir va adabiyotchi Y. Kolas “Pedagog – bu nafaqat tarbiyachi, u insonning eng yaqin do‘sti, jamiyatimiz madaniyatining yuqori bosqichlarga ko‘tarilishiga yordam beruvchi shaxs” deb ta’riflagan edi.

Pedagogning jamiyatdagi roli, ya’ni, uning ijtimoiy funksiyalari jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyat rivojlanishi darajasi o‘zgarishi bilan o‘qituvchining roli ham o‘zgarib boradi. Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas: pedagog jamiyatda yashaydi, demakki, u yashayotgan jamiyatda sodir bo‘layotgan evolyusion va inqilobiy o‘zgarishlarni boshidan kechiradi. Shuning uchun tarixning turli davrlarida pedagogning ijtimoiy rolining yollanma ustadan, davlat xizmatchisigacha bo‘lgan evolyusion o‘zgarganiga ajablanmaslik lozim.

Quyida pedagogning jamiyatdagi asosiy ijtimoiy vazifalarini sanab o‘tamiz:

Birinchi vazifa: Pedagog jamiyatda “dvigatel”, jamiyat taraqqiyotining katalizatori (tezlatkich) rolini bajaradi. Yosh avlodni tarbiyalash orqali u yangi va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega shaxslarni, jamiyat hayotining turli sohalaridagi yangiliklarni juda tez o‘zlashtira oladigan mutaxassislarni shakllantiradi. Va shu orqali jamiyatning taraqqiyot rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Ushbu rivojlanishni tezlatishda pedagogning quvvati va ko‘p yillik mehnati ulushi juda ham kattadir.

Ikkinchi vazifa: Professional o‘qituvchi jamiyatning tarixiy o‘tmishi va uning istiqbolli kelajagi o‘rtasidagi uzluksiz zanjir rolini – yosh avlod orqali bajaradi. U estafetadagidek, jamiyatning o‘tmishdagi tarixiy hayot tajribasini istiqbolli kelajakka uzatadi.

Uchinchi vazifa: Pedagogning yana bir maxsus funksiyasi mavjud. U ijtimoiy tajribani o‘zida yig‘adigan “akkumulyator” rolini bajaradi. Ushbu rol orqali pedagog jamiyatning xilma xil umuminsoniy, madaniy, intellektual, ma’naviy va h.k. qadriyatlarini saqlovchi va uzatuvchi shaxs sifatida chiqadi. Bu qadriyatlarni u butun umr o‘zida yig‘ib, keyinchalik ularni yosh avlodga uzatadi.

Demak bu yerda pedagog roli nafaqat yig'uvchilikka, balkim yuqori avlod yig'gan qadriyatlar va tajribani yosh avlodga uzatuvchi mexanizmning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Aslida bu yerda bir emas, pedagogning ikki ijtimoiy maqsadlari belgilanadi: uzatish uchun yig'ish.

To'rtinchi vazifa: Pedagogning yana bir ijtimoiy rollaridan biri bo'lib, uning mutaxassis sifatida jamiyat madaniyatini, jamoaviy munosabatlarni, odamlarning o'zaro munosabati va xulq-atvorining hozirgi vaqtdagi ahvoliga baho beruvchi va tahlil qiluvchi rolidir. Uning baho berish mezoni quyidagicha: yaxshi va yomon omillarning mavjudligi, oraliq omillar ham mavjud. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish uchun u madaniyatning umumiy jamg'armasidan qimmatli va foydali bo'lgan materiallarni tanlaydi (subyektiv nuqtai nazardan). Bunday holatda pedagog nafaqat progressiv, balkim konservativ rolni ham o'ynaydi. Gap shundaki yuqori avlod pedagoglari, o'z yoshlik davrlarini, yashagan yillari cho'qqisidan orqaga nazar solib, shiddat bilan kirib kelayotgan yangiliklarni buzg'unchi negativ hodisalar sifatida qabul qilishadi va bu yangiliklarga qarshilik qilishib, nomaqbul deb topishadi.

Umuman olganda esa, jamiyat taraqqiyotini faqatgina pedagoglar faoliyati belgilamaydi. Chunki boshqa omillar ham mavjud va jamiyat taraqqiyotini ayrim pedagoglarning konservativ qarashlari to'xtata olmaydi. Biroq ko'pchilik pedagoglar, yangilikka intilishadi va ilg'or g'oyalarni jamoatchilik munosabatlari tizimiga olg'a surishadi.

Beshinchi vazifa: Pedagogning yana bir ijtimoiy vazifasini aytib o'tish lozim: bu jamiyat tomonidan yoshlar olamini yuqori avlod oldida ifodalashga vakolat berilgan shaxs vazifasidir.

Professional pedagog boshqa hech kim bilmaydigan darajada bolalar, o'smirlar, yigitlar va qizlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlarini, ularning yosh davrlaridagi har tomonlama rivojlantirishning o'ziga xoslikligi va imkoniyatlarini biladi.

Shuning uchun ham, u jamiyat oldida yoshlar tarbiyasi haqida o'z kompetent fikrlarini bildirishga qodir va o'z ishini bilgani uchun, tarbiya amaliyoti va nazariyasining dolzarb muammolari bo'yicha jamoatchilik fikrini yaratishga ma'nan haqlidir.

Oltinchi vazifa: Nihoyat, pedagogning yana bir, sal kam eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri – yoshlarning ma’naviy olamini aniq bir jamiyat tamoyillari va qadriyatlariga muvofiq shakllantirishdir. Aynan mana shu g’oya ustida pedagog doimiy ish olib boradi, o’sayotgan yosh avlodga insonlarning ma’naviy, huquqiy, estetik tamoyillari va me’yorlari asosida birga yashash bo’yicha bilimlar va tushunchalar, e’tiqodlar va qoidalarni shakllantirib boradi.

Pedagog yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar to’g’risidagi tasavvurlarni tarbiyalab, ularning o’z xulq-atvorlarini ushbu qadriyatlarga muvofiq boshqarishga, ezgulik va rahmdillik, sabrlik, boshqalarga nisbatan hurmat va insonparvarlik tamoyillari asosida yashashni o’rgatadi.

Shunday qilib, pedagogning zamonaviy jamiyatdagi roli yuqorida sanab o’tilgan uning ijtimoiy vazifalarida namoyon bo’ladi. Haqiqatda esa ushbu vazifalar bir-biridan ajralmagan holda, majmuaviy ko’rinishda ifodalanib, hayotning turli tomonlari va hodisalarining murakkab aloqalarini aks ettiradi.

Mustaqillik yillarida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko’tarish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqil O’zbekistonimizda ustuvor vazifa sifatida sifatli ta’lim-tarbiya berish, ta’limning samaradorligini oshirish masalasi qo’yildi.. Mamlakatimizda butun dunyoda neyob deb tan olingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur’atlarda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko’tarishni talab etmoqda.

Pedagogika sohasida ilmiy tadqiqotlarda “O’qituvchilarning mahorati”, “Zamonaviy o’qituvchining qiyofasi”, “O’qituvchilarning kasbiy kompetentligi” mavzularida bir qator ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Albatta bu tadqiqotlarni amalga oshirish o’qituvchini o’z ustida izlanishga, pedagoglik qobiliyatiga bog’liq. O’qituvchi darslarni

zamon talablarida o'tishi xalq ta'limi tizimida bir qator amaliyotga tatbiq etilgan innovatsiyalarda ham ko'rish mumkin.

Shu yo'nalishda xalq ta'limi tizimida ham sifatli ta'limni joriy etish maqsadida barcha o'qituvchilar tushunadigan sodda va aniq tilda "Dars muqaddas", "O'rgan-o'rgat", "Sog'lom muhit – sog'lom jamoa", "Uzluksiz va uzviy" kabi bir qator innovatsiyalar amaliyotga joriy etildi.

Yaxshi muallim quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

— O'z fani bo'yicha yaxshi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi

— Dars jarayonida pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida samarali foydalana olishi;

— Darsga qo'yilgan maqsadlarga erishishi, dars jarayonida har bir o'quvchining aqliy va ma'naviy rivojlanishiga shart-sharoit, imkoniyat yaratishi;

— har bir o'qituvchining qo'lida qog'oz va elektron shaklda (fleshka, kompyuterda va boshqalar) fani bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, taqvim-mavzu reja, dars ishlanmasi (konspekti) mavjud bo'lishi hamda o'qituvchi bular haqida puxta bilimga ega bo'lishi lozim;

— har bir darsga mas'uliyat bilan yondashib, puxta tayyorgarlik ko'rgan holda mahoratini oshirish, elektron darsliklardan unumli foydalanish muhim

Xalqimizning quyidagi donishmand naqliga amal qilish barcha o'rgan-o'rgat jarayoni ishtirokchilariga tavsiya etiladi:

— Biladi, ko'proq bilishga intiladi – u olimdir, undan o'rganmoq kerak.

— Bilmaydi, lekin bilmasligini biladi - u umidli insondir, unga o'rgatmoq kerak.

Sifatli dars — bu, o'quvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilgan darsdir.

Bu borada geografiya fani bo'yicha tashkillangan darslarni misol qilishimiz mumkin. Geografiya darslarida o'quvchilarni fan yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish uchun dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida fanga oid bo'lgan qo'shimcha manbalardan, yani "Bolalar ensiklopediyasi", "Qiziqarli

geografiya”, “Men dunyoni anglayman” manbalaridan ko‘proq foydalaniladi. O‘quvchilarni darslikdan olgan nazariy bilimlarini amalda tatbiq etish uchun harita, atlas, yozuvsiz haritalar bilan ishlash orqali mustahkamlaymiz. Darslarni yanada qiziqarli bo‘lishi uchun Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, multimediya va elektron darsliklarini namoish etamiz. Darslarni o‘qitishni innovatsion usullaridan foydalanib, darsning har bir etaplarida yangi pet texnologiyalar orqali tashkillash, o‘quvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni rivojlanishiga sabab bo‘lyapti.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o‘zi tayyorlagan yoki to‘plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallar yig‘indisi ta‘limning sifatining garovidir. Mazkur materiallar qog‘oz yoki elektron variantda bo‘lib, prezentatsiyalar, dars ishlanmalari, elektron resurslar, boshqa o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Metodik materiallar o‘qituvchiga darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o‘z hamkasblarining ilg‘or ish tajribalaridan xabardor bo‘lish hamda o‘z tajribasini ommalashtirish imkonini beradi.

“Ko‘pgina Afrika mamalakatlarida boshlang‘ich ta‘lim ko‘rinarli darajada o‘sdi, ammo bandlikni ta‘minlash uchun umumiy o‘rta ta‘lim yetarli darajada oraliqqa ega emas, Talabning qondirishning birdan bir yo‘li texnik va kasbiy ta‘limda yoshlarga ta‘lim berishning yangi g‘oyalarini ishlab chiqish, chunki dunyoning turli nuqtalarida ish topishi uchun. Bunday g‘oyada ta‘lim berishning rasmiy va norasmiy shakllarni ishlab chiqishni inobatga olish zarur. YUNESKO ning texnik va kasbiy ta‘limga ixtisoslashgan YUNESKO markazi yoshlarni maktabdan ish faoliyatiga o‘tish jarayonida o‘qituvchi va instruktorlarning o‘rnini rivojlantiradi.

Afrika ittifoqi (AI) texnik va kasbiy ta‘limni o‘qitish ikkinchi ta‘lim sifatida emas, balki oliy ta‘lim darajasiga yetkazish bo‘yicha keng istiqbol rejasini ishlab chiqqan. (AI) texnik va kasbiy ta‘limni o‘qitish umumiy ta‘limning ajralmas qismi hisoblanadi, shuningdek milliy rivojlanish imkoniyatining o‘shishini taqdim

etadi. Shuningdek, texnik va kasbiy ta'limni o'qitish ko'pgina Afrika davlatlarida yetarli darajada rivojlanmagan. texnik va kasbiy ta'limni o'qitishni yaxshilash maqsadida ish beruvchilarni, siyosatchilarni, ota-onalarni, o'qituvchi va jamoatchilikning munosabatini o'zgartirish darkor. Yana bir muammo borki, bu jismoniy va moliyaviy to'siqlar. Agarda yangi dastur ishlab chiqilsayam, obyekt va dasturlarni yangilash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaydi. Shuning uchun texnik va kasbiy ta'limni o'qitish ish beruvchilar bilan hamkorlikda berilgan so'rovnomalarga to'liq javob berishi kerak. Shu masala bo'yicha "texnik va kasbiy ta'limni o'qitishni tayyorlashda o'qituvchilarning o'rni" mavzusida maqola chiqarilgan.

Maqolada texnik va kasbiy ta'limni o'qitishda pedagogik ta'lim yangi yo'nalish yoritib berilgan. Uchta asosiy masalaga e'tibor qaratilgan: globalizatsiya va barqarorlik, AKT sohasida taraqqiyot, shuningdek obsolesces umumiy ko'nikama va texnologiyalar. Bu savollar ko'rilganda pedagogik ta'limda o'qituvchi va o'quvchining o'rni tayanch asosi shakllantirishni taqdim etadi.

Muallif shuni ta'kidlaydiki, XXI asr o'qituvchisi asosiy kalit masalalarni ko'p qirrali tarzda o'rganishi kerak, shuningdek umumiy va AKT sohasidagi ko'nikmalarni o'rganish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshiradi.

Ikkinchi maqola Mozambikdagi texnik va kasbiy ta'limni o'qitish institut nuqtai nazaridan isloh qiladi. Isloh qilish 2006-yilda Xalqaro Jahon banki va boshqa ikkinchi darajali homiyilar yordamida, texnik va kasbiy ta'limni o'qitishni yaxshilashni mavjud tuzilma yordamida yaxshilash maqsadida va texnik va kasbiy ta'limni o'qitishning sifati va faolligi, global iqtisodiyotning talabidan kelib chiqqan holda boshlangan. Loyihada asosan kasbiy soha hisobga olingan bo'lib, shuningdek agrosanoat, turizm va mehmonxona xo'jaligi va ma'muriyat va boshqaruv. Isloh qilish natijasida bir qancha institutli o'zgarishlarga olib keldi, lekin malakali mutaxassislarga o'zgartirish jarayoni bo'yicha muammoli savollar qolmoqda. Muallif ta'kidlaydiki, o'qituvchi va malakali kadrlarni har doim malakasini oshirish zarur. Shuningdek, davlatda moliyalashtirish yetishmasligi sababli o'qituvchilarni tayyorlash

homiylar yordamida amalga oshirilmoqda, bu shuni ko'rsatadiki, hukumat masalani xal qilish yo'lini topishi kerak.

Uchinchi maqolada Efiopiyada texnik va kasbiy ta'limni o'qitish gapirilgan.

Muallif Efiopiya hukumatning strategik rejasini ko'rib chiqadi, ta'lim sektorining rivojlanish rejasi va bu hujjat bo'yicha mamlakatda texnik va kasbiy ta'limni o'qitishni tahlil qiladi. Maqolada siyosiy masalalar, texnik va kasbiy ta'limni o'qitish rejalashtirishni moliyalashtirish va munosabat ko'rib chiqilgan. Texnik va kasbiy ta'limni o'qitish tuzilmasi oxirgi o'n yillikda parchalandi, oldingidek malakali ishchi kuchining sifati masalasi qolmoqda. Xaqiqatni aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida ayollarning ishtiroki kamayib bormoqda, shuningdek aholining barcha qatlami uchun ta'lim jarayonini jalb etish lozim. Texnik va kasbiy ta'limni o'qitish bo'yicha byudjetdan boshqa ta'lim turlarlariga nisbatan juda kam ulushi berilgan. Bu xomiylar tomonidan qo'llanish darajasi pastligi bilan bog'liq. Texnik va kasbiy ta'limni o'qitish hukumat uchun asosiy masala hisoblanadi. Keyin maqolada Afrikada o'qituvchilarni tayyorlash masalasi bo'yicha izoh berilgan. Bu tendensiya Afrika iqtisodiyotning o'sishi, tug'ulish darajasini yuqori darajadali bilan bog'liq, keyinchalik bu ikki natija regionning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maqolada shuningdek texnik va kasbiy ta'limni o'qitish bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash strategiyasi ko'rilmogda, yaqin yillarda Afrikada UNESCOIICBA taklii ishlab chiqilishi kerak.³⁶

Nazorat savollar:

1. O'qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida nimalarni bilasiz?
2. Ta'lim sifatida – o'qituvchining roli tushunchasiga ta'rif bering.
3. Ta'lim sifatida – o'qituvchining roli nimalardan iborat?

³⁶ [Unesdoc.unesco.org/urn023/0023313/231309e](http://unesdoc.unesco.org/urn023/0023313/231309e). The Role of Teacher Training in Technical and Vocational Education and Training (TVET) in Africa (1-7 pages)

SINOV UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Mutaxassis deganda kim tushuniladi?

- a) mohir tashkilotchi
- b) jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z o'rtoqlarining maslahatiga quloq soladi
- c) mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim
- d) hammasi to'g'ri

2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qachon qabul qilingan?

- a) 1999-yil 24-oktyabr
- b) 1996-yil 18-noyabr
- c) 1997-yil 29-avgust
- d) 1997-yil 29-dekabr

3. Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish fanining maqsadi nimadan iborat?

- a) talabalarda ishlab chiqarish va mehnat faoliyatiga ko'nikma hosil qilish
- b) talabalarda motivatsiya uyg'otish
- c) talabalar bilim salohiyatini oshirish
- d) talabalarni kasbga tayyorlash va qiziqtirish faoliyatini uyg'otish

4. SOLO taksonomiyasi haqida nimalarni bilasiz?

- a) alohida so'zlar darajasida tushunish
- b) shunday ierarxik klassifikatsiyani taqdim etadiki, bunda har bir daraja birinchisining davomi bo'lib hisoblanadi
- c) batafsil ma'lumotlardan iborat berilgan masalani asosiy nuqtasi va mantiqiy murojatga ega
- d) hammasi to'g'ri

5. "Didaktika" so'zining ma'nosi nima?

- a) lotincha so'zdan olingan bo'lib "bola yetaklovchi"
- b) grekcha so'zdan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish"
- c) lotincha so'zdan olingan bo'lib "san'at"
- d) grekcha so'zdan olingan bo'lib " bilim tarbiya"

6. Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan axborot texnologiyalarining joriy etilishi bilan birga yuzaga keladigan muammolarni bilasizmi?

- a) Texnik muammolar
- b) Dastur muammolari
- c) Tayyorgarlik muammolari
- d) hammasi to'g'ri

7. Pedagogik jarayon deganda qanday jarayon tushuniladi?

- a) o'quv jarayonidagi holat
- b) o'qituvchining madaniyati maruza o'qish
- c) malaka oshirish
- d) o'qituvchi va talaba bilimlarini, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llashni o'z ichiga qamrab oladi

8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni nechta moddadan iborat

- a) 29 moddadan
- b) 43 moddadan
- c) 35 moddadan
- d) 55 moddadan

9. Ta'lim jarayoni qanday tarkibiy qismlarga ega?

- a) maqsadlilik, O'quv jarayoni to'g'rilash
- b) mazmuniyligi, Natijaviy baholash
- c) Operatsion faoliyatlilik, Fikrlash va tushunish
- d) hammasi to'g'ri

10. Oliy ta'limning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

a) dDavlat ta'lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o'qitishning sifatini ta'minlash, Oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

b) Oliy ta'limning insonparvarligini ta'minlash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy istiqloq g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanga, oilaga, atrof-muhitga muhabbatni singdirish;

c) o'qitishning interfaol usullarini, pedagogik innovatsion hamda axborot kompyuter texnologiyalarini, mustaqil ta'lim olish, masofaviy ta'lim tizimini amaliyotga joriy qilish, Oliy ta'lim

sohasida ikki tomonlama foydali aloqalarni rivojlantirish va boshqalar

d) hammasi to'g'ri

11. O'qituvchi o'quvchi - talabning bilish faoliyatini tashkil etish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali qanday vazifani, yani qanday maqsadni hal etishi lozim?

a) talimiy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad

b) tarbiyaviy maqsad, Talimiy maqsad, Rivojlantiruvchi maqsad

c) Rivojlantiruvchi maqsad

d) to'g'ri javob yo'q

12. Bugungi kunda turli oliy o'quv yurtlari filiallarini hisobga olganda O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining sonini bilasizmi?

a) 64 ta

b) 71 ta

c) 69 ta

d) 75 ta

13. Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim kreditlarini ajratish qanday amalga oshirilmoqda?

a) "O'zsanoatqurilishbank", "Ipotekabank", "Agrobank",

b) "Ipak yo'li" banki, "Aloqabank", "Trastbank",

c) barcha javoblar to'g'ri

d) ayrim kredit uyushmalari tomonidan

14. O'zbekistonda nechanchi yildan boshlab tijorat banklari tomonidan respublika oliy o'quv yurtlarida to'lov-shartnoma asosida ta'lim olayotgan talabalarga ta'lim kreditlarini berish joriy etilgan?

a) 2001 – 2002-yil

b) 2003 – 2004-yil

c) 2005 – 2006-yil

d) 2007 – 2008-yil

15. Har bir oliy o'quv yurti nechi yilda bir marta Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan amalga oshiriladigan attestatsiyadan o'tadi?

- a) 3 yilda
- b) 4 yilda
- c) 5 yilda
- d) 2 yilda

16. Jahon tajribasiga tayangan holda markaziy davlat organi (vazirlik) vakolatlarini berishni nechta asosiy modelga ajratish mumkin?

- a) 4 ta modelga
- b) 3 ta modelga
- c) 2 ta modelga
- d) 5 ta modelga

17. O'zbekiston sharoitida qanday modeldan - oliy o'quv yurtlariga ko'proq avtonomiya berish modelidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi?

a) birinchi model ko'proq federativ tuzilishga ega bo'lgan va unchalik markazlashmagan mamlakatlarga mos keladi.

b) ikkinchi model ushbu tashkilotning Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligiga o'xshab qolish xavfini tug'diradi

c) uchinchi model doirasida Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining roli strategik boshqaruv darajasigacha tushiriladi. Qolgan barchasi – operativ va taktik boshqaruvni oliy o'quv yurtlarining o'zlari hal qilishlari zarur

d) birinchi va ikkinchi model

17. Oliy ta'lim nechi bosqichdan iborat?

- a) bakalavriat va magistratura
- b) asfirantura va doktorantura
- c) magistratura va asfirantura
- d) magistratura va doktorantura

18. Respublikamizda oliy ta'lim muassasalarining qanday ko'rinishlari bor?

- a) universitet
- b) akademiya
- c) institute
- d) hammasi to'g'ri

19. Magistriturada o'qish nechi yil davom etadi?

- a) 2 yil
- b) 3 yil
- c) 1yil 6 oy
- d) 1 yil

20. Nechanchi yildagi qaroriga asosan Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish pedagogik Mutaxassis tayyorlash kerak?

- a) 1998-yil 11-mart
- b) 1997-yil 29-avgust
- c) 1999-yil 17-noyabr
- d) 2000-yil 12-sentyabr

21. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirilishining alohida javobgarligi kimning zimmasiga kiritilgan?

- a) o'quv ishlari bo'yicha prorektor
- b) talim vazirligi
- c) rektor
- d) talim vaziri

22. Talaba deganda kimni tushunasiz?

- a) o'zi izlanuvchan,
- b) bilimga chanqoq
- c) darsdan tashqari xohlagan o'qituvchidan dars olish huquqiga ega
- d) hammasi to'g'ri

23. Shaxsiy yo'naltirilganlik texnologiyalarni qandaydir tasniflashga urinish kamdan-kam bo'ladi, sabab ularni tasniflash kriteriyasi murakkab va yetarli darajada aniq emas. Bu texnologiyalarni shartli ravishda qanday guruhga bo'lish mumkin?

- a) qadriy-yo'naltirilgan
- b) adaptiv(soddaroq)texnologiyalar
- c) shaxsni ijodiy rivojlantirish texnologiyalari
- d) hammasi to'g'ri

24. Pedagogning mutaxassis bo'lib o'zini anglashida qaysi fan yordam beradi?

- a) biologiya
- b) falsafa

c) psixologiya

d) estetika

25. Pedagogik mahorat keng va o'zgaruvchan bo'lgani uchun, uning takomillashi qancha vaqt davom etadi?

a) butun umr

b) faoliyatining yarmida

c) 10 yil

d) to'g'ri javob yo'q

26. Karera haqida malumot bering?

a) karera individual bo'lib har bir odam uchun o'z traektoriyasiga ega.

b) karera pedagogik mahoratni egallashdan boshlanadi.

c) motivatsiyaning shakllanishi

d) a va b javoblari to'g'ri

27. Informatika yoki axborot texnologiyalariga bag'ishlangan nazariy kurslar ma'ruza o'qish bilan o'rgatilayotganda va bunda qo'yilgan maqsad yo'nalishiga qarab kerakli (rejali) laboratoriya - amaliy ishlari o'tkazilayotganda darslar shaklining qanday turini aniq ko'rsatish mumkin?

a) yangi materialni o'rganib-o'rgatish darsi, aralash dars.

b) bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish darsi

c) bilimlarni, malaka va mahoratlarni tekshi-rish darsi aralash dars, yangi materialni o'rganib-o'rgatish darsi, bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va umumlashtirish darsi

d) aralash dars.

28. Yangi bilimlarni o'rganish darsining tuzulish tarkibini keltiring?

a) yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash, tashkiliy qism, darsni yakunlash, uyga topshiriq berish

b) tashkiliy qism, yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash, uyga topshiriq berish, darsni yakunlash

c) tashkiliy qism, darsni yakunlash, yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash, uyga topshiriq berish

d) yangi o'quv materialini bayon qilish va mustahkamlash, tashkiliy qism, uyga topshiriq berish, darsni yakunlash

29. Aralash dars turining tarkibi qismini sanab o‘ting?

- a) Uyga berilgan topshiriqni tekshirish
- b) Talabalar bilimini og‘zaki (yakka tartibda) bir yo‘la va aralash holda tekshirish.

c) tashkiliy qism, yangi o‘quv materialini bayon qilish. Mavzu bo‘yicha boshlang‘ich, sinash, ko‘nikma va ijodiy mashqlarga alohida e‘tibor berib materialni mustahkamlash uyga topshiriq berish darslarni yakunlash.

d) tashkiliy qism, Uyga berilgan topshiriqni tekshirish, Talabalar bilimini og‘zaki (yakka tartibda) bir yo‘la va aralash holda tekshirish, yangi o‘quv materialini bayon qilish, mavzu bo‘yicha boshlang‘ich, sinash, ko‘nikma va ijodiy mashqlarga alohida e‘tibor berib materialni mustahkamlash, uyga topshiriq berish, darslarni yakunlash.

30. Reyting tizim orqali baholashdan maqsad nima?

- a) talabalarda o‘qitilyotgan fanlani chuqur egallash,
- b) chuqur topshiriqlarga ijodiy yondoshish mustaqil fikrlash,
- c) o‘z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish va ushbu tariqa raqobatdosh mutaxassislarni tayorlashga erishish.

d) hammasi to‘g‘ri

31. O‘zbekiston Resbuklasining Oliy ta‘lim muassasalari amaliyoti haqidagi nizom qachon qabul qilingan?

- a) 1998- yil 30-oktabr
- b) 1998-yil 2-sentyabr
- c) 1997-yil 29-avgust
- d) 1996-yil 23-iyun

32. Nazorat turlarini sanab o‘ting?

- a) oraliq yakuniy
- b) joriy oraliq
- c) joriy, oraliq, yakuniy
- d) to‘g‘ri javob yo‘q

33. Talaba mustaqil ishni bajarishdan asosiy maqsad nima?

a) beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestr dan semestrga ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim.

b) talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish natijasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash

c) muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizim

d) to'g'ri javob yo'q

34. Fan bo'yicha talabalarning ilmiy-nazariy konferensiyalarini nechta bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi?

a) 2-bosqich

b) 4-bosqich

c) 3-bosqich

d) 5-bosqich

35. Oddiy matnni yozishni bilishlari va uni tahrir qilishlari uchun talabalar qanday offis dasturini bilishi kerak?

a) power point

b) excel

c) word

d) blaknot

36. Videokonferensiyali darslarni tashkil qilish uchun nimalar kerak bo'ladi?

a) kompyuterda maxsus videokonferensiyani ta'minlovchi qurilma

b) programm ta'minot o'rnatilgan bo'lishi kerak

c) bir xil vaqtda aloqa bo'lishi kerak

d) hammasi to'g'ri

37. Talabalarni bilim saviyasini oshirishda video konferensiyalardan foydalanish afzalliklari keltiring?

a) nogironlar foydalanishi mumkin

b) vaqtni tejash

c) pul tejaladi

d) hammasi to'g'ri

38. Multimedia vositalari ham zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalari asosiy bo'g'inini tashkil etib, undan foydalanmay turib, darslarni tashkil etish mumkin emas ulani sanab o'ting?

- a) videoproektor
- b) veb kamera,
- c) raqamli fotoapparat, skaner va printer
- d) hammasi to'g'ri

39. Ma'naviyat so'ziga tarif bering?

a) inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuasi.

b) jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi

c) jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui

d) har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

40. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga ko'ra mamlakatimizda yagona uzluksiz ta'lim tizimi tashkil qilinib, ta'lim islohoti va uning istiqbollari qanday tamoyillar asosida belgilandi?

a) millati, dini, irqi, e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi.

b) ta'lim tizimining uzluksizligi, ilmiyligi, dunyoviyligi va izchilligi.

c) ta'limda umummilliy, umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarning ustuvorligi, ta'limning insonparvarligi, demokratiyaliligi, ta'lim-tarbiya muassasalarining siyosiy partiya va boshqa ta'sirlardan xoliligi.

d) hammasi to'g'ri

41. Sifat va fazilatning farqi nimada?

a) alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui.

b) farqi yo'q

c) ikkalasi bir tushuncha

d) ikkalasi umuman boshqa boshqa tushuncha

42. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psixolog B.F.Pargin qanday fikrni aytgan?

a). individlarning o‘zaro ta’sir jarayoni; shaxslarning bir – birini tushunish jarayoni.

b). individlar o‘rtasidagi axborot almashinuv jarayoni, bir shaxsning bashqa shaxsga munosabat jarayoni;

c). bir kishining bashqalarga ta’sir ko‘rsatish jarayoni, bir – biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;

d) hammasi to‘g‘ri

43. «Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Xa» so‘zini aytishning nechta uslubi bor?

a) 30 dan ortiq usuli bor

b) 50 dan ortiq usuli bor

c) 35 dan ortiq usuli bor

d) 40 dan ortiq usuli bor

44. Oliy o‘quv yurtidagi o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari?

a) oliy maktabdagi ta’lim o‘rta (o‘rta maxsus) ma’lumot negizida

amalga oshiriladi va muayyan mutaxassislik (yo‘nalish) ga yo‘naltirilgan

bo‘ladi.

b) oliy maktabdagi ta’lim didaktik jarayon bo‘lishi bilan bir vaqtda

ilmiy tadqiqot ishlari bilan o‘zaro bog‘liq holda olib boriladi.

c) oliy maktabdagi jarayon o‘ziga xos shakl va metodlarda olib boriladi.

d) hammasi to‘g‘ri

45. “O‘qitish metodikasi”, “O‘rganish metodikasi” farqi nimada?

a) ikki tushuncha ham amalda teng huquqlidir

b) bir biriga o‘xshamaydigan tushuncha

c) bir biri bilan bog‘liq tushuncha

d) bir birini to‘ldiradi

46. “Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi-o‘qituvchilik va murabbiylikdir”, – degan fikr kimga tegishli?

- a) g‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy
- b) I.A.Karimov
- c) Konfutsiy
- d) Lutfiy

47. Zamonaviy o‘qituvchi shaxsida qanday fazilatlar namoyon bo‘la olishi kerak?

- a) o‘qituvchi maxsus pedagogik
- b) psixologik va mutaxassislik
- c) ma‘lumoti va metodik tayyorgarlikka, shuningdek, yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxs
- d) hammasi to‘g‘ri

48. O‘qituvchidan birinchi navbatda nimalar talab qilinadi:?

- a) jismoniy va aqliy salomatlik, Yuksak axloqiy va insoniy fazilatlar.
- b) kuchli va keng qamrovli poyindor bilim, Metodik mukammallik va sayqallangan kasbiy mahorat.
- c) nutq madaniyati, notiqlik san‘ati va imlo savodxonligi, Muttasil o‘z ustida ishlash va malakasini oshirish va boshqalar.

d) hammasi to‘g‘ri

49. Har bir dars o‘zida qanday vazifalarni belgilaydi?

- a) rivojlantiruvchi
- b) talimiy
- c) tarbiyaviy
- d) hammasi to‘g‘ri

50. Umumlashgan modelga muvofiq o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablarni sanab o‘ting?

- a) ta‘lim berish mahorati, tarbiyalay olish mahorati
- b) o‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta‘minlovchi shaxsiy fazilatlar
- c) ta‘lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati
- d) hammasi to‘g‘ri

51. Pedagogik hamkorlikning mualliflarini o‘qituvchi-novatorlarini bilasizmi?

- a) V. F. Shatalov, ye. N. Lisenkova,
- b) P. I. Volkov,
- c) M. P. Shetinin
- d) hammasi to‘g‘ri

«KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH» FANIDAN GLOSSARIY.

INNOVATSIYA – yangilanishni, o‘zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati, yangilik kiritish.

Ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asolanagan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalari va doiralarda qo‘llanishini aks ettiradi.

INSON KAMOLOTI – bu insonning keng ma‘noda ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanish jarayonidir.

GURUHLI TA‘LIM – bir o‘qituvchi bir necha o‘qituvchini o‘qitadigan ta‘lim shakli. Guruhlar o‘quvchilar soniga qarab: kichik (3-6 o‘quvchi), o‘rta (7-15 o‘quvchi), katta (15 dan ortiq o‘quvchi, guruhlar) ga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta‘lim oluvchilarning yoshiga, ta‘lim yo‘nalishiga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo‘llash jarayonida yakka ta‘lim shakllari ham amalga oshiriladi.

DARS – ta‘limni tashkil etish shakli bo‘lib, belgilangan vaqt (45 daqiqa) davomida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsad asosida, hamkorlikdagi faoliyati ko‘rinishi.

DUNYOQARASH – shaxsning tafakkur tarzi va yo‘nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e‘tiqod va fikr-o‘ylar tizimi.

JAMOA – umumiy maqsad yo‘lida shaxslarning o‘zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg‘un sotsial (ijtimoiy) guruh.

KASBIY BILIMDONLIK – pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy tayyorgarlik birligi.

PEDAGOG – tarbiyachi, o‘qituvchi, dars beruvchi.

PEDAGOGIK JARAYON – ta‘lim masalalari, uning taraqqiyotini kashf qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

PEDAGOGIK MAHORAT – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikani mukammal egallash, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA — ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlari va o'qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta'limiy maqsadga erishishni kafolatlovchi o'quv-tarbiya jarayonining loyihasi.

RIVOJLANISH — miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishi, o'sish.

TANQIDIY FIKRLASH – berilgan fikrlar doirasidan chetga chiqadigan fikrlarning mavjudligi; mavzuda yangi o'lchovlarni ko'rish; muammolarni izlash va yechish; shuningdek, dalillangan yozuv yoki munozara shaklida ifodalanadigan fikrlar o'rtasidagi tafovut.

TARBIYA – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarining maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlaydi.

TARBIYA – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

TARBIYA – bu milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifat va insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

TA'LIM – bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

TRENING — tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi.

TEXNOLOGIYA – bu ma'lum bir muayyan maqsadga yoki maqsadlar tizimiga erishish uchun amalga oshiriladigan jarayonlar ketma-ketligidan iborat bo'lgan yaratuvchilik (paydo etish jarayoni) faoliyatiga aytiladi yoki boshqacha aytganda **texnologiya**

deganda manbalardagi (obyektlardagi) sifat o'zgarishlarga olib keluvchi jarayonga aytiladi.

FAOLIYAT – ongli ruhiy faoliyat bilan boshqariladigan kishining ichki, tashqi faolligi.

FAOL O'RGANISH – tadqiq qilish (ijod) va o'rganishga qiziqishni (intilishni) yuzaga chiqaruvchi faoliyat yondashuvi.

O'QITISH VOSITALARI – ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari – asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

HAMKORLIK – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro muloqatiga asoslangan ijodiy faoliyat jarayoni.

SHAXS – muayyan ijtimoiy guruh a'zosi bo'lgan, biror-bir faoliyat turi bilan mustaqil shug'ullana oladigan, atrof — muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual va psixologik xususiyat egasi bo'lgan inson.

ADAPTIV MASHG'ULOT — o'quvchining tashqi muhitga, jamoaga, mehnat vazifalarini bajara olishga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot.

NAZARIY BILIM — empirik holatlarni tasvirlash, tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi.

BILISH — obyektiv borlikning ongda aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagi darajalarda bo'ladi:

INNOVATSIYA — yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish, kiritish jarayoni va faoliyati.

INTEGRAL — chambarchas bog'liq, butun, yagona; o'z cheksiz kichik qismlarining yig'indisi.

INTELLEKT — insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati; tushunish, muloxaza, tafakkur, aql.

INTERFAOL MASHG'ULOT — o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

MODULLASHTIRISH — pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni.

METOD — grekcha soʻz boʻlib, yoʻl, axloq usuli maʼnolarini bildiradi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yoʻli, usuli yoki kiyofasi, shakli, koʻrinishi.

METODIK — metodikaga tegishli qatʼiy ketma-ketlikka, tizimga, ilgari oʻrnatilgan reja, tizimga aniq, rioya qilish.

MOTIV — odamni oʻqishga yoki biror harakat larni bajarishga undovchi turli sabablar yigʻindisi.

OLIY MAʼLUMOT DARAJASI — shaxs tomonidan oliy taʼlimning muayyan taʼlim dasturini mazkur maʼlumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, oʻzlashtirishi natijasi.

SALBIY MOTIV — bu majburlab oʻqitish, lekin bunda oʻquvchining oʻqishga nisbatan qarshiligi hamma harakatimizni yoʻqqa chiqaradi.

TAFAKKUR Operatsiyalari — qiyoslash, tahlil, sintez, abstraktlashtirish, umumlashtirish, konkretlashtirish, tasniflash, tizimlash.

TAʼLIM — ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari boʻyicha egallanishi zarur boʻlgan maʼlumot va koʻnikmalar majmui; bilim.

TAʼLIM METODI — oʻqituvchining oʻquvchilar bilan muntazam qoʻllaydigan, oʻquvchilarga oʻz aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va koʻnikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

TAʼLIM SIFATINI NAZORAT QILISH — oʻqitish mazmuni va natijalarining davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

TEXNOLOG — biror texnologiya mutaxassisi.

TEXNOLOGIYA — biror ishda, mahoratda, sanʼatda qoʻllanadigan yoʻllar, usullar majmuasi.

TRENER — maʼlum yoʻnalishda taʼlim olish, mashqlar bajarish boʻyicha trening mashgʻulotlarini olib borish (rahbarlik qilish) uchun maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassis.

TRENING — maʼlum yoʻnalishda taʼlim olish, mashqlar bajarish boʻyicha trenerlar tomonidan (rahbarligida) oʻtkaziladigan mashgʻulotlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, № 11.
5. Thyeo Le, Technologies for Enhancing and Empowerment in Education: treating Learning – Friendly Environment Libraries Unlimited UK, 2012
6. D.N. Raximova va boshqalar. “O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida boshqarish masalalari”. -T., 2008, 81 b.
7. Долженко О.В., Шатуновский В.Л. Современные методы и технологии обучения в техническом вузе: Метод пособие. - М.: Высш. шк.1990.-191 с.
8. Осипова И.В., Тарасюк О.В., Осколкова Ю.В. Введение в профессионально-педагогическую специальность: Учеб. пособие. Москва: Из-во МГИУ. 2007. - 203с.

Internet-resurslari:

1. <http://www.elkutubbhona.narod.uz>
2. <http://www.uz.ref.uz>
3. <http://www.pedagog.uz>
4. www.zivonet.uz
5. www.lex.uz
6. www.edu.ru

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I-bob. Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish fanining maqsad va vazifalari. Oliy va o'rta kasbiy pedagogik ta'lim tizimining tuzilmasi. Uning xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari.....	5
1.1. Kirish. Kasbiy pedagogika faoliyatiga kirish fani bo'yicha maqsad va vazifalari, mazmun va ishlash shakli, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.....	5
1.2. Kasbiy-pedagogik ta'limning tarixi: muammolar va rivojlanish istiqbollari.	14
1.3. Zamonaviy oliy va o'rta kasbiy pedagogik ta'lim tizimining tuzilmasi, xususiyati va rivojlanish istiqboli	17
II-bob. O'zbekiston respublikasida oliy ta'lim tizimi. Ta'lim muassasalarining faoliyati. Shaxs sotsializatsiyasi	28
2.1. O'zbekiston respublikasida oliy ta'lim tizimi, uning o'rni, tuzilmasi va ahamiyati. Oliy ta'lim vazirligining pedagogni kasbiy o'qitishga tayyorlashda o'rni va ahamiyati.	28
2.2. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi, uning o'rni, tuzilmasi va ahamiyati. OT vazirligining pedagogni kasbiy o'qitishga tayyorlashda o'rni va ahamiyati (davomi).....	41
2.3. Ta'lim muassasalarining faoliyati. OT vazirligining o'quv va ilmiy faoliyati. Oliy ta'lim tizimining talabasi. Talabaning qoidasi va majburiyatlari.....	55
2.4. Ta'lim muassasalarining faoliyati. OT vazirligining o'quv va ilmiy faoliyati. OTT talabasi. Talabaning qoidasi va majburiyatlari. (davomi).....	65
2.5. Oliy kasbiy ta'lim jarayonida shaxsning sotsializatsiyasi. «O'qimishli inson» tushunchasi	72
III-bob. Kasb ta'limi pedagogini tayyorlash mazmuni. Nazorat shakllari va turlari.....	79
3.1. Kasbiy ta'lim pedagogini tayyorlash mazmuni. 5350400-yo'nalishi bo'yicha oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standarti.....	79
3.2. Oliy o'quv yurtida o'qitishning tashkiliy shakllari	82
3.3. Talabalar bilimni nazorat qilish tizimi. Nazorat turlari....	92

IV-bob. Mustaqil ta'lim. Ilmiy loyihalar va konferensiyalarda talabalarning ishtiroki. Pedagogik muloqot.....	102
4.1..... Mustaqil ta'lim olish – mutaxassisning intellektini shakllantirish usullari	102
4.2.. Talabalarni ilmiy loyihalar va konferensiyalarga tayyorlash va ularning ishtiroki.....	110
4.3.....Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi va har tomonlama rivojlanishi.....	121
4.4... Pedagogik muloqat tushunchasi. Pedagogik vaziyatlarning turlari	130
V-bob. Shaxsning pedagogik qobiliyati. O'qituvchi muvaffaqiyati. O'qituvchining kasb-ta'limda roli va o'rni	142
5.1. O'qituvchining kasbiy sifati. Shaxsning pedagogik qobiliyati va unga tavsif	142
5.2. Kasbiy o'sish. Kasbiy faoliyatga kirishda o'qituvchi kreativligining o'ziga xos xususiyati.....	152
5.3. O'qituvchining kasbiy ta'limda roli va o'rni.....	168
Sinov uchun test topshiriqlari.....	178
Glossariy.....	190
Foydalanilgan adabiyotlar:	194

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

**MIGRANOVA ELVIRA ASLAMOVNA, POZILOVA
SHAHNOZA XAYDARALIYEVNA**

KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA KIRISH

Muharrir: A. Abdujalilov
Musahhah S. Abduvaliyev
Sahifalovchi U. Vohidov
Dizayner D. O'rinova

Litsenziya AI №190, 10.05.2011-y.

16.09.2018 yil chop etishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84^{1/16}.
Ofset qog'ozi. «Times» garniturasida. Shartli bosma tabog'i 11.6.
Nashr tabog'i 12,5. Adadi 200. Buyurtma 06

«TAFAKKUR BO'STONI» MCHJ.
100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 9-mavze, 13-uy.
Telefon: 199-84-09. E-mail: tafakkur0880@mail.ru

«TAFAKKUR BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.



«TAFAKKUR BOSTONI»
NASHRIYOTI

978-9943-993-52-5



9 789943 993525